

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**



**TEATR SAN’ATI FAKULTETI**  
**DRAMATIK TEATR VA KINO SAN’ATI KAFEDRASI**

**“TEATR SAN’ATI TA’LIMIDA AKTYORLIK VA**  
**REJISSURA MUAMMOLARI”**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

**TOSHKENT 2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**TEATR SAN’ATI FAKULTETI**

**DRAMATIK TEATR VA KINO SAN’ATI KAFEDRASI**

**“TEATR SAN’ATI TA’LIMIDA AKTYORLIK VA REJISSURA  
MUAMMOLARI”**

**Respublika ilmiy-alij konferensiya to‘plami**

**TOSHKENT 2024**

KBK: 84. 21

UO‘K: 400.31.801

**“Teatr san’ati ta’limida aktyorlik va rejissura muammolari” ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami**

–T.; O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2024. 162 bet.

**To‘plovchi va mas’ul muharrir:**

**Dilafruz Tangriyeva** - “Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Hamida Mahmudova** - O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

**Muhammadali Abduqunduzov** - O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, professor

Ushbu to‘plamda – teatr san’ati ta’limida aktyorlik va rejissura muammolari mavzusida bo‘lib o‘tgan Respublika ilmiy-nazariy, onlayn-konferensiyaning materiallari jamlangan bo‘lib, unda aktyorlik va rejissorlik yo‘nalishlarida ta’lim beradigan professor-o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish, ustoz-shogird an‘analarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, respublika teatrlaridagi rejissorlarning muntazam tajriba almashishi kabi masalalar, shuningdek, xorijiy va o‘zbek teatr san’ati maktablarining xilma-xilligi va o‘ziga xolsligini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar o‘rin olgan.

***Maqolada keltirilgan dalillarning to‘g‘riligi uchun muallifning o‘zi mas’uldir.***

© O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2024.

# “O‘ZBEK REJISSURASI VA AKTYORLIK MAKTABLARIDA ZAMONAVIYLIK”

**Munavvara Abdullayeva,**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası professori

## ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqola bugungi kundagi rejissyorlar va aktyorlarning o‘zbek badiiy kinosining tahlil qilish jarayonida ularning yutuq va kamchiliklari o‘rganilgan, zarur taklif-mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga hozirda o‘zbek kinosida rejissyorlar filmlari misolida iqtidorli aktyorlar va operatorlar ijodi ko‘rib chiqiladi. Rejissyorlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy va telenovella filmlari professionalizm nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Badiiy filmlardagi mavjud muammolarni bartaraf etishga oid taklif va mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** rejissura, san’at, kino, obrazlilik.

## ANNOTASIYA

V dannoy nauchnoy statye rassmatrivayutsya dostijeniya i nedostatki segodnyashnix rejisserov i akterov v prosesse analiza uzbekskix xudojestvennix filmov i vnosyatsya neobxodimiye predlojeniY. V toje vremya v uzbekskom kinematografe rassmatrivayutsya raboti talantlivix akterov i operatorov. Xudojestvenniye i telenovelli, sozdanniye nashimi rejisserami, analiziruyutsya s tochki zreniya professionalizma. Predlojeniya i kommentarii budut sdelani dlya resheniya sushestvuyushix problem v xudojestvennix filmax.

**Klyucheviye slova:** rejissura, iskusstvo, kino, obraznost.

## ANNOTATION

This scientific article examines the achievements and shortcomings of today’s directors and actors in the analysis of Uzbek feature films, and makes the necessary suggestions. At the same time, the works of talented actors and cameramen are being considered in Uzbek cinema on the example of director’s films. Feature and telenovela films created by our directors are analyzed from the point of view of professionalism. Suggestions and comments will be made to address the existing problems in feature films.

**Keywords:** directing, art, cinema, imagery.

Rejissura va aktyorlik mahorati bevosita teatr hamda kino san'atiga bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyat turlaridir. Rejissyorning ishi to'laligicha fidoiylikni talab qiladi. Rejissyor ssenariyni sinchkovlik bilan tanlabgina qolmasdan, balki uni o'z dunyoqarashi va nuqtai nazariga moslashtiradi, ya'ni rejissyorlik ssenariysini yaratadi. U bu jarayonda imkon qadar eng yaxshi aktyorlar tarkibini tanlashga, bu bilan filmning obrazini, uning xaqqoniy talqinini yaratishga, har bir obrazga alohida va o'zgacha tarzda yondashishga harakat qiladi.

Ko'pgina rejissyorlar o'z g'oyalari, fikrlarini batafsil bayon qiladilar, ba'zilar esa aksincha improvizatsiyani amaliy rejissuraning bosh quroli deb hisoblaydilar.

Tabiiyki, aktyorsiz rejissyor tafakkur boyligining o'ziga hos mevasi hisoblangan ijodiy g'oyalarni amalga oshira olmaydi. Aktyor bilan ishlash ham rejissyorning to'g'ridan-to'g'ri vazifasiga kiradi va aytish lozimki uning bu vazifasi xali kino yoki televideniye kashf etilishidan avvalroq, qadimgi teatrlar ilk paydo bo'lgan davrlardayoq paydo bo'lgan. Aktyor ma'lum rolni ijro etar ekan u o'z qaxramoning qiyofasiga kirishga, uning xarakterini, ichki dunyosi va his-tuyg'ularini ifodalashga o'zining bor mahoratini yo'naltiradi. Bunda u ssenariydagi mazmuni mukammal o'rganib chiqqan holda, jonlantirishga kuch va mahoratini sarflaydi.

O'zbek aktyorlik san'atiga katta hissa qo'shgan A.Xidoyatov, O.Xo'jayev, SH.Burxonov, R.Pirmuxammedov, L.Sarimsoqova, Y.Abdullayeva va h.z. kabi aktyorlar nafaqat teatrdagi, balki o'zbek kino san'ati tarixi zarvaraqlarida yorqin nom qoldirdilar, o'zbek kino san'ati aktyorlik maktabiga asos soldilar.

Biroq film tasvirga olishda ayrim rejissyorlar aktyorlar tanlash (proba)larini naqadar muxim ahamiyatga egaligini unutib qo'yishmoqda. Hozirgi kunda "konfet" deb ataluvchi aktyor yoki aktrisalarning kinoda rol ijro etishlari sababli balki kinoni saviyasi tushishiga ta'sir qilmastan qolmayapti.

2009 yilda tasvirga olingan yosh rejissyor A.Bekturdiyevning “So‘nggi lahza” filmida A.Uzoqov, 2018 yilda rejissyor S.Karimovning “Sarvqomat dilbarim” filmida A.Rajabov hamda J.Ahmedovning “Oling quda bering quda” filmida M.Abulxairovlarning o‘z rollarini maxorat bilan ishonchli ijro etganliklari e‘tiborga loyiqdir.

Filmlardagi inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-ntilishlari, Vatanga muxabbat va sadoqat tuyg‘usini betakror so‘z, ohang va ranglarda tarannum etilishi taxsinga sazovor. Buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, “Adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”.

Albatta, har qanday ijodiy jarayonda rejissyor va aktyorning ijodiy tafakkuri, qarashlari, asarga nisbatan munosabati to‘laligicha mos kelishi kerak. Shuning uchun ham rejissyorlik kasbi nafaqat ma’suliyatli balki qiyin deb ham aytiladi.

O‘zbekiston kino sohasini rivojlanishida hissa qo‘shgan N.G‘aniyev, K.Yormatov, Y.A‘zamov, L.Fayziyev, E.Eshmuxammedov, A.Xamroyev, D.Salimov va SH.Abbosov kabi buyuk rejissyorlar kelajak avlodga oltin meros qoldirishgan deb baralla ayta olamiz. Sababi, ularning filmlarini namuna sifatida ko‘rib o‘rganganmiz va xali xamon yosh avlodlar ham o‘rganishmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda rejissyorlik kasbiga bo‘lgan ehtiyoj ancha katta va bu masala kundan-kunga yanada dolzarblashib bormoqda. Ko‘pincha ayrim yosh rejissyorlar o‘zlarining naqadar bilimsiz, uquvsiz ekanliklarini sezdirib qo‘yadilar. Ularning orasida hatto N.G‘aniyevning “Tohir va Zuxra”, yoki bo‘lmasa K.Yormatovning “Alisher Navoiy”, SH.Abbosovning “Sen yetim emassan” kabi o‘lmas asarlarini ko‘rmaganlari ham topiladi. Hozirgi taraqqiy etgan, o‘z ustida ishlash va rivojlanish uchun keng imkoniyatlar ochilgan bir vaqtda ba’zi yosh rejissyorlarning ishlari kishini xayron qoldiradi. Ilm-fan, texnika va texnologiyalar rivojlangan, tomoshabinlarning ham dunyoqarashi kengayib, o‘tib borayotgan bir vaqtda qanday qilib shu qadar

saviyasiz filmlarni tasvirga olish mumkinligini tushunish mushkul. Buning sababi nimada? Facebook ijtimoiy tarmog'ida ijod sohasidan uzoq oddiy bir tomoshabinning zamonaviy badiiy filmlar va seriallar borasida bildirgan fikr va mulohazasi e'tiborimni tortdi. U "Milliy" telekanali orqali namoyish etilgan "Iqror" nomli telenovellaga o'zining munosabatini bildirgan. U film haqida, uning syujeti, ko'tarib chiqayotgan g'oyasi va uning tomoshabinlarga, ayniqsa o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy dunyosiga, tarbiyasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri haqida kuyunib gapirgan. U o'z izohida ayrim juda hunuk iboralarni ham ishlatgan va ushbu telenovella syujetidagi etika, estetikaga to'g'ri kelmaydigan, fahsh va buzuqlikni targ'ib etadigan elementlar borligiga alohida to'htalib o'tgan. Mutaxassis bo'lmagan oddiy tomoshabin ham bu filmning hatto oddiy san'at talablariga ham mos kelmasligini yaqqol isbotlab bermoqda.

Barchamizga ma'lum, internetda turli hil fikrlar ko'p bo'ladi va ularning orasida negativ fikrlar ham oz emas. Ammo, bunday salbiy fikrlarning yuzaga kelishiga ham albatta jiddiy asos bor. Ijodkor inson tomoshabinni umuminsoniy, olijanob g'oyalar ortidan ergashtirmog'i zarur. Afsuski, bugungi kunda ko'pgina "ijodkorlar" tomoshabin ortidan ergashishmoqda, kezi kelganda tomoshabinlar ularga qanday film olish o'rgatib qo'yishmoqda. Bunday saviyasizlikning asl negizida baribir birinchi navbatda bilimsizlik, ma'naviyatsizlik turadi deb hisoblayman.

Muxtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevordir". Bu so'zlarga ko'z yugurtirar ekanmiz biz ijodkorlar bugungi kunda yaratayotgan asarlarimiz bilan ana shu mustahkam poydevorni yarata olyapmizmi degan o'rinli savol tug'iladi. Buyuk rus rejissyori, aktyor va pedagog Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy o'z asarlarida shunday so'zlarni aytadi: "Agar yozilgan asarning saviyasi past bo'lsa, sahnani ming bezatmaylik baribir foydasi bo'lmaydi, biz bu asardan yaxshi spektakl yarata olmaymiz". Bundan xulosa qilish mumkinki, filmning fundamenti bu –

dramaturgiY. Fundament mustahkam bo‘lmasa o‘z ishining ustasi bo‘lgan rejissyor ham, iste’dodli aktyorlar ham hech narsa qilib bera olmaydi, uni juda mahoratli operator tasvirga olgan bo‘lsa ham foydasi yo‘q.

Jahonning buyuk adiblari, dramaturglari bo‘lmish V.Shekspirning tragediyalarini, J.Molerning komedik asarlarini o‘qigani sari uning o‘zgacha ma’naviy dunyosiga chuqurlashib boraveradi. Bu asarlarning ma’naviy boyligi, umuminsoniy g‘oyalari shu qadar mukammal va teranki, tahlil qilib tugatib bo‘lmaydigandek go‘yo.

O‘zbek kinossenaristi va kinorejissyori R.Muxammadjonovning ssenariylari asosida yaratilgan “Suyunchi”, “Abdullajon”, “Tangalik bolalar”, “Chinor ostidagi duel”, “Osmon yaqin”, “Sotqin”, “Chol va nabira” filmlari xali ham teleekranlarimizdan tushmaydi. 2006 yilda suratgaga olingan “Chol va nabira” filmiga e’tibor qaratsak, kartina qaxramoni – G‘anisher ismli yetti yoki sakkiz yoshli bola. Bola juda qaysar va bezovta. G‘anisher uchun eng muxim shaxs bu uning buvasi bo‘lib, u buvasining orqasidan bir qadam ham qolmasdan hamma joyda birga yuradi. Onasining o‘limidan keyin u bobosiga yanada ko‘proq bog‘lanib qoladi. Ammo, afsuski, taqdir taqozosi bilan bobosi ham uni abadiy tark etadi...

Filmdagi aktyorlar guruhining to‘g‘ri tanlanganligi, filmdagi muhit janrga mosligi, ssenariyning puxtaligi, albatta, rejissyorga o‘z mahoratini ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlar bergan. 2009 yilda J.Qosimov rejissyorlik qilagan, juda ham ma’noli, tarbiyaviy ahamiyatga bo‘lgan “Suv yoqalab” filmi ham e’tiborga loyiqdir. Ushbu filmda ham xayotiy voqealar aks ettirilgan bo‘lib, bosh qahramon ijrochisi iste’dodli aktyor E.Komilov o‘zining yuksak maxorat egasi ekanligini namoyish etgan. A.G‘aniyevning “Aka” filmini ham tomoshabin iliq kutib olgan. Filmda iste’dodli aktyor U.Qodirov ijro etgan rol juda ham ishonarli tasvirlangan. Qahramonning bolalarcha o‘z ukasini ximoya qilish epizodini, har gal ko‘raganimizda ko‘zimiz yoshga to‘ladi.

Demak, har bir rejissyor davlatimiz tomonidan unga bildirilgan ishonchni sitqidildan, ma’suliyat bilan, did bilan bajarsa maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Ko‘pchilik rejissyorlarimiz sifatli film tasvirga olish uchun mablag‘ni ro‘kach qilishadi. Ammo rejissyorda iste’dod bilan birga, oriyat, burch degan xislatlar ham bo‘lishi kerak. Iste’dodli aktyor, rejissyor, ssenarist CH.Chaplin aytganidek: “Komediya suratga olish uchun menga park, polisiyachi va bitta chiroyli qiz kifoya qiladi” – degan ekan. Ammo siz bilan biz bilamizki CH.Chaplin qanday buyuk asarlar yaratgan. Bundan ko‘rinib turibdiki ijodkorga ko‘p narsa kerak emas ekan. Agar o‘zi san’at uchun ich-ichidan yonmasa, boshqalarni ham yondira olmasligi aniq.

Kinoning tasviriy jixatiga esa operatorlar javob beradilar. Sababi, iqtidorsiz operator ssenariy muallifi fikrini, rejissyor, aktyor, rassom va qator ko‘plab mutaxassislar ishini butunlay chippakka chiqarib yuborishi mumkin. Operatorning vazifasi nihoyatda qiyindir. Hozirgi kunda o‘z sohasiga professional nuqtai nazaridan qarab ijod qilayotgan kinooperatorlarimiz anchagina. Bunga misol qilib H.Hasanov, I.Meliqo‘ziyev, A.Arziqulov, R.Murodov va h.z.larni misol qilishimiz mumkin.

Jamiyat taraqqiyotini san’atsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaganidek, san’atsiz xam yashay olmaydi. Har bir kishilarning ma’naviy dunyosini boyitishda va estetik didini shakllantirishda xam aynan san’atning o‘rni bekiyos.

Azal-azaldan xalqimiz ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bilan qarashgan. Mana shu xalqimizning ishonchini yo‘qotmaylik. Chunki, ijorkorga Yaratganning o‘zi shunday noyob iste’dod va salohiyat ato etgan, bunday xususiyat, bunday fazilat har kimga ham nasib etmaydi.

Muxtaram prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Zamonamizning haqiqiy qahramonlari bo‘lgan mana shunday quruvchi va muhandislar, dala zahmatkashlari haqida, jonkuyar muallim va shifokorlarimiz, jasur harbiylarimiz, navqiron yoshlarimiz erishayotgan yutuq va marralar haqida sizlar yozmasangaiz, Vatanimiz tarixining badiiy solnomasini sizlar yaratmasangiz, kim yaratadi? Agar biz iste’dod va mahoratimizni shu

muqaddas zamin, shu olijanoib xalqimiz uchun safarbar etmasak, hazrat Navoiy aytmoqchi, bu hunarni asrab nima qilamiz, qayerga olib ketamiz uni?

Ha albatta, kino san'ati rivoji uchun barcha sharoitlar yaratilgan bir vaqtda, bu sharoitlardan unumli foydalanishimiz darkordir. Hozirda davr talabi tomoshabinni qalbidan chuqur joy oladigan filmlarni yaratish taqozo etmoqda. Sababi, san'at turlari orasida o'zining ta'sirchanlik darajasi, kuchli tarbiyaviy ahamiyati va ommabopligi bo'yicha kino san'ati boshqa san'at turlariga qaraganda yuqori o'rinda turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. SH.Mirziyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" O'zbekiston.
2. S.Xaytmatova, R.Tursunmetova "Kinoshunoslik: Kino san'ati tahlili va tanqidi" o'quv qo'llanma, Toshkent "Innovasiya-Ziyo" 2020 yil.
3. I.M.Meliqo'ziyev "Kinoteleoperatorlik maxorati" darslik, Toshkent 2017 yil.

### **Internet ma'lumotlari:**

1. jahonadabiyoti.uz
2. ziyouz.z
3. uzas.uz

## XOZIRGI ZAMON TEATR SAN'ATINING RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR

*“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası*  
*professori Mahmudova H.A.*

Bugungi teatr san’atining rivojida yutuq va kamchiliklariga nazar tashlasak, eng avvalo, jamiyatimiz bu san’atning ahamiyati va mohiyati qay darajada zarur ekanligini anglamoq kerak. Teatr san’ati xalqning madaniyati, ma’naviyatini yuksaltirishiga xizmat qiluvchi eng ta’sirli san’at.

Davlat rahbari, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev teatr san’atiga bejiz alohida e’tibor bermadilar. Bu san’atning mohiyatini, “teatr ibratxona” ekanligini chuqur anlaganliklari tufayli maktablarda, oliygohlarda teatr to‘garaklarini tashkillashtirish, talabalar festivalini o‘tkazish, xatto xokimlarga oyiga kamida ikki marta teatrga tashrif qilish buyrug‘ini berdilar. Davlatimiz teatr san’atini rivojlantirishiga e’tibor berib, buyurtma asosida qo‘yilishi kerak deb topgan ko‘plab spektakllarga katta mablag‘ ajratmoqda. Ba’zi bir teatrlarga chet ellik rejissyorlar taklif etilmoqda, repertuarda klassik asarlarga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu ijobiy xolat rejissyorlik va aktyorlik mahoratini oshirishga imkkon yaratmoqda.

O‘tgan yaqin davrlar mobaynida tarixiy mavzuga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik chet el klassik asarlarga e’tibor qaratildi. Bu o‘z samarasini berdi albatta. Samarkand va Guliston teatrlarda Shekspirning “Qirol Lir”, (rejissyorlar: Valijon Umarov, Nigora G‘oyibnazarova), Rus akademik va Farg‘ona rus drama teatrlarda Shekspirning “Gamlet”, (rejissyorlar: Valijon Umarov, Anvar Abdullayev), Buxoro teatrida “Richard III” – rejissyor Valijon Umarov, O‘zbek drama teatrida rejissyor Olimjon Salimov tomonidan Shekspirning “Romeo va Djulyetta” spektakllari izlanish va katta mehnat evaziga sahnalashtirildi. Ko‘rinib turibdiki teatrlar asosan vazirlik tasdiqlagan Shekspir asarlariga murojaat etishgan. Bu bir tomondan taqqoslashga imkon

bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'ylantirib qo'yadi. Nahot jahon dramaturgiyasida bitta ikkita dramaturglar nomlaridan va ularning hammaga tanish, yod bo'lib ketgan pyesalardan boshqa mumtoz dramaturgiya topilmasa? Bu borada izlanuvchan taniqli rejissyor Olimjon Salimov, har xolda, Goldoning "Ikki boyga bir malay", Molyerning "Tartyuf" murojaat qildi va O'zbek davlat drama teatrida bu asarlarni sahnalashtirdi. Bundan tashqari u Samarkand va Milliy Akademik drama teatrlarda "Mirzo Ulug'bek" kabi spektakllarni tomoshabinlarga taqdim etdi.

Yana bir ijobiy hol. Qashqadaryo va Kattaqo'rg'on, O'zbekiston Yoshlar va Rus Akademik drama teatrlariga chetdan rejissyorlar taklif etilib, teatr stilistikasiga yangi nafas kiritilgandek bo'ldi. Keyingi yillarda maishiy, mayda mavzular og'ushida ijod qilishga o'rganib qolgan aktyorlar o'z mahoratlarini charxlashga majbur bo'lib, yangi qirralirini ochishga imkoniyat yaratildi. Ko'plab ijodkorlar o'z professional chanqoqligini mustaqil ravishda qondirishga harakat qilib kelmoqda. Farxod Abdullayev, Karim Mirxodiyev, Yulduz Rajabova kabi iqtidorli aktyorlar "Diydor" teatr studiyasi eksperimental spektakllarida, Milliy Akademik drama teatrning kichik sahnasida O'zbekiston Xalq artisti Malika Ibragimova rejissyor Tojiboy Isroilov bilan hamkorlikda B.Brextning "Shaddod xotin" (Mamasha Kuraj) spektaklini qo'yib, o'z ochilmagan qirralarini ochishga harakat qilishmoqda. Izlanish, yangi shakl va mazmunlar topish borasida rejissyor Sayfitdin Meliyev "To'ron" davlat teatrida, Kamariddin Ortiqov rahbarlik qilayotgan mo'jazgina "Shams-i – Qamar" teatr studiyasini ham tilga olish lozim deb bilaman. Ularni qabul qilish, qabul qilmaslik mumkin, ammo bu ijodkorlar teatr. san'atiga g'ayri oddiy yondoshuvlari, bu borada izlanishlar olib borishi bilan e'tiborni tortadi. Aslida davr talabiga qarab teatr, barcha san'atlar qatori, ham mazmunan, ham shaklan o'zgarishi *shart*. Demakki, teatrlar turg'unlikdan, maishiy mavzulardan yiroqlashib ijod qilishga intilishmoqda.

Shu bilan birga ba'zi bir umumiy mummolarga e'tibor qaratmoqlikni lozim deb bildim. Teatrning rivojlanishiga, siyosatini to'g'ri olib borilishiga eng katta hissasini qo'shadigan SHAHS – REJISSYOR! U teatrning yuzi! Ikkinchidan – DRAMATURGIYA! Nega rejissyor ijodining ahamiyati ustun? Chunki rejissyor repertuarni tanlash imkoniyatiga ega. Kezi kelsa mumtoz adabiyotdan foydalanib asar qo'yishi mumkin. Agarda rejissyor qobiliyatli bo'lsa o'rta miyona pyesani ham yuqori darajada sahnalashtira oladi. Qobiliyatsiz bo'lsa buyuk asarni ham muvaffaqiyatsiz qo'yishi aniq.

Mening nazarimda bu kasb noyob kasb va bu kasbga javob beraoladigan inson kamdan kam uchraydi. Rejissurada spektakl kompozitsion qurilishida voqealarni aniq belgilash, sahnada va personajlar bilan nima sodir bo'layotganiga e'tibor qaratish o'ta muhim ahamiyatga ega jarayon. Bu savolga to'g'ri javob topilgandan so'ngina jonli teatr, jonli ijroga erishiladi. Umuman aytganda rejissurada aktyorlar bilan ishlash mahorati kerakli darajada emas, deb o'ylayman. Xo'p, agarda aktyor o'ta qobiliyatli bo'lsa o'z aqli zakovati bilan maqsadga erishishi mumkin, ammo ko'pchilik aktyorlar rejissyorning aniq vazifasiga tayanadi. Rejissyor o'z o'y - fikridan kelib chiqib, aniq voqeani belgalashi, aktyorga aniq vazifani berishi, va shu bilan obraz yaratish jarayonida aktyorning imkoniyatlarini to'laqonli ochishi lozim. Shablonlardan qochib, jonli teatr yaratishda rejissyor va aktyor hamkorlikdagi ijod muhim ahamiyatga ega.

Teatr eng murakkab san'atlardan biri. Bu sohada diletant bo'lish oson. Chunki bu ikkilamchi san'at. Dramaturg so'zlari tayyor, sahna bor! So'zni yodlab sahnaga chiqsa, bo'ldi. Kirish, chiqish, ma'lum bir joyda turib gapirsa spektakl tayyor! Bu havaskorlik yondoshuv ko'plab teatrlarda kuzatish mumkin. Bu borada aktyorning mas'uliyati cheksiz. Professionalizmning poydevori bo'lgan maktabga ya'ni: tasavvur orqali ko'rish, eshitish, qabul qilish, fikrlash, voqeylikka munosibat bildirishga kam e'tibor qaratiladi. Bu jarayon, bir qarashda oddiy, hammaning medasiga tekkan jo'n bir gap. Ammo, ko'pchilik aktyorlar qarab - ko'rmaydi, eshitganday bo'ladi – eshitmaydi,

munosibat bildirganday harakat qiladi, lekin vujudiy munosibat bildirmaydi. Va albatta natijada, o'zi ta'sirlanmay boshqalarga, chunonchi partnyorlarga, tomoshabinga ta'sir o'tkazmaydi. Chunki aktyorlar ko'proq so'zga va tashqi harakatga e'tibor qaratishadi va yillar davomida yig'ilgan o'z shtamplariga tayanib keladi.

Aslida, aktyorning psixo-fizik xarakati deganda, ko'proq psixik harakatga e'tibor qaratishi lozim. Personajning har bir daqiqadagi o'y –fikri, ichki so'zi, ichki harakati bilan yashash, holat va voqeylikka munosibatiga e'tibor qaratish lozim. Personajning o'y - fikrini, maqsadini, uzluksiz xatti – harakatini, voqeylikka munosibatini aniqlagan aktyor tashqi ifodaviy vositalardan munosib foydalana oladi. Albatta rejissyor bilan hamkorlikda izlanish jarayonida.

Bu borada rejissyor na faqat talqin qiluvchi shaxs, balki psixolog, pedagog bo'lishi shart. Rejissyorlik san'ati o'ta murakkab, noyob kasb deyilgani bilan bu sohada siljish kam. Nega deganda, oliygohga qabul qilganda kasb talablarga javob beradigan abituriyentlar juda kam. Maktab, kollejni bitirgan yoshlarda hayot tajribasi kam, dunyoqarashi va bilimi tor. Buning natijasida kreativ fikrlashi, topqirligi, tasavvur va fantaziyasi chegaralangan. Vaholanki rejissyor eng avvalo, falsafiy fikrlashga ega yetuk Shaxs bo'lishi lozim. Informatsiyani qabul qilish yoshlikdan oson kechadi. 4 yil oliygoxda o'qigani bilan dunyoviy bilimlarni, adabiyotni, ayniqsa barcha san'at turlaridan voqif bo'lib, kasb sirlarini o'rganib olish qiyin masala. Uning poydevori bo'lishi kerak. Aks holda chala savod, kasbni o'lda – jo'lda o'zlashtirgan, chuqur bilimga ega bo'lmagan “mutahassis” yetilib chiqadi.

Rejissyor o'z ustida tinimsiz ishlab, dunyo teatrlari va umuman san'at va adabiyotda yangiliklardan, izlanishlardan xabardor bo'lib, saviyasini, didini, dunyoqarashini borgan sari oshirib, Shaxsga aylanishini lozim. Bu shaxs, ijodkor shaxslar jamlangan jamoaga kreativ boshqarishga xaqqi bo'lishi kerak. Buning uchun zamon bilan hamnafas yashashi, xalq dardini, quvonchini, jamiyatdagi muammolarni teran anglashi va shunga munosib manba'ni tanlab,

xalqga taqdim etishi kerak. Liderlik hislatlarini ishlatib o‘z o‘y – fikr sari jamoani yetaklashi, ularning psixologiyasini tushungan holda hamjixatlikda yetuk badiiy asar yarataolishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, xaqiqiy rejissyor shaxsiga professional talablar o‘ta jiddiy. Shuning uchun abituriyentlarni zamonaviy psixologiya yutuqlaridan, uning shaxsni aniqlaydigan testlardan foydalanib, saralab qabul qilish kerak. Toki kasb tanlashlarida xato bo‘lmasligi, baxtsiz insonlarni ko‘paymasligini ta‘minlash maqsadida. Bu borada yaqinda chop etilgan “Innovatsionniye metodiki podgotovki kadrov v sfere iskusstva” kitobni amaliyotda qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi, degan fikrdaman.

Kezi kelganda o‘ta muhim bo‘lgan masalaga e‘tibor qaratmoqchiman. Ijodiy jamoaga Rahbar qilib tayinlangan shaxsga imkoniyat va sharoit yaratish katta ahamiyatga ega! Tinimsiz o‘y-fikrga kumilgan ijodkor 2,5 millionga oilani, bola chaqani boshqarishi qiyin. Shu sababdan, tirikchilik deb, qobiliyatli rejissyorlar boshqa sohalarga o‘tib ketishyapti. O‘ylab qarasa, respublikada bor yo‘g‘i 40 yaqin teatr bor. rejissyorlarning soni esa 100 borib - bormaydi. Va bu masalaga jiddiy e‘tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Toshkent  
2024 yil

29 fevral,

# TARIXIY ASARLARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

**N.Qobilov**

*“Musiqali teatr san’ati” kafedrası professorı*

## **Annatotsiya**

Ushbu maqola barcha talabalarga dasturi amal bo‘ladigan, barcha talabalar uchun maktab bo‘lmish klassik asarlarni ular tarbiyasidagi o‘rni. Asarlar zamonlar osha umuminsoniy qadriyatlarni talabalarga yetkazish ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: Insoniyat, mahsul, qadriyat, muruvvat, spektakl, g‘oya, estet

## **Annotatsiya**

V etoy statye osnovnoye vnimaniye udelyayetsya roli klassicheskix proizvedeniy v ix vospitanii, kotoroye yavlyayetsya shkoley dlya vsex studentov, i programma rasprostranyayetsya na vsex uchenikov.

Klyucheviyе slova: chelovechnost, produkt, sennost, izyashestvo, performans, ideya, estetika.

## **Annotation**

In this state the main attention is paid to the role of classical proizvedeniy in ix vospitanii, kotoroe yavlyaetsya shkoley for all students, and the program rasprostranyaetsya on all students.

Key words: humanity, product, value, grace, performance, idea, aesthetics.

Shunday tushunchalar borki, aynan o‘sha tushunchalargina insoniyatning bugungi kundagi taraqqiyot mahsuliga erishishiga sabab bo‘lgani shubhasiz. Boringki, ibtidoiy tuzumdan ongli tarzda rivojlanish bosqichiga olib chiqqan desak ham bo‘ladi. Kimnidir yirtqich jonivorlardan qutqarish uchun qurol o‘ylab topilgan, kimnidir uzog‘ini yaqin qilish uchun g‘ildirak kashf etilgan. Bu vaziyatni mehr-shafqat, muruvvat, insoniylik, vijdon kabi tuyg‘ular keltirib chiqaradi. Demakki, bu tuyg‘ular umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy shaxslar hayotida aks etishi, ulardan bizga meros bo‘lib kelayotganini tarixiy asarlar mutolaasi mobaynida bilib olamiz. Bu qadriyatlarga mufassal to‘xtab o‘tilgan “Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch” kitobida umumbashariy qadriyatlar haqida shunday fikrlar bor: “Turmush va tafakkur tarzimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan mana shunday azaliy tushunchalar mintaqamizda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar,

mutafakkir zotlarning qoldirgan bebaho merosida ham o'zining yorqin ifodasini topgan. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Maxtumquli yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham, ta'bir joiz bo'lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni – butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda”.

Umumbashariy qadriyatlar ichida eng yuqori martabada albatta muhabbat tuyg'usi turadi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni asosida Xurshid va Sobir Abdulla insenirovkasi bilan xuddi shu nom ostida sahna yuzini ko'rgan mazkur spektakl, bir so'z bilan aytganda, mavzuyimizga yorqin misol bo'la oladi. Bu spektakl Navoiy tavalludi arafasida Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan Mirza Azizov rejissyorligida namoyish etildi.

Manbalarga ko'ra, xuddi mana shu afsona syujeti asosida yozma adabiyotning birgina o'zida bir yuz yigirmaga yaqin asarlar yozilgan. Bu syujetning o'lmas voqeyiligiga sabab qilib ham aynan umuminsoniy qadriyatlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Hazrat Navoiyning o'zi bu dostonini nomai dard deb ataydi. Asardagi asosiy o'rinlarni qayg'u-iztirob ranglari tashkil etadi. Klassitsizmga doir aksar asarlar singari bu doston ham sinkretik xususiyatga ega. Unda epos, lirika va dramaga xos xususiyatlar uyg'unlashgan. Asar syujeti, kompozitsion tizimi, obrazlari va uslubida ayni adabiy turlarga bevosita taalluqli bo'lgan jihatlar yaqqol ko'rinadi.

O'zbek romanchiligining ilk namunasi va o'zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” romani asosida dastlab ikki qismdan iborat, so'ng qisqartirishlar natijasida bir qismga

aylantirilgan film suratga olingan, teatrlarda sahnalashtirilgan. Bu asarning ham g'oyasi, mavzusi umuminsoniyat tuyg'ulari bilan bevosita bog'liqlikni yuzaga keltirgan. Asar syujetidagi ayriliq motivi oshiq va ma'shuqaning so'ngsiz iztiroblari, ijtimoiy-maishiy turmush fojiasi sifatida beriladi. Ular o'rtasidagi pokiza muhabbat asosida bunyod bo'lgan nikoh rishtalari, oila qo'rg'onini buzishga chog'langan kuch va qahramonlar o'rtasidagi kurash mobaynida biz qalamga olgan umumbashariy qadriyatlar o'z ifodasini topadi. Masalan, asar bosh qahramoni Otabekka xos bo'lgan jozib fazilatlarini biz voqealarning ilk qismidanoq anglashimiz mumkin. Otabek Marg'ilondagi dongdor karvonsaroyga qo'ngan. Uni otasi Yusufbek hojining marg'ilonlik do'sti Ziyo shohichining o'g'li Rahmat bilan Homid yo'qlab kelishadi. Odatdagi salom-alik, hol so'rashlar orasida syujet sahnasida Hasanali paydo bo'ladi. Otabek undan dastlab hol so'raydi, so'ng ba'zi yumushlar buyuradi.

“– Bu kishi kimingiz bo'ladi, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:

– Qulimiz”.

Inson farosatining, ko'ngil nozikligini qalban his qilishning, mehr-shafqatning yorqin namunasi bo'lgan mazkur holatni hech bir e'tirozsiz umuminsoniy qadriyatlar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Mana shunday tarixiy asarlardan yana biri Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub “Mirzo Ulug'bek” tragediyasidir. Shayxzoda mazkur asarida bosh qahramonni Temur maqbarasiga murojaat ettiradi, bobosining ruhidan uni ilhomlantiradi, mushkul davr va zulmatli sharoitdan azob chekkan ulug'insonning Temur ruhiga sajda qilishini, undan maslahat so'rashini muallif asoslaydi. O'ziga xos bu manzara bosh qahramonning ikki jihatini yorqin namoyon qiladi. Birinchidan, Ulug'bekning ma'naviy barkamolligini ko'rsatib bersa, ikkinchidan ruhiy fojiasini ochib berishga harakat qiladi.

Shayxzoda bu yerda o‘rinli epizodni qo‘llab, syujetga jiddiy turtki berishi bilan birga bosh qahramonning tub mohiyatini, undagi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalab berishga muvaffaq bo‘lgan.

Shunga o‘xshash hodisa Abdulla Oripovning “Sohibqiron” pesasida ham juda original shakl kasb etadi va asarga alohida g‘oyaviy-estetik yuk bag‘ishlaydi. Bu manzaraning o‘ziga xosligi shundaki, unda bosh qahramon ruhlar bilan bevosita muloqotda bo‘ladi va ular bilan jiddiy bahslashadi, ulardan yo‘l-yo‘riq so‘rashi bilan birga, o‘zining haqligini isbotlash uchun keskin munozaraga kirishadi. Bu bilan o‘z shijoatini, xalqparvarligini, adolatli ekanligini namoyon qiladi.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy o‘z asarlaridan birida tarixni o‘rganishdan maqsad, tarixda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik va tarixda erishilgan muvaffaqiyatlardan o‘rnak olishdir, degan fikrni aytib o‘tadi. Tarixiy asarlardan ham tomoshabinlar o‘rnak olishi uchun aktyorlar personajning umuminsoniy qadriyatlarini yaqqolroq namoyon qilib berishi masalaning muhim qismidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hafiz Abdusamatov: “Drama nazariyasi” – G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent – 2000
2. Islom Karimov: “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” – “O‘zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2008
3. Uzoq Jo‘raqulov: “Nazariy poetika masalalari” – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2015

## MUALLIF BILAN ILK UCHRASHUV

**Hamidova Shoira Sotimboyevna**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası dotsenti

### **Annotatsiya**

Maqolada spektakl yaratishda dramatik asarning ustuvorligi ko‘rib chiqiladi. Nasrga asoslangan dramatzatsiya va rejissyor talabaning ilk ijodiy qadamlari ustida ishlash. Kichik spektaklni sahnalashtirish uchun mavzu tanlash. Dramaturg va rejissyorning ijodiy tandemi mavzusida so‘z boradi.

**Tayanch so‘zlar:** aktyor, rejissyor, dramaturgiya, jarayon inssenirovka, teatr, adabiyot, parcha, muxit

### **Annotatsiya**

V statye rassmatrivayetsya pervichnost dramaticheskogo proizvedeniya v sozdanii spektaklY. Rabota nad inssenirovkoy na osnove prozi i perviye tvorcheskiye shagi studenta-rejissyora. Vibora temi postanovki malogo spektaklY. Tvorcheskiy tandem dramaturga i rejissyora.

**Klyucheviyе slova:** aktyor, rejissyor, dramaturgiya, postanovochniy protsess, teatr, literatura, proizvedeniye, atmosfera.

### **Annotation**

The article examines the primacy of a dramatic work in the creation of a performance. Work on a dramatization based on prose and the first creative steps of a student director. Choosing a theme for staging a small play. Creative tandem of playwright and director.

**Key words:** actor, director, dramaturgy, staging process, theater, literature, piece, atmosphere

Aktyor va rejissyor talabalarni ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida adabiyot va dramaturgiyaning o‘rni beqiyosdir. O‘qishning birinchi kunlaridan boshlab talabalarda badiiy adabiyotga mehr va did, asarni rejisser ko‘zi bilan ko‘rish yillar davomida tarbiyalanadi.

Ilk bor adabiyot va dramatik asar bilan yaqindan tanishish rejissyor va aktyor talabalarini o‘qitish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Muallif dardi, ko‘tarilgan g‘oya, mavzu va asarda aks etgan inson xayotini sahnaga ko‘chirish, yangi-yangi shakllarni ixtiro qilishdan rejissyor kasbining ilk qadamlari boshlanadi. Rejissyor butun ijodiy xayoti davomida o‘z fikri va g‘oyalariga hamoxang bo‘la oladigan muallifni izlaydi. Bu yo‘ldagi ijobiy topilma kelgusi muvoffaqiyatlarni belgilaydi. Qog‘ozdagi so‘zlarga jon ato

qilgan, unga umr bergan, jonli sahna asarini ijodiy jamoa bilan yaratuvchi ijodkor rejissyordir. Rejissyor va muallif birligi, maslakdoshligi muvaffaqiyatli spektakl' yaratilishida katta rol o'ynaydi. Umuman olganda milliy o'zbek teatrining kelgusi va bugungi kuni zamonaviy dramaturgiya va rejissuraning qay darajada bo'lishiga bog'liq. Rejissyor va asar muallifi bir birini kashf etadi. K.S.Stanislavskiyning Chexov va Gorkiy bilan yaqinligi, Mannon Uyg'urning Xamza bilan maslakdoshligi, Toshxo'ja Xo'jayevning Oybek, Erkin Vohidov bilan hamkorligi Baxodir Yo'ldoshevning Said Axmad, Rustam Xamidovni O'lmas Umarbekov bilan izlanishidan ajoyib sahna asarlari yaratildi

Rejissyor kurslari talabalari 1 va 2 semestrda aktyorlik mahorati psixotexnik unsurlarini egallashda dastlabki bosqich o'tab bo'lingach, garchi bu o'rinda ish to'xtamasada, asosiy diqqat rejissura omillarini o'zlashtirishga qaratiladi.

3 semestrda e'tiboran talaba rejissyor mustaqil ijodiy ishga astoydil kirishadi. Talabalarning barcha izlanishlari quyidagi talab va vazifalarni bajarishga qaratiladi. Avvalam bor, muallif bilan ilk uchrashuv nasriy asardan boshlanadi. Bunday amaliyot institutimizda doimo qo'llanib kelingan. Roman, qissa, hikoya, novellalar asosida insseniroykalar yoziladi va shu asosida badiiy parchalar sahnalashtiriladi. Insseniroyka etyuddan dramatik asarga o'tish jarayonida ko'priq vazifasini bajaradi. Nasriy asar bilan ishlash yosh rejissyor uchun juda katta maktab. Badiiy asarda aks etadigan voqealar, berilgan shart-sharoit, obrazlar xarakteri, tashqi ko'rinishi, ichki dunyosi muallif tomonidan talabalar tassavvur va fantaziyasi uchun berilgan muhim, batafsil malumotdir. Nasriy asarni dramatik asarga aylantirish jarayonida talaba, dramaturgiyaning kompozitsiya qonunlari, konflikt tabiati, so'z xatti- xarakati, aktyorlar bilan ishlashning ilk qadamlarini o'zlashtiradi. Dramatik asar qarama-qarshilikka qurilgan, voqealar esa dialoglardan iboratdir. Tanlangan badiiy asarning mavzu va g'oyasining dolzarbligi, ichki va tashqi karama-karshilikka qurilgan, dialoglarga boy bo'lishi va eng muhimi u talaba ruhiga mos kelishi shart. Talaba qalbini hayajonga solgan, o'zi sevgan asarni sahnalashtirishi kerak.

Nega-ki, u o'zi ta'sirlanmagan asar orqali ijro etuvchi aktyor talabalarga ham ta'sir ko'rsata olmaydi, ularning ijodkorlik ilhomini qo'zg'ata olmaydi.

Insenirovkalar ustida ish olib borish jarayonida o'zbek va jahon adabiyoti namunalaridan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'ofur G'ulom, Oybek, Chingiz Aytmatov, Shukshin, Boris Vasilyev kabi adiblar asarlaridan parchalar tanlash tavsiya etiladi. Rejissyor - talaba o'zi yoqtirgan muallif asaridan parcha tanlashi nur ustiga a'lo nurdir.

Xajman kichik bo'lgan material ustidagi ish, to'la xajmli piyesadagidek rejissyorlik rejasi asosida olib boriladi. a) asarning g'oyaviy talqini b) rejissyorning oliy maqsadi v) asarning yetakchi xatti xarakati g) asarning kompozitsion qurilmasi d) obrazlar tafsiloti ye) parchada sahnaviy ifoda vositalardan foydalanish va barcha rejissyorlik elementlarini qo'llay bilish talab etiladi.

Ishlanayotgan parchaning janrini to'g'ri belgilash nihoyatda muhim. Janr bu san'atkorning voqelikka bo'layotgan his va kayfiyatini belgilovchi belgilar ifodasidir. Aktyorlarning sahnada yashash tarzi, spektakl muhiti janr orqali o'z ifodasini topadi.

Badiiy asar asosida yaratilayotgan insenirovka ma'lum davr va hayotiy muhit maxsuli hisoblanadi. Shu sabab rejissyor asar ruhini anglashda u yozilgan davr turmush tarzini o'rganmog'i lozim. U davr olg'a surgan muammo, hayot tarzi bilan bog'liq vazifalarni belgilashi shart.

Talaba-rejisser uchun talaba-aktyorlar bilan ishlash nihoyatda murakkab jarayon. Nega-ki, talaba rejissyor ijrochiga hamisha ham o'z fikrini, aktyor bajarishi kerak bo'lgan vazifalarni aniq tushintira bilmasligi mumkin. Bunday vaziyatda ishga pedagog aralashuvi, rejissyor-talaba bilan ijrochi-talaba orasidagi kelishmovchilik sababini aniqlashi va tegishli yo'llanma berishi lozim. Rejissyor talabaning o'z tahliliy rejasi orqali ijrochida qiziqish uyg'otib ijodiy hamkorlik muhitini yarata olishi uning birinchi yutug'idir.

“Rejissura bu spektakl’ yaratish san’atidir. Rejissyor faqatgina pyesani yaxshi tahlil qiladigan, aktyorlarga maslahat beradigan, ularni sahna

dekoratsiyasi orasiga joylashtira oladigan kimsa emas, balki u hayot murakkabligini kuzatib, hulosa chiqara oladigan, har tomonlama mukammal bilimga ega, o‘z professional bilmini puxta egallagan ijokordir”,- deydi K.S.Stanislavskiy. Bunday sharaflil va mashaqqatli vazifani bajarishda rejissyor zimmasiga dramatik asarni aniq va ehtirosli o‘qish, o‘z rejasiga ko‘ra aktyorlarni ortidan ergashtirish, ularning oldiga aniq xatti harakatli maqsad qo‘ya olish, obrazlarni ijodiy yechish mas’uliyatlari tushadi.

# BUGUNGI KUN TALABASI AKTYORLIK MAXORATI MAKTABINI O‘ZLASHTIRISH AXAMIYATI

**Z.Axmedova**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasida dotsenti*

## **Annotatsiya**

*Xaqiqiy san’at, aktyorlik maxorati maktabini puxta egallagan istyedodlarning uyushqoqligidan yaratiladi, maxorat esa, barcha an’analarini o‘z ichida saqlab qolgan xolda avlodlarning tajribasidan tug‘ilgan maktab tufayli vujudga keladi. Maktab talabada tabiat ato etgan ichki layoqatini rivojlantiradi, sayqallaydi, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishda yordam beradi, qobiliyatni vujudga keltiradi, turli ijodiy vazifani uddalay oladigan shaxs etib tarbiyalaydi. Teatr arboblari talantni rivojlantirish borasidagi maktabning axamiyatli ekanligini tan olganlar, buning uchun kurashganlar, aktyorlik san’ati ta’limoti va texnikasi ustida tinimsiz ishlaganlar. Mavzu aktyorlarni maktab bo‘yicha ishlash uslubiyatini yanada rivojlantirishda aktyorlik maxorati ta’limotidagi barcha unsurlarga ahamiyat berish zarurligi xaqida.*

Teatr insoniyat yashayotgan jamiyatda an’anaviy san’at turi xisoblanadi. Asrlar osha tetrning vazifasi xech xam o‘zgarmagan. Faqat turli davrda bu vazifalarga turlicha, zamoniga yarasha urg‘u berilgan.

Teatr ijtimoiy muloqat instituti sifatida xar doim insoniy g‘oyalarni olg‘a surgan xolda, jamiyatni ma’naviy taraqqiyot jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatib kelgan. Xar bir davrda teatr ayrim g‘oyaviy, yoki byurokratik chegaralanishlarga qarshi kurash olib borsa xam, xar bir jamiyatda madaniy-ijodiy xayotni taqdirlash, chegaralash, yoki bosim orqali unga ta’sir etish bo‘yicha nazorat qilish tashkilotlari mavjud bo‘lgan.

Juda ko‘p, turli xil qarshilik va to‘sqinliklarga qaramay, teatr san’ati xar doim uzluksiz kurash olib boradi, bir oz xastalashadi, sustlashadi, ammo o‘lmaydi. Vaqti kelib gurkirab jonlanadi. Ulug‘ ustozlar shunday der edilar:

- "Teatrda ijod sustlashib ketmasligi uchun uni "qonini" almashtirib turish kerak, ya'ni yosh san'atkorlarni teatrga tez-tez jalb qilib turish kerak. Yoshlar o'z o'rinda, teatrga bugungi zamon muxitini olib kiradilar. Shu bilan birga zamon talabi, davr muammosi, tomoshabin xoxishi ayon bo'ladi. Bundan tashqari yoshlar orasida biz xam yoshi ulug'lar, ular bilan xamnafas, yonmayon turib yosharamiz, ularning dunyoqarashidan xabardor bo'lib, ulardan quvvat olamiz. Bugungi yoshlar nima bilan yashayotganini ularning o'zlaridan o'rganamiz". Shu bilan birga xar bir talabani mexr bilan tarbiyalamoq kerak. "Zamin bulog'idan ona yer, tabiat yashnasa, mehr bulog'i inson qalbini yashnatadi" [1. B. 12-13]

Shunday ekan biz yoshlarni ana shu ustozlar ishlayotgan teatrga munosib ijodkor darajasiga ko‘tarib, tarbiyalamog‘imiz lozim deb o‘ylayman. Albatta, buning uchun maktabdan kelgan, teatr san’atidan kam xabardor, qobiliyatli abituriyent saralab olinadi va uning birinchi qadamlari, oladigan ilk saboqlari darajasi juda muxim o‘rin egallaydi. Xar bir professional san’atkor aktyorlik maxoratining unsurlarini puxta egallash muxim ekanligini juda yaxshi tushunadi. Ayniqsa, 1-2-kurs maktabida o‘rgatiladigan Stanislavskiy sistemasining xar bir elementini talaba suvday simirishi kerak.

Aktyorlik san’ati - xammamizga ayonki, o‘ziga xos san’atdir. Unda ko‘plab san’at turi ma’lum ma’noda sintez bo‘ladi. Yana muxim bir jixat shundan iboratki, artistlik san’ati inson tabiatida mavjud bo‘lib, u millat tanlamaydi. Stanislavskiy sistemasi qancha davrlar sinovidan o‘tib, xozirgacha yashab kelmoqda, aktyorlarning bir necha avlodlarini tarbiyaladi, bu sistema jaxonda tan olindi. Buyuk san’atkor ustozlardan biri shunday degan: " Barcha teatr maktablari ichidan men faqat K.S.Stanislavskiy maktabini tan olaman. U

o‘zining sistemasini saxnada jonli yashash qonuniyati bo‘yicha qurgan. U bu sistemani o‘ylab topgani yo‘q, u bu sistemani yaratdi".

Darxaqiqat o‘zbek teatr san‘ati, aktyorlik maxorati to‘la ma’noda Stanislavskiy sistemasiga tayanayotganligi bugungi kunda xech kimga sir emas. San‘at institutida aktyorlar tayyorlash ishi aynan ana shu sistema asosida olib boriladi. Aktyor saxnaviy maydonga chiqishdan avval berilgan shart-sharoitlarda qanday maqsadda va nima qilishni bilishi kerak albatta. Aktyor iste’dodi va qobiliyati mavjud bo‘lib, u aniq xatti-xarakat qilayotgan bo‘lsa, Stanislavskiy sistemasining aniqlangan barcha unsurlari ong osti, ong usti xissiyotlar orqali beixtiyor saxnaviy xayotga kirishib ketadi. "Aktyorlik san‘atining asosi, uning xatti-harakati hisoblanadi. Aktyor o‘z mahoratini zimmasiga yuklangan umum maqsad-vazifani bevosita va bilvosita xatti-harakat orqali bajaradi. Xatti-harakat sahna ifodasinining bosh vazifasi ham bir maqsadga yo‘naltirilgan faol organik harakat orqali obrazning ichki va tashqi jihatini, shu orqali esa asarning maqsad-g‘oyasini ifoda etishdan iborat". [2. B. 34-35]

Sistemaning unsur va atamalarini nazariy va amaliy boylik sifatida teatr maktabining, ayniqsa o‘quv jarayoni boshlang‘ich pog‘onalarida chuqur o‘rganilib, keyingi ijodiy faoliyati davomida xam uni o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu borada avvalom bor talabalar bilan tinimsiz mashqlar ustida ish olib boriladi. Masalan-diqqat uchun, tasavvur va fantaziyani rivojlantirish uchun mashqlarni birinchi kundan o‘zlashtirish lozim. "Buyumsiz xatti-xarakat" uchun va shunga o‘xshash yana boshqa mashqlar xam ularning butun ijodiy xayoti davomida kerak bo‘ladi. Aktyor uchun bular keyinchalik g‘oyaviy mazmun bilan sug‘orilgan jonli obrazlar yaratishga yordam beradi. Bizdan oldingi ustozlar xam, biz xam, bizlardan keyingi shogirdlar xam Stanislavskiy sistemasi bo‘yicha tarbiyalanamiz. Yetim Bobojonov., Mannon Uyg‘ur,

Toshxo‘ja Xo‘jayev va boshqa ulug‘ ustoz-san’atkorlar xam Stanislavskiy sistemasi maktabida tarbiyalanib, ijodiy merosini bizlarga qoldirganlar. Xo‘sh, bugungi zamon talabasi bu maktabni qanday o‘zlashtiradi? Biz pedagoglar 21-asr bolalari ongiga o‘tgan asrda yaratilgan sistemani qanday singdiramiz? Oddiy! O‘sha paytda bu maktab qanday o‘rgatilgan bo‘lsa, xozirda xam xuddi shunday. Faqat bugungi tezkor tempo-ritmli zamonda, texnika mo‘jiza darajasiga ko‘tarilgan zamonda, odamlarni uncha-muncha narsa bilan xayratlantira olmaydigan zamonda, bugungi kun talabasiga uning o‘zini tilida maktab xaqidagi tushunchani bermog‘imiz lozim. Xar bir mashqni, nazariyani bugungi kun misolida keltirishimiz maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Talabaga bilm, dars berishda o‘qituvchi xarakteri, uning tempo-ritmi, xatto temperamenti xam katta axmiyatga ega ekan. Mening o‘zim xam bugungi zamon insoni ekanligimni professor-o‘qituvchilarning malaka oshirishida xis qildim. O‘sha yerda bizga dars beruvchi o‘qituvchilar o‘z soxasi bo‘yicha katta bilmga, tajribaga ega insonlar edi. Ammo malaka oshirishda bizga dars beruvchi bir pedagogning darsida men va boshqa tinglovchi o‘qituvchilar - to‘g‘ri ma’noda uxlab qolardik. Ma’ruzachi domla tempo-ritmi shunchalik sust ediki, Stanislavskiy tomonidan 13-ta tempo-ritm aniqlangan bo‘lsa, bu o‘sha tempo-ritmlar ichidagi eng birinchisi, ya’ni deyarli o‘lik odam xolati edi. Biz uchun bu ma’ruza zerikarli bo‘lsa, bu domla darsiga talabalar qanday kelar ekan? Ana shunday pedagoglar, dars jarayonini qanday qilib qiziqarli, kreativ tarzda olib borishni o‘rganish uchun malaka oshirgani mutaxassislik kafedralariga kelib pedagoglarimizdan o‘rganib ketsa maqsadga muvofiq bo‘lardik. Ammo ming afsuski, talabalar fikriga ko‘ra shunday xolatlar uchrab turadi. Vaqt tez o‘tadigan shunday davrda, xar bir daqiqa xar birimiz uchun qimmatli bir paytda, xali oldinda qancha ishlar bizni kutayotgan joyda, bunaqangi "o‘lik" tempo-ritmda "yashash" noto‘g‘ri deb xisoblayman. Talaba bu domlaning darsiga bir kirib esnab o‘tiradi, ikkinchi kelganida uxlaydi, undan keyin umuman kelmaydi. Keyin o‘quv yili oxirida dekanatga - "Bu talaba kelmadi, baxosi ikki". -deb raport beriladi. O‘ylab ko‘ring, talaba ikki baxo

olishiga ko‘pincha domla o‘zi sababchi, qayerdadir domla o‘zi xatolikga yo‘l qo‘ygan bo‘lishi mumkin. Institutda ota -onasi qiynalib pul to‘lab o‘qitayotgan talabani juvonmarg qilishga xaqqimiz yo‘q. Mayli, u bizningcha "Adashib kelib qolgan talaba" bo‘lsin, ammo bu talaba qiziqib, umuman qoldirmasdan shu domla darsida o‘tirayotgan bo‘lsa, bu domlani talantli, kreativ oliy toifali pedagog deb xisoblayman. Albatta qobiliyatsiz talaba xech narsaga qiziqmaydi dersiz. Ammo o‘z ustida tinimsiz ishlagan, izlangan ulkan pedagogik tajribaga ega bo‘lgan hozirdagi jonkuyar yoshi ulug‘ ustozlarimiz, xuddi xam shunday talabalarda xam o‘z kasbiga nisbatan qiziqish uyg‘ota oladilar. Institutni bitirib shu talabalar xam o‘z ish joyini topib ketadilar. Ayrimlari turli tashkilotlarda xatto raxbarlik lavozimlarida xam ishlaydilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, san’at axli ichida bir maqol yuradi, -"Qobiliyatli insonni bir narsaga erishishi uchun ko‘maklashish, qo‘llab-quvvatlash lozim, qobiliyatsiz esa o‘zi osongina erishaveradi". Obrazli qilib aytganda, o‘likni xam jonlantiradigan shunday reanimator-ustozlar bor ekan, ulardan to‘g‘ri foydalanib, meros darajasidagi bilimi sir-asrorlarini o‘rganib, ularning qadr - qimmatini, xurmatini joyiga qo‘yib, ular bilan yonma-yon ishlayotganimizdan faxrlanib, cheksiz, zaxmatkash mexnatidan minnatdor bo‘lib yurishimiz kerak va bu ustozlarni saqlab qolishimiz biz uchun xam qarz, xam farz! Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan bitta xam yosh olimni bilmayman. Bu olimlarning barchasi yoshi ulug‘. Inson yoshi katta bo‘lgandagina mudom o‘ylash, izlanishlar natijasida kashfiyot yoki ixtiro qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bizning kasbimizda xam, o‘z ishini sevgan pedagog -ulug‘ yoshga yetib borgan sari olimga aylanib boraveradi. Bu isbot qilingan fakt. Bizning kafedrada buyuk ustozlar ishlab ijod qilganlar. Men va men qatori ko‘plab pedagoglarimiz shunday olim ustozlar bilan birga ishlab, o‘rganganimizdan faxrlanaman. Ular bizga bebaho meros qoldirganlar. Bu meros –"Rejissura va aktyorlik maxorati maktabidir". SH.S.Abbosov., A.Z.Qobulov., R.Usmonov., U.R.Zufarov., O.Abdurazzakov., B.M.Saidova., V.N.Sundukova., T.T.Azizov., J.O.Maxmudov., G.Muxammedova., O.Salimov., V..Umarovlar kabi ulug‘ ustozlar

kafedramizning “Oltin davri”da ishlab ijod qilganlar. Xozirda kafedramizda ulug‘, noyob, olim, biz uchun sevimli va o‘z ishining ustasi bo‘lgan sanoqli pedagoglarimiz faoliyat olib bormoqdalar. Bular: M.Abdullayeva., X.Maxmudova., SH.Xamidova., ulardan keyingi avlod N.Maxmudova., M.Xamrayeva.

Bu pedagoglarning xar kuni qilayotgan ishi- bu kashfiyot va ixtiro. Buningsiz ijod yo‘q, shu domlalar buningsiz ishlay olishini tasavvur xam qilolmaydilar.

Xo‘sh, yana o‘sha gapga qaytsak- bugungi talaba biz berayotgan ta’limni puxta egallashi uchun nima qilish mumkin? Avvalom bor, yuqorida qayd etilganday- aktyorlik maxorati maktablarini talabaga birinchi kundan singdira olishimiz kerak. Mutaxassislik fanidan yosh pedagoglarimiz xar kungi darsiga, xar kuni, tinimsiz o‘z ustida ishlab tayyorgarlik ko‘rib kelishi to‘g‘ri bo‘ladi. Xar bir talabaga keltirilayotgan misol qiziqarli bo‘lishi uchun, domla internet tarmog‘idan, kino, televideniyan, badiiy adabiyotlardan, gazeta va jurnallardan qanchadan- qancha material va axborotlar yig‘adi. Darsimizni xar kungi yangilik bilan sug‘orib, boyitib olib bormasak, eskirgan –“kechagisi” bilan talabani qoyil qoldirib bo‘lmaydi. Albatta bu fikrimni men xech kimga bog‘lamoqchi emasman. Bu mening shaxsiy fikrim. Xar bir pedagogning o‘zini dars berish metodikasi bor, sir-asrori bor, turg‘un xolat emas, o‘zgaruvchvn bir uslubi, qo‘li bor.

Menimcha talaba qiziqib darsni o‘zlashtirishi uchun pedagog birinchi navbatda o‘z kasbini, bugungi darsini sevib, qiziqib talabalar oldiga kirish kerak. Xar bir aytayotgan fikrini nazariy-amaliy asoslab, xuddi aktyorday o‘z tasavvurida ko‘rib, kechinib, shijoat bilan ishlasa, tushuntirsa buni tinglovchi talabaga xam yuqtira oladi. Yaxshi aktyor tomoshabinni o‘rindiqa mixlab qo‘yganday-pedagog xam talabani o‘ziga jalb etaoladi. Bizning kasbimiz pedagogikasida yana bir muxim jixat shundan iboratki, talabalarimizni yaxshi

ko‘rishimiz kerak. O‘rtamizda qandaydir bir iliq nurlar bizni bog‘lab turganligini talaba o‘zi xam sezadi. Ustozlarimiz tili bilan aytganday, kasbimiz ilohiy kuchlardan, mo‘jizalardan iborat. Yosh o‘qituvchi shunga o‘xshagan yana bir qancha pedagogik xususiyatlarni egallasa, oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oladi. O‘quvchi xam, talabalik davrining birinchi kunidanoq o‘qituvchisi va tanlagan kasbiga mexr qo‘yib ishlaydi, sistemaning barcha elementlarini amaliy va nazariy o‘zlashtira boshlaydi. Bo‘lajak aktyor uchun muxim bo‘lgan Stanislavskiy sistemasining elementlaridan bir nechtasini misol tariqasida keltiraman. Yuqorida qayd etilganday;

**1.Diqqat.** Aktyor ijodi undan alohida *diqqatni* talab qiladi, ya’ni sahnaviy harakatlarda, uning sharoitlarida, maqsad va manbalarda fikrni jamlash kerak.

**Diqqat** -aktyorlikning ichki texnikasini asosiy qismi xisoblanadi. Elektr simlardan tok o‘tadi, ana shu simlarni o‘tkazgich deymiz. Diqqat elementi xam xissiyotlar o‘tkazgichi xisoblanadi.

**2. Aktyor tasavvuri** - hayotiy (real) muxitda, turli sharoitlarda aktyor o‘zini ko‘ra olish qobiliyati, o‘sha vaziyatda qahramon o‘rnida o‘zini ko‘ra bilish salohiyatidir.

**3.Fantaziya** - extimoldan uzoq bo‘lgan (irreal) sharoitlarda aktyor o‘zini ko‘ra olish qobiliyati yoki aslida yo‘q manbalarni ko‘rishi. (Irreal bu - haqiqiy hayotda mavjud bo‘lmagan, afsonaviy, diniy, ertaklar olami xaqida fantastik qarash, ilmiy gipoteza).

**4.«Agarda?»** - real hayotdan va real shart-sharoitlardan, tasavvurdagi hayotga o‘tishdagi shart, hamda pyesa muallifi yoki rejissyor tasavvuridagi shart-sharoitga aktyorning haqiqiy hayotdan o‘tishi uchun beriladigan javobidir. Stanislavskiy «Agarda»ni, «ijodga kirish darvozasi» - deb atagan. Aktyor o‘ziga: «Agarda men spektakldagi sharoitga tushib qolsam, nima qilar edim?» - savol berishi va shu savoldan kelib chiqadigan vaziyatda qanday harakat qilish mumkin? Ijodda «Agarda?» aktyor tomonidan hayotiy

haqiqatni tabiiy qilib yaratishga imkon beradi. Natijada tabiiy haqiqat badiiy haqiqatga aylanadi.

**5.Berilgan shart – sharoitga ishonch** – bu aktyorning spektaklda to‘qib chiqaruvchanlik, badiha (improvizatsiya) qila oladigan ijodiy qobiliyati.

Berilgan shart – sharoitda hayotdagiday badiiy obrazda yashay olish, fikrlash, tabiiy xatti-harakat qilish saloxiyati.

Berilgan shart-sharoitga ishonish – xotirada saqlanib qolgan hissiyotlar ta’sirida xatti-harakat qilishdir.

Hissiy xotira yordamida berilgan shart-sharoitga ishonish aktyor qobiliyati va iqtidorining mezonidir

**6.Aktyorning hissiy (emotsional) xotirasi** - bu uning hayotida boshidan kechirganlari yoki boshqa odamlarning fe’li, xatti-harakatlari natijasida xotirasida muxrlanib qolgan hissiyotlari.

**7.Eshitmoq va sezmoq** – aktyorni yorqin ijodiy qobiliyatiga egaligini belgisi.

**Eshitish** - bu so‘zlashayotganlarga, ovoz yoki musiqaga diqqatni qaratishlik.

**Sezmoq** – bu eshitilgan narsaga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlik.

**8.Qarash va ko‘rish** – aktyorning sahnaviy ijodiy salohiyati. **Qarash** – aktyor o‘zini qiziqtirayotgan manba yoki manbalarga nigohini qaratishi. **Ko‘rish** – timsolni gavdalantiruvchi shaxs nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, uni qiziqtirayotgan manbaga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi.

**9.Temp-** bu aktyorning roldagi botiniy xarakatini tezligi.

**Ritm-** uning asabiy holati, faoliyati. Qaxramonning jismoniy xatti – harakati va ruxiy xissiyoti, kayfiyati uni harakat jarayonida temp va ritm oralig‘ida bir-biriga muvofiq.

**10.Aktyorning jismoniy erkinligi** - o‘zi ijro etayotgan rol uchun aniq xatti-harakat topishga ko‘maklashadi.

Rol ijro etayotgan aktyorning jismoniy erkinligi, o‘zi bajarayotgan ishga

samimiy ishongan xolda maqsad sari intilishining tabiiyligini keltirib chiqaradi. Natijada sahnaviy shart – sharoitda aktyor o‘zini emin-erkin tutish orqali o‘zi bajarayotgan ishidan qoniqish hosil qiladi. Lekin sahnadagi erkinlikni bo‘shanglik, lapashanglikka yo‘yib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, sahnada aktyorning xushidan ketish va yiqilish o‘yinlaridan tashqari, mutlaqo jismoniy erkinligiga erishib bo‘lmaydi.

**11. Xatti – harakat** - berilgan shart-sharoit bilan kurashishda maqsadga erishish yo‘lidagi psixo-fizik jarayon. Sahnada aktyorda xatti-harakat hayotiy his-tuyg‘ularni vujudga keltiradi. Aniq xatti-harakat jarayonida ichki kechinma o‘z-o‘zidan tug‘iladi. **Jonli xatti-harakat** - aktyor ijodida tabiiy xatti-xarakat, u eng qulay va to‘g‘ri xolat paydo qiladi.

Aktyor xatti-harakati orqali sahnada tabiiy hayot, ya’ni **tomoshabin oldida tanxolik** vujudga keladi.

**Xatti – harakat** - sezgi va tafakkurga qarama-qarshi o‘laroq, **aktyor ijodiy faoliyatining moddiylashgan** ko‘rinishidir. YA’ni, xatti-xarakat - aktyor mehnatining maxsuli xisoblanadi.

**Xatti – harakat** - teatr sahnasida aktyorning **berilgan shart – sharoitlarda** tasavvurdagi **maqsad** sari intilishi va faoliyatidir. **Xatti – harakat** – aktyor ijodining asosi.

**12. Berilgan shart – sharoit** - sahnada tasavvurdagi sharoitda aktyor tomonidan amalga oshiriladigan shartli harakat.

Berilgan shart-sharoit ayni hayotning o‘zi emas, uning badiiy tarzda aks ettirilishidir.

**13. Munosabat** - bu aktyor o‘zi ijro etayotgan qaxramonining ko‘ringan manba xaqidagi **o‘y-fikri** va **sezgisidir**.

O‘y-fikr va his – tuyg‘ular aktyorni sahnadagi gavdalantirayotgan rovida eshitgan narsalarini qabul qilish qobiliyatini ifoda etadi.

**14.Vazifa** - bu aktyorning saxnada, tasavvurdagi berilgan shart-sharoitda ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan xatti – harakatidir.

Shunga o'xshash ko'plab elementlarni bo'lajak aktyor shu dargoxda to'liq egallab, katta saxnaga qadam qo'yishga tayyor turishi lozim.

Stanislavskiy sistemasining barcha elementlari "Aktyor o'z ustida ishlashi" kitobining 1 va 2 qismlarida taxlil qilingan va bularning barchasi saxnaviy xatti-xarakatning asosi xisoblanadi. Aktyorlik texnikasini takomillashishi uchun, shu elementlar ishtirokida doimiy ravishda trening-mushtra olib boriladi. Aktyor "quroli" bu uning butun tanasi va u trening-mushtra orqali tarbiyalana boshlaydi. Ana shu "qurol" ya'ni, psixofizika "Ilxom" kelish – kelmasligidan qat'iy nazar aktyorning saxnada professional darajada ishlashiga asos bo'ladi. Aktyor istagan vaqtda ijodiy muxitga kirisha oladi, irodali kuch orqali to'g'ri xis qilish xolatiga erishadi. Bir nechta misolda keltirilgan va xali qanchasi aytib o'tilmagan sistemaning barcha unsur va atamalari teatrda ishonchli xis-xayajon bilan sug'orilgan ifodaviy va xaqqoniy ijod qilishga olib keladi. Buning natijasida hayotiy, betakror, nafis, musiqiy, xis-xayajonga boy, badiiy gavdalantirilgan **San'at** vujudga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J. Mahmudov, San'at fidoiylari –Toshkent, 2011 .
2. M.Abdullayeva.Dramatik teatr va kinoda aktyorlik maxorati – "Tafakkur qanoti" nashriyoti, Toshkent -2014

**TEATR, TELEVIDENIYE VA KINODA QO‘LLANILADIGAN TURLI  
XIL MAXSUS EFFEKTLARNI YARATISH BO‘YICHA  
GRIMYORLAR UCHUN AMALIY QO‘LLANMA.**

*Djalilova Feruza*

*“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası dosenti*

**Annotatsiy.**

Bu maqolada zamonaviy dramatik teatr va kino san’atining muammo va yechimlarini grim san’ati miqyosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kino, sahna, kadr, kollodiy, fosfor, grim, ichki va tashqi qon.

**Annotatsiy.**

V etoy statye rassmatrivayutsya problemi i resheniya sovremennogo dramaticheskogo teatra i kino v sfere iskusstvo grima.

Klyucheviye slova: Kino, ssena, kadr, kollodiy, fosfor, grim, vnutrenniy i narujniy krov.

**Annotation.**

In this article will briefly explain about problem and solution modern dramatic theatre and film in the sphere of art grim.

Key words: Film, pool, scene, shot, collodion, phosphorus, grim, internal and external blood.

Kinoda grimlash teatr grimidan farq qilishi har bir sohaning mohiyati va o‘ziga xosligidir. Tarixda va hozirdagi kino grimi ustalari A.Andjan va Y.Volchanovskiylar yozishlaricha: “Kino grimi o‘zining alohida nafisligi, nozikligi bo‘lib, hayotiy haqiqatga yaqinlashishi bilan farqlanadi”<sup>1</sup>.

N.K.Cherkasov kino va teatrlardagi rassom-grimchi ishlarini taqqoslab shunday deydi: “Agar teatr faoliyatidagi rassom-grimchi va kinodagi rassom-grimchini maqsadi bir bo‘lsada, ammo kino aktyorlarini grimlash teatr grimidan o‘zining texnikasi va usullari bilan tubdan farq qiladi. Teatr aktyori grimi tomosha zalining o‘ninchi va o‘n ikkinchi qatoridan so‘ng yuzdagi grim farqlanmaydi. Kino aktyorining yuzi katta planda olinganda uning yuzi bir necha bor kattalashgani bois tomosha zalidan bimalol oxirgi qatorda ham bir

---

<sup>1</sup> А. Анджан, Ю. Волчанский “Грим в кино” М. Искусство, 1957.

xil ko‘rinadi. Teatrda grimlash barcha ishtirokchilarni bir soat ichida ulgurib tugatsa, kinoda texnik jarayondagi zargarona ish ko‘p vaqtni talab qiladi...<sup>2</sup>.

Kinoning o‘ziga xos xususiyati, teatrdagi grimlashdagidek ishlashni taqozo etmaydi. Masalan, kinoda aktyorni keng peshonali ekanligini ifodalash uchun, uning bosh qismini xohlagan joyini qirtirishlanadi. Teatrda esa keng peshonali parik kiygiziladi. Parik paxt gazlamasi (yupqa) yoki gaz materialidan qilinadi.

Kino san‘atida grim o‘ziga xosligi shundaki, u operator texnikasi va yortkich talablariga mos bo‘lishi lozim. Kino grimi o‘ziga xos noziklikni, pishiq ishlashni talab qiladi. Teatrdagidek bo‘rttirish kinoda suniylikka olib keladi. Rejissyor fikri, ssenariy mohiyati hamada operator ishi, yoritgichlar, kunning qaysi vaqtida tasvirga tushirilishi kino grimida ahamiyatga ega. Kino grimchisi suratga olish jarayoni va kino texnika imkoniyatlarini yaxshi bilish lozim. Kino aktyorining yuzida katta o‘zgarishlar talab qilinsa, u holda plastik grim yopishtiriladi. Yengil, yumshoq, yupqa rezina qo‘yiladi. Plastik grim elastik egiluvchan bo‘lib, u kishi yuziga juda qulay xuddi tabiiydek joylashadi.

Kino san‘atining takomillashuvi grimchi-rassomlarning ishiga ma’suliyat va yangi vazifalar qo‘yaboshlaydi. Teatrdagi uyg‘unlik kabi kinoda ham personajning xarakteri, kiyim-liboslari, uning rangi bir biriga mos va uyg‘unlikni talab qiladi. Bu masala yechimida rejissyor, operator, yoritguvchilar grimning uyg‘unlikdagi, mushtaraklikdagi yechimini topishda bir maqsad sari intilishlaridadir.

Grimning mohir ustasi A.Andjan va V.Volchanetskiylarning yozishlaricha: “Aktyorning yuz tusini rangi va kastyum rangi bilan hamda dekoratsiya, yoritgich orqali topilgan ifodaviy rang yechimi, barcha masalalar qora-oq, rangli kinodagi ranglarni qabul qilish bilan bog‘liqdir”<sup>3</sup>. Shu bois rangni his qilish haqida gapirishdan oldin nur va rang haqida fikrni biroz davom ettirish kerak bo‘ladi.

---

<sup>2</sup> N. K. Cherkasov “Aktyorning esdaliklari” M. 1953, 217-bet.

<sup>3</sup> А. Анджан, Ю. Волчанский “Грим в кино” М. Искусство, 1957.

Elektromagnit to‘lqini ochiq ma’nodada sekundiga 300000 km tezlikda tarqalishi, kishilar ko‘zida yorug‘lik hamda ranglarni sezishga imkon beradi. Nur to‘lqini uzunligi millimikron (millimetrni millionli qismi) orqali o‘lchanadi. Ko‘rish sezgisi nur to‘lqinlarini 396 dan 760 millimikronga yaqin (uzunligi) ilg‘ab oladi. Bularni odatda ko‘ruvchi nurlar deyiladi. Kundizgi nurning maba’i quyoshdir. Uni oq nur deb ataymiz. Nurning to‘lqinlari quyidagi ranglarda ifodalanadi.


<i>Ko‘z bilan ilg‘ash</i>	<i>Nur to‘lqinini uzunligi (mikronmillion)</i>
Qizil	760-620
To‘q sariq (apelsin)	620-590
Sariq	590-560
Sariq-yashil	560-530
Yashil	530-500
Moviy	500-470
Ko‘k	470-430
Gunafsha	430-396

Barcha elektr anjomlari, barcha proyektor (isitgichli nur beruvchi)lar agar rangli filtr qo‘yilmasa, ularni ham oq nur deb ataymiz. Ular sariqroq nur beradilar, ko‘proq sariq nur beradiganlar qiziydigan lampalardir.

Barcha nurlar u quyosh nuri bo‘lsin, qizitgichlar, hattoki, kerosin lampa yoritgan nurlar bir xil hisoblanadi.

Agar quyosh nurini shishali prizmadan o‘tkazilsa, prizmadan o‘tgan nurlar yetti xil nur ajralib chiqadi:

Qizil, binafsha, sariq, moviy, yashil, ko‘k va qizqish bo‘lib, ular asosi ranglardir. Bu ranglarni kamalakda farqlashimiz mumkin. Suv tomchilariga quyosh nurini tushishi orqali ko‘rish mumkin.



Oq rangli nurni ham uch xil asosiy zonaga bo'lish mumkin.

- 1) ko'k rangli va uning nuri uzun to'lqinga ega;
- 2) yashil rangli to'lqinlar zonasi, uzunlikdagi nurdir;
- 3) qizil rangli to'lqinlar zonasi uzunlikdagi nurlar.

Bu uch spektordagi yoki yetti xil ranglarda ko'p xillar borkim, ular bir rangdan boshqa ranga o'tibturadi.

Tabiat in'om etgan har xil ranglarni qanday qabul qilinishi tabiat vujudining har xil bo'lishi va uni o'tkazishi, namoyish etishi yoki yutib yuborishi orqali seziladi. Agar barcha spektorlarni qaysi bir vujud o'zida aks ettiraolsa, biz uni oq deb qabul qilamiz, agar yutib yuborsa uni qora deb hisoblaymiz.

Kinoda tasavvurdagi ya'ni, kinoplyonka orqali biz ko'radigan ranglarni tasvirlash uchun rassom-grimchi operator bilan ijodiy ishni olib borar ekan, unga nafaqat ijodiy ishlashni texnik tomonlarini ham yaxshi bilimdoni bo'lishlik taqozo etiladi. Avvalo rejissyor va operator rassomlar yaqinlashib, dekoratsiya, kostyum va grimchi bilan har bir kadrni rang tusini va undagi ishlatiladigan barcha nur va uni keltirib chiqaradigan asboblarni, ularni qaysi kadr va sahnada ishlatishni va grimchi qanday tuslardan foydalanishini kelishib olinadi. Grimchining operator bilan hamkorlikda ishlashi kino tasvirga

olinishni tayyorlov davridan ya'ni, personajlar uchun aktyorlar tanlovidan, aktyorlarni asosiy rolga tayyorlashdagi va ularni kino sinov chog'idan boshlab birga boshlanadi. Aktyorlar rol uchun tasdiqlanganlaridan keyin grimni texnikaviy sinovi boshlanadi. Bu sinovlar operatorning belgilangan sharoitda o'tkaziladi. Xuddi shu jarayonda qanday rang tanlansa ana shunga moslashgan grim qilinadi.

Shunday qilib, kino tasvirga olish jarayonida grimchi qo'yilajak yoritish sharoitlariga moslashishi va grim bo'yoqlarini tanlashi kerak.

Grim bo'yoqlarini xatosiz tanlash uchun ularga raqamlar qo'yib olishi va ishlash uchun tayyorlab qo'yishi kerak. Kino grimlari tez o'zgartirishga maqbul bo'lgan va o'zining chidamliligi bilan teatr grimlaridan farqlanadi. Aktyor yuzidagi va tana a'zolaridagi grim sifati uni tanlashdagi mahorat bilan belgilanadi.

Bo'yoqlarning o'n bir tusining ichida bir necha asosiy tonlar rangi mavjud. Bular yorug'lik va qorong'ilik sharoitida ularning ta'sir etish doirasiga qarab ajratiladi. Shunday qilib, pantamatik grimida ranglar boshlanishida qizg'ish (rozoviy), keyin sarg'ish (g'isht rang) oxirida qizg'ish jigarrang tusi ishlatiladi. Keyingi vaqtlarda teatr grimi kino televideniya grimiga yaqinlashmoqda. Teatrda ham eng yupqa grimlardan foydalanilmoqda.

Rangli kinodagi ayrim xususiyatlar borki, grim qilishda shularga e'tibor qaratmoq zarur. Grimchi avvalo, kinoda ishlaganda ranglarni o'z joyida ishlatish tasviriy bilimini egallashi va undan foydalanishni mufassal egallagan bo'lishi shart.

Rangli tasvirli filmni grim qilish texnikasi oldingi qora-oq kino grimidan tubdan farq qiladi. Chunki, avvalgisida qalin qatlamli grim bo'yoqlar ishlatilib, chandiqlik-chaka joylar tekislangan bo'lsa, rangli kino grimida bunday ish uslubidan voz kechiladi. Bu maxsus plastrlar yopishtirishlar (nakleykalar) barcha yuz kamchiliklarini bekitilishi uchun ishlatilgan bo'lsa, rangli kinoda bu uslubdan voz kechiladi.

Boshlang'ich davrida rangli kinoda teatr grimidan foydalanishni ko'zda tutilgan. Teatr grimi rangli kino grimiga yaqin chunki, u ham, bu ham rangli bo'yoqlardan iborat edi. Ammo teatr grimidan foydalanish oxir oqibatda to'g'ri kelmadi. Chunki, bu grim "bekituvchi" xususiyatga ega edi va qalin qatlamni talab qilar edi. Rangli kino uchun yuqa grim ta'luqli bo'lib, grim tagidagi teri u orqali yorishib turishi kerak. Bundan tashqari teatr grimi juda yorqin bo'lib, rangli kinoga to'g'ri kelmaydi hamda, kino tasmasida aktyor terisiga, boshdagi o'sgan o'simalarga, kiyim-kechak, fon va dekoratsiyalar grimga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bundan kelib chiqib, rangli kino yarim suyuq va tiniq bo'yoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Grim qilishdan oldin aktyorlarning yuzlari toza bo'lishi va uni toza iliq suvda sovun bilan yuviladi va yumshoq sochiqda artiladi va mayin massaj qilinadi. Sharoitga qarab suv va sovun bo'lmasa yuzni kuchsiz odekolon yoki spirt bilan artiladi. Bo'yoqning quyugligi va yopishqoqligi yuzga yupqa va qalin qilish imkoniyatini beradi.

Oddiy grim orqali (uslubi) yuzni kerakli joylari takidlanishi zarur bo'lsa, bo'yoqlarni qayerga qanday ishlatishni bilish kerak bo'ladi. Asosiy maqsad rang va tus uyg'unligini ta'minlashdir.

Terini yallig'lantirmaslik uchun bo'yoqni yuzga massaj qilganday surtish kerak. Yaxshisi gubkadan foydalanishi lozim. Kino sharoitida aktyor uzoq muddat band bo'lsa, oftob urishdan ehtiyot bo'lmog'i lozim.

Yuzga bir xil rang bo'yog'ini surtgach, grimchi-rassom yuz e'tiborli joylarini (yuzdagi ko'zga ko'rinadigan belgilar) ustida ishlashni boshlaydi.

Kino grimining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, yuzga surtilajak bo'yoq umumiy tusdan ajralgan holda bo'lmasligi va bo'yoqlar palitrasidagi kabi aralashmaga o'xshasin. Grim yorqin bo'lishi va chalplashgan "iflos" bo'lmasligidan. Burunning yon tomoni, lunjlar, iyak odatda jigarrang tusda bo'ladi. Erkaklarda ba'zida lablar bo'yalmaydi. Zarurat tug'ilsa qizg'ish-jigarrang tus beriladi.

Yuz grimdan soʻng paxta bilan upa (pudra) surtiladi. Upa umumiy tus rangiga yaqinroq boʻlishi kerak. Hozirgi vaqtda rangsiz upa ishlatiladi. Yuzni grimlashda koʻz qovoqlariga qaratish kerak. Chunki, har bir personajning koʻz tuzilish oʻziga xos har xil tuzilishda boʻladi. Qovoqdagi ajnlarni bekitish uchun yupqa gaz tasmadan foydalaniladi. Koʻzni sirtqi burchagiga tasmani uchi yopishtirilib, bir uchi parik ostiga yoki chakkaga yopishtiriladi. Bu usul orqali koʻzlarni shaklini katta yoki kichik qilish mumkin.

Yuzning garmonik qismlarini nisbati qoshning chiziq holatidan bilinadi. Qoshning ozgina shaklda oʻzgarishi va uning u yoki bu yoqqa egilishi aktyor yuzidagi oʻzgarishini ifodalaydi. Shu bois, qosh grimi ustida mohirona ishlashga toʻgʻri keladi. Odatda qoshlar qora boʻlmay toʻq jigarrangda boʻlishi maqbul. Qoshni juda ham eʼtiborli holatlarda qora qilinadi. Qovoqni boʻyash holati har xil boʻlishi mumkin. Masalan, sariq sochlarda – moviyrang, bryunetlarda kuchsiz yashildan jigarrang va hatto kulranggacha boʻlishi mumkin. Qosh oxirini egiltirmay (tepaga ham pastga) toʻgʻri, tekis, ravon boʻlishi joiz. Bu nisbat portret va xarakterli grimlarga taʼluqli emas. Yaxshisi qoshni shakli chizilib, unga oʻsimtalar yopishtirish kerak.

Kipriklar ham qoshlar singari qoraga boʻyalmaydi. Suvdan qoʻrqmaydigan, zaxarsiz kraskalardan foydalaniladi. Ayrim grim ustalari ayollarda kiprik uchun ochiq, zaxarli tushlardan ishlatadilar. Koʻzning biroz yoshlanishi oqibatida koʻz yosh bilan koʻz ichiga tushadi, ogʻriq paydo boʻladi. Aktrisalar ishga yaroqsiz boʻlib qoladilar. Hozirgi vaqtda koʻzga zararsiz boʻyoqlar mavjud boʻlib, kipriklarni yuqoriga koʻtarishi, bir joyga yigʻishi mumkin. Shunga oʻxshash kipriklarni uch-toʻrttasini bir joyga yigʻishi, kiprikni oʻstiradigan kabi uslublardan foydalaniladi.

Burunni oddiy grim qilish unchalik qiyin emas. Burunning ikki tomonini tuslashtiriladi. Qolgan joylarini yorqinlashtiriladi (oqartiriladi). Boʻyoqlarsiz yopishtirgʻichlar, ikki tomondan gaz yoki yupqa materialda torayadi. Burun shaklini oʻzgartirishda elastik mastinadan foydalaniladi. Bunda gumoz, paxtali yopishtirgʻich yengilroq boʻladi. Plastik grim aktyor uchun qulay chunki, u bir

necha bor qaytariqli ish qiladi. Burunni tortish (tasma bilan) efektiv, qulay suldir. Uni alohida yoki yopishtirg'ich, shakl (quyma) bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, burunni kichraytirish uchun tortiladi. O'stirish uchun gumozdan quyma yoki yopishtirg'ichdan foydalaniladi.

Lab rangini bo'yash yuz, soch va rol xarakteriga bog'liq. Rangni shunday tanlash kerakki, yosh qizning labi tabiiylikni ifoda etuvchi, bo'yalmagan labdek bo'lishi va bo'yaladigan lablardan farqlanishi kerak. Oradagi farq bilinib turishi kerak. Lablar uchun bo'yoq kontur orqali berilib, aylanasiga (ichki tomoni) umumiy tus berilishi kerak. Labni ingichka chiyotka (kist) yoki tushlagichda bo'ladi.

Grimchi va operator uchun natura (asli) tasvirga olishda, inson yuzini tasvirga olishda juda ham qiyin kechadi. Chunki, osmon va yashil joy fonida olishda yuz, osmon va ko'k tagdor alohida sharoit talab qiladi. Chunki, ikki obekt bir biriga to'g'ri kelmaydi. Shu bois kadr kompozitsiyasini shunday qurish kerakki, osmon kamroq ko'rinsinda, ko'k tagdor (yer) bilan yuz birgalikda tasvirga olinsin. Shunday qiyinchiliklarni zabt etish uchun grimmi umumiy tusini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bu borada uchala obektini ham kadrda tushirish mumkin, faqat ko'k bo'yoqdan (berlinlazuri) foydalanishi kerak. Bu tajriba operator A.Moskvina va rassom-grimchi V. Ulyanov eksprementi orqali topiladi. Bu eksprement orqali inson yuzi (yer) yashil va osmon fonida natura tasvirga olishda yaxshi qo'l keladi va uni tasviri aniq ifodalanadi. Shunday qilish kinoda, televideniya da grim qilish operator rejissyor bilan mushtaraklikda olib borilishi kerak. Kino grimchisi rejissura, operator mahorati, rang tasvir mahoratini yuksak mahoratini egallagan bo'lishi kerak. Chunki, uning uslubi rejissyor va operator ishini chippakka chiqarishi mumkin.

Hayotda insonlarning yuzlari goh tiniq, goh sarg'ish, gohida (yoshi o'tganlarda) qizil yoki jigarrang tus beruvchi bo'lib, erkaklarniki ayollarga qaraganda biroz qoramtir tusda bo'ladi. Kerakli hayotiy haqiqatga erishish uchun kino personajlarining grimmi ustida ishlash va har xil bo'yoqlardan foydalanish kerakligi uning bir biridan farqlash rangini o'ziga xos tusini topish

kerak. Amaliyotda grimlash jarayoni shunday o'tadi. Biz kino tasvirida rangning farqini aktyor yuzida ko'rmaymiz. Bizning tasavvurimizda aynan bir xil, bir yuz rangi namoyon bo'ladi. Nega bunday bo'ladi?

Bizga ma'lumki, rangli kino olish texnologiyasida kino ifodasida, rangni ro'yobga chiqarishda nafaqat tasvirga olish jarayoni ammo va uning kino tasmasini laboratoriyada qayta ishlash jarayoniga ham bog'liq bo'ladi. Rangni muvofiqlashtirish jarayonida ya'ni, pozitivni muhirlashda aktyor yuzi shunday ishlanadiki, uni tabiiylikka ya'ni, tasvirga olish chog'idagidek holatga olib kelinadi.

Shunday qilib, yuz etolon sifatida operator va kino laboratoriyaning kerakli tasviriy – badiiy natijasi hisoblanadi. Bunda rang olinayotgan obektni chiqarishda va barcha rangli obektni ifodalashda, rangni kadrlardagi uyg'unligini ta'minlaydi. Bu operatorni nur va qorong'ilik balansini to'g'irlashda grim rangini topishda ahamiyatga ega.

Eng asosiysi aktyor yuzi rangini ko'rsatishda grim tanlash rangli kinolentani ranglashtirishdir. Rangni tasvirida kinoplyonka yoritilajak yuzning rangiga ta'sir o'tkazishini e'tiborga olish kerak. Aktyorni maqbul yuz rangini topishda kino operator va grimchi birgalikda tayyorlov ishlarini olib boradi. Bir necha kinoprobalarni o'tkazishadi. Grimning rang o'zgarishi va unga mos nur qo'yilishi grimyor va operatorni o'zaro tasvirga olish jarayonidan avval kelishib olinadi. Ishlatilayotgan kino tasmaning har xil xarakterdaligi va yuz ko'rinishini qanday ko'rsatilishi e'tiborga olinishi kerak.

Kinomatografiyada rassomchilikdagidek grimlash kerakli natija beravermaydi. Bu holat oddiy gumozli qoliplarni yopishtirishga ham ta'luqli. Bu o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan o'zgacharoq grimlash shartini paydo qiladi. Endi bu jarayonni plastik grim qilish usulidan foydalanish va uning shartlari talabidan kelib chiqish grimchi uchun ko'ndalang bo'ladi.

1) Yuz muskullari harakatiga qarshi bo'lgan, halaqit qiladigan qolipda yasalgan va yopishtirish o'rniga elastik va yumshoq qolipda yasalgan detallar va yopishtirgichlardan foydalaniladi;

2) Elastik yopishtirgichlar yuqorisida yuz harakatida tabiiy qatlamlar paydo bo'lishini ta'minlash;

3) Fantura va material rangi mutanosib bo'lib, inson terisiga yaqin bo'lmog'i va grim bo'yoqlari yengil yopilmog'i kerak;

4) Issiqlikka chidamli bo'lishligi;

5) Teri chiqarmasini yengil o'tkazib yuborishi kerak;

6) Tayyorlangan material detallari yuzga oson o'rnashtirilishi va yengil bo'lishi shart;

7) Grim zararsiz bo'lib, uni aktyor yuzidan og'riqsiz olib tashlash mumkin bo'lsin.

Plastik grimda maxsus tayyorlangan va uni rezina bilan qayta ishlash, plastik qatron (smola) va boshqa ashyolar aktyor yuzini o'zgartirishda foydalaniladi.

Elastik yuz yopishtirgich aktyor yuz harakati (mimikasi) halaqit bermaydi. U faktura uchun qulaylik tug'diradi. Rezina yoki plastik qatron (smola) shunday tayyorlanadiki, uning egiluvchanligi (elastikligi), fakturaga va yuz terisi rangiga mos tushadi. U issiqlik ta'sirida buzilmaydi. Unga mexanik ta'siri grimda o'zgarish bo'lmaydi.

Yopishtirgichlarni elastikligi, aktyor xarakteriga (yuzdagi) halaqit bermasligi, chidamliligi va fakturaga mos kelishi – plastik ashyolarni grimlashdagi ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Plastik grim tayyorlash jarayoni bir necha operatsiyalardan iboratdir:

1) Aktyor yuzidan negativ maska (gipsli)ni yechish. U aktyor uchun qalin shakl bo'lib, kerakli maskani tayyorlash uchun ishlatiladi.

2) Aktyor yuzini ifodalovchi birinchi niqobni tayyorlash.

3) Kerakli detallarni gipsli niqobni yechmasdan yopishtiriladigan plastilinli niqob maska ustiga yopishtirish.

4) Rezinali quyilmani ishchi shakli va ikkilamchi niqob maskani (gips-  
sementdan foydalanadi) tayyorlash.

5) Preslash, vulkanizatsiyalash va detallarni bo'yash.

## 6) Yuzga detallarni yopishtirish va yuzga moslashtirish.

Aktyorning yuzini negativ shaklini olish uchun toza meditsina gipsini suv bilan aralashtiriladi. Suyuq smetana holiga kelguncha aralashtiriladi. Aktyor o'zi uchun qulay o'rindiqa o'tqiziladi. Yuz ifodasi tabiiy bo'lishi talab qilinadi. Sochlar tekis taraladi va boshga yuqa ro'mol bilan bog'lab qo'yiladi. Yuz chegarasi sochiq yoki lignik orqali ajratiladi. Aktyorning yuzi vazelin bilan qalin qoplanadi. Qosh va kipriklar yog' yoki vazelin va mum aralashmasidan tayyorlangan pasta bilan berkitiladi. So'ngra gips yotqiziladi (suyuq, smetana), burun teshiklarga maxsus kartonli yoki rezina trupkalar qo'yiladi. Aktyor bemalol nafas ola bilsin.

Gipsning birinchi qatlami yuzga asta sepiladi. Yuzda gipsning yengil qatlami paydo bo'lgach bemalol gips 3-4 smga yetguncha qo'yaveriladi. Bemalol nafas olayotganini yana bir bor tekshiriladi. Gips bilan oqilona, mohirlarcha ishlash kerak. Chunki, u tezda qotadi. Gips quyilgach bir necha daqiqa davomida aktyor harakatsiz o'tirishi kerak. So'ngra bosh pastga egiltiriladi. Gips osongina yuzdan ajratiladi. Shakl barcha qusurlardan holi etiladi va defekt joylari suyuq gips orqali bartaraf etiladi<sup>4</sup>.

Negativ niqob bir necha soat quritiladi. Ishchi yuqori qismi selluloit lakida yupqa qilib bo'yaladi. Parafin aralashmasini kerosin yoki vazilin bilan ustidan yurg'iziladi. Birinchi gipsli niqob bilan negativ niqob qo'shilib ketmasligi kerak.

Birinchi niqob ham negativ niqobiga ishlatilgan ashyo (gips)dan tayyorlanadi. Gipsli massa negativ niqobga quyiladi. Ichki kerakli joylari gips suyuqligi bekamiko'st joylashishi uchun uni tebratamiz. Qotgach negativ maskadan yengil ajraladi. Negativ shaklni ochgandan so'ng vertikal bo'yiga kesilib, ikki qismga ajratiladi. Paydo bo'lgan niqob quritiladi va defektlari bartaraf etilgach yupqa qatlamda laklanadi. Bir niqobni birlamchi yoki pazitiv niqob deyiladi. Ushbu niqob aktyor yuzini relefini aniq ifodalaydi.

---

<sup>4</sup> А. Анджан, Ю. Волчанский "Грим в кино" М. Искусство, 1957.

Ayrim vaqtlarda plastik katta hajmli ishlar qilishni negativ niqobni yechmasdan qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rassom-grimchi aktyor yuzini xususiyatlarini, uning yuz harakati (mimika) imkoniyatlariga e'tibor berishi lozim. Bundan tashqari rassom-grimkash uchun tirik yuzga quyma (lekka) qo'yishi – birlamchi jarayondir. Bu holatlarda o'simtalarni shakl va xarakterini yaxshi "seza oladi". Ana shu narsalar grim qilishda birinchi darajaga xosdir. Odatda o'zgartish kerak bo'lgan qismlar, plastilin bilan to'ldiriladi. Bu birlamchi niqobga yoki maxsus tarzda uning alohida qismi uchun. Bu ikkinchi niqobni joylashda va eskiz shaklida (xomaki surati) bo'lib xizmat qiladi.

Ikkilamchi niqob yoki uning ayrim qismi mahkam, puxta ashyolardan gips-sementdan quyiladi. Negativ shaklga plastirindan "barer" mahkamlanadi. Yuqori qismi yog' yoki yog'lovchi (parofin kerosin bilan) qoplanadi. Keyin gips-sement quyiladi. Qurigach shakldan ajratib olinadi. Gips-sement orqali olingan qismlar plastirin orqali qaytarib, birlamchi maska-niqobga quyiladi. Kerakli shaklni plastirinni yopishtirayotganda juda ehtiyotkorlik bilan ish olib boriladi. Quymaning chetlarini yo'q holatga olib kelinadi. Chunki, bu jarayonda elastik holat, plastirin shaklini qaytariladi. Quyilgan detalning uchtki qismi yuz terisi fakturasini eslatishi shundandir. Buning uchun plastikni ust tarafi doka yoki gubka bilan bosiladi.

So'ngra niqob yoki ayrim qismlari gips-sement orqali maxsus metal korpusga mahkamlanadi. Bu jarayon o'ta murakkab va uzoq vaqt talab qiladi. Shu bois grimchi rassom yuqoridagi ko'rsatmaga amal qilgan holda, aktyor yuzini yoki unga qo'shimcha detallarni yaratadi.

Plastik grimda detallarni muvofaqqiyatli chiqishi avvalo materiallar tanloviga bog'liq. Plastik metallarning ustki qismi aks etish qobiliyatiga ega (yuzga nisbatan) shu bois grim qilish davrigacha bo'yaladi. Aktyorning terisiga nisbatan rangi qoramtir tusda bo'ladi.

Tayyorlangan detal umum grmilashdan oldin yopishtiriladi. Kauchik yelimida yopishtirilishi bois, kerakli joyi spirtli paxta tamponi bilan artiladi. U

teridagi tabiiy yog‘ qoldiqlarini yo‘qotadi. Qoplamani ichki tarafi ham spirt bilan artiladi. Keyin esa yopishtiriladigan joyga joylashtiriladi va grimlovchi qalam bilan ehtiyotkorona yopishtirgichning chegarasi chizib chiqiladi. Yelim (kley) yupqa qatlamda belgilangan teri qismiga va yopishtirg‘ichni ichki qismiga surtiladi. Ammo uning yupqa chekka qismi quruq bo‘lishi kerak.

Ikki, uch daqiqadan so‘ngra nakleyka (yopishtirg‘ich)ni o‘rta qismi kerakli joyga yana yuning qismiga qattiq bosiladi. Shundan keyin o‘rta qism yelimlangach, chetki yupqa qismi yelimlanadi. Yelimlash jarayonida shpatel yoki pinset yoki yelimlovchi chiyotka bilan yonlar qayrilib ish bajariladi. Nakleyka bilan yuz terisi chegarasini yopishtirish maxsus pasta bilan yopishtiriladi. Shu bilan birga undan oldin kerakli qismni sandaraj yelimi yoki 15% kazeyin yelimi bilan yopishtirish kerak. Grim bo‘yoqlari spirt, otseton va issiq suv bilan yengil olib tashlansin.

Elastik yopishtirg‘ich lak grimi chog‘ida maxsus o‘simlik moyidan tayyorlangan, rezina detallarini ishdan chiqarmaydigan bo‘yoqlardan foydalaniladi. Agar grim bo‘yoqlarini suyuqlashtirish kerak bo‘lsa, etil spirti bilan suyultiriladi. Faqat rzinadan qilingan nakleyka bekitiladi. Bo‘yoqni sekin-asta yuz terisiga surtiladi. Keyin oddiy grim bilan qoplanadi. Grimdan so‘ng yuz upa bilan berkitiladi.

Yuzdan yopishtirilgan detallarni olish, aktyor uchun biroz ko‘ngilsiz kechadi. Bunda tirnoq, maxsus belkurakcha yoki qisqich orqali nakleykaning yupqa chetidan ushlanadi va uni teridan ajratib olinadi. Detalni yuqa yayet qismlarini ishdan chiqarmaslik kerak. Yechib olishda shuning uchun maxsus tayyorlangan emulsiyadan foydalanish mumkin.

Yuzdan nakleyka olingach uning chetlarini 10% borni kislotasi eritmasi yuviladi. Keyin yuzni terisini iliq suvda sovun bilan yuviladi. Yuzni yumshoq sochiq bilan artiladi. Bug‘li vannadan foydalanish ham mumkin. Keyin yuz terisining xususiyatiga qarab odekolonga ozgina suv qo‘shilib artiladi yoki krem surtiladi.

Nakleykaga juda ehtiyotkorlik bilan qaraladi. Yuzdan olingach issiq suvda yoki otsetonda yuviladi. Bularning barisi plastik grimning yaxshlanishiga olib keladi. Bu usulni nafaqat kinoda, hattoki teatrda ham qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Teatr, televideniye va kinoda qo'llaniladigan turli xil maxsus effektlarni yaratish bo'yicha grimyorlar uchun amaliy qo'llanma sifatida grim uchun maxsus grim skotchlaridan foydalaniladi. Ushbu maxsus skotchlarining vazifalari ko'zlarni tortishda, turli xil shramlarni yaratishda, qoshlarni silliqlashda ishlatiladi.

Maxsus grim skotchini yopishtirishdan avval yuzlab ortiqcha yog'dan xalos etiladi. Yuz uchun maxsus mo'ljallangan lasionlardan foydalanib tozalanadi. Ana ushanda maxsus skotchimiz maxkam yopishgan holda ijod qilishimizga xalal bermaydi.

Estradada asosan nomerlardan nomerlarga o'tishda asosan maxsus effektlardan foydalaniladi. Bundan tashqari qoshlarni yopishda maxsus mastika mavjud bo'lib, u juda qulay va ishonchli narsa (OISP) plast deb nomlanadi. Mana shu grim mahsulotlarida yara, chandiq, turli xil ko'z va qoshlarning shakllarini ko'rsatish mumkin. Yana shramlarni ishonchli chiqishi uchun "Kollodiy" suyuqligi mavjud bo'lib undan turli xil yo'nalishda foydalanish mumkin.

Kollodiy qayta – qayta bir joyga yopishtirish bir muncha xavfliroqdir. Shu sababdan ham kollodiy suyuqligini tarkibini mukammal o'rganib chiqish kerak.

Buning ustida men ko'p izlanib, internet tarmoqlarida ham tarkibi mukammal aytilmagan. "Kollodiy"dan foydalanishni insonning yuz qismidan boshlamaslik kerak. Qo'lga surgan holda ishlab ko'rgan ma'qul. Allergik kasallikka moyil bo'lgan terilarda salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Kollodiy suyuqligi haqqoniyliги bilan ajralib turadi. Kinolarda "kollodiy" ishlatilsa, tomoshabinni to'liq ishontira oladi deb ayta olaman.

Hozirgi kunda grimdagi asosiy muammoga qon mahsuloti ham kiradi. Ayni damda bo‘yoqlar yordamida qo‘lbola qon tayyorlamoqdamiz. Lekin, biz grimyorlar shuni bilishimiz kerakki, qonlarning ham turlari mavjud. Shulardan bizga birginasi uzoq borsa ikkiginasi yetib kelgan. Lekin bularning turlari juda ko‘p. Bular: 1. Teatr qoni; 2. Veneznqy qon; 3. Arteriya qon; 4. Ichki qon; 5. Yaltiroq qon va oliy navli qon; 6. Quyuq qon va xokazo.

Vaxokazo deyishimga sabab, ikki xil qonni bir vaqtning o‘zida yonmayon suritilsa, umuman o‘zgacha va ishonarli effekt hosil bo‘ladi.

Grim san‘atiga “Speseffekt” kirib kelganiga uzoq vaqt bo‘lgani yo‘q. Umuman olganda aktyorlarga suritilgan grimlar, projektor chiroqlarida o‘z rangini yo‘qotish hollari juda ko‘p uchraydi. Profektor chiroqlari bilan kostyumdagi ranglar uyg‘unlashib, grim bo‘yoqlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Shu vaziyatda kostyum, projektor yoruqligiga qarab grimdagi ranglar qayta ishlab chiqiladi.

O‘zDSMI o‘quv teatrida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi Minavvar Abdullayeva tomonidan sahnalashtirilgan V.Shekspirning “Makbet” asarida grim san‘ati ta‘lim yo‘nalishi talabalari bilan birgalikda speseffektlardan foydalanilgan. Projektor yordamida faqatgina ultrabinafsha (fosforli) grimdan emas balki, teatr grimidan ham barobar foydalanildi. Chunki sahnada yorug‘lik butkul olib tashlanganida teatr grimi chekinadi. Ya‘ni orqa planda qolib ketadi. Sahnada qayta projektor chiroqlari bilan yoritilganda grim birinchi planga o‘tadi hamda ultrabinafsha nurli (fosforli) grim chekinadi. Spektaklda ultrabinafsha nurli (fosforli) grim hamda kostyumlardan foydalanildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. «Grim» darslik Feruza Jalilova
2. «Grima v kino» Volchanovskiy
3. Mahmudov J. sahna kompozitsiyasi
4. «Osnova ssenicheskogo iskusstva» Shkolnikov.

## ATMOSFERA - MUXIT

*O‘zbekiston davlat san’at va  
madaniyat instituti dotsenti  
O.Dadamirzayev*

Aktyorlarda sahna haqida ikkixil tasavvur mavjud va ular hayotining katta qismini sahnada o‘tkazishadi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Sahna ba’zilar uchun bo‘shliq bo‘lsa, ba’zilar uchun kichik bir olam, qaysiki vaqti-vaqti bilan aktyorlar, dekoratsiyalar, ishchilar bilan to‘lib boradi. Ular uchun sahnada paydo bo‘ladiganlar o‘z ko‘rinishi va ovozigaga ega. Aktyorlar uchun bunday emas. Aktyorlar sahnani boshqacha tasavvur qiladilar va ular uchun bu kichik bir dunyo – butun olam, boyitilmagan muhit, shunaqangi kuchli va o‘ziga jalb qiladiki ular sahnani osonlikcha tashlab ketisholmaydilar va ko‘pgina vaqtlarini teatrda o‘tkazadilar.

San’at asarining ruhi – bu uning g‘oyasi. Qalbi – muhiti. Barcha eshitganlari va ko‘rganlari – uning tani.

Aktyorlarni hayoti davomida bo‘lib o‘tgan voqealar sahnaga bog‘lab qo‘yadi va doim ko‘z ilg‘amas ohangrabosi bilan o‘sha muhitda uyg‘unlashadi. Shu uyg‘unlik kelajakka ilhom beradi. Sahnada ular o‘zini ijodkor deb bilishadi, garchi tomoshabinlar bo‘lmasa ham, sahna bo‘sh bo‘lsa ham ular uchun bu joy muqaddas hisoblanadi. Nafaqat teatr, balki, sirk, konsert zali maydon tomoshalari o‘zining muhitiga ega. Ular aktyorlarni va tomoshabinlarni bir xil to‘lqinlantiradi.

Muhitni qadrlayolgan aktyor uni har kungi hayotida izlaydi. Har bir uy, ko‘cha, xona, rasm o‘zining muhitiga ega. Shuning uchun u kutubxonaga, kasalxonaga boshqacha, restoran, mehmonxona, muzeyga o‘zgacha kiradi. U huddi sezuvchan apparat kabi o‘zini cho‘lg‘ab olgan muhitni, musiqani eshitgan kabi qabul qiladi. U musiqani ba’zida hursand, ba’zida esa mungli qabul qiladi. Hayot to‘la muhitdan iborat, lekin, teatrda rejissyor va aktyor buni boshqacha his etadi.

Tomoshaning muhiti hissini o'zida saqlab qolgan yoki yangidan yaratgan aktyor bilan tomoshabin o'rtasida uzluksiz aloqa o'rnatiladi. To'laqonli yaratilgan muhitda tomoshabin aktyor bilan birga yashay boshlaydi. Aktyor sahnadan hamdardlik, ishonch va muhabbatni tomoshabinga yuboradi va tomoshabin sahnadan kelayotgan muhitni qabul qiladi. Bu muhitsiz aktyorning texnikasi va ustalik bilan qilgan xatti-harakatlari qanchalik nozik bo'lsa ham, u doimo sovuq, begona bo'lib qolaveradi. Milliy teatrdan uzoq yillar ijodiy faoliyatini olib borgan xalq artisti SH.Burxonov spektakldan uch soat oldin kelishi va sahna ortida o'z rolining matnlarini ichida takrorlab spektaklga tayyorgarlik ko'rib borishi to'g'risida eshitganmiz. Ustozlarimiz bu haqida ko'p gapirishadi.

Spektakl aktyor va tomoshabinning bir-birini tushunishidan kelib chiqadi. Agar rejissyor, aktyor, muallif, rassom, musiqachi spektakl muhitini yaratmasa – u spektaklni tomoshabin qabul qilmaydi. Agar spektakl muxiti reallikka mantiqan yaqinlashsa bu spektakl yillar davomida teatr repertuaridan tushmaydi.

Hech e'tibor berganmisiz o'zingizda, biror bir muhitga kirganingizda, harakatingiz, muomalangiz, o'zingizni tutishingiz, hayolingiz, kayfiyatingiz o'zgarishini?

Unga qarshilik qilmasangiz uning ta'siri kuchayib boradi, hayotda qanday bo'lsa, sahnada ham xuddi shunday. Har bir ijodiy ish etyud, adabiy parchalar, spektakl jarayonida uni mayda detallarga e'tibor berib ichiga chuqurroq kitib borasiz. Sizning atrofingizdagi havo, atrof-muhit sizni jonli, ijodiy yuksalishingizga ko'mak beradi. Tajribangizda ishonch hosil bo'lganda, siz bunga osongina erishasiz.

Ikki har xil muhit bir vaqtda mavjud bo'la olmaydi. Kuchliroq birinchisi ikkinchisini o'zgartiradi va g'alaba qozonadi. Faraz qiling ko'hna, tashlandiq qasr asrlar davomida vaqt to'xtab qolgan va o'zining unutilgan egalari hayoti va hollariga cho'lg'angan oq liboslarida saqlangan muhit. Muhitning sirlari va sokinligi, mehmonxonalari, yo'laklari, yerto'la va minoralarida hukmronlik

qiladi. Qasrga bir guruh odamlar o'zlari bilan quvnoq, shovqin, yengil tabiatli muhitni olib kirishadi. Shu zahoti qasrning muhiti bilan kurash boshlanadi va g'olib bo'ladi yoki o'zi chekinadi. Sahnadagi aktyorning shaxsiy tuyg'usi bilan atrof-muhit (his-tuyg'uga bir xil qarash bo'lsada) o'rtasida tubdan farq bo'ladi. Shaxsiy xis-tuyg'ularni subyektiv deganimizda, muhitni obyektiv deb olamiz.

Odamning subyektiv his-tuyg'usi va muhitning obyektiv holati o'zicha mustaqilki, odam o'zgacha muhitda bo'lsa ham o'zining his-tuyg'usini saqlab qoladi.

Masalan dinga ishonmaydigan odam diniy muhitda o'z imkonini saqlasa, yoki quvnoq hush chaq-chaq muhitdagi odam motam hissini tuyadi.

Bir biriga qarama-qarshi muhit bir vaqtning o'zida shaxsiy tuyg'u va qarshi muhit chiqisholmas ekan sahnada qiziqarli daqiqalar kashf etadiki, tomoshabinga estetik qoniqish taqdim qiladi. Shaxsning his-tuyg'usi va muhit o'rtasida qanday bo'lsa, ikki muhit o'rtasida shunday kurash boradi. Bu kurash sahnadagi ko'rinishlarni yanada bo'rttirib, tomoshabinning diqqatini tortadi. Agar muhitning shaxsiy tuyg'u ustidan g'alabasi, yoki, aksincha bo'lsa tomoshabin musiqiy akkord yechimi kabi g'olib tomon uchun badiiy qoniqish oladi.

Sahnadagi aktyorning his-tuyg'usi o'ynayotgan roli muhiti bilan qarama-qarshilikda bo'ladi, aktyor to'la-to'kis rolini va muhitini sezib boshidan o'tkazadi, u rolga kirishgan bo'ladi. Agar shunday bo'lmaganda u qanday qilib ishonch, badiiy haqiqat va takt bilan sahnadagi muhit ustunligi va aktyor o'rtasidagi kelishmovchilikni tomoshabinga yetkaza oladi. Muhitni sekin-asta tug'ilishi yoki qo'qqisdan paydo bo'lishi, rivojlanishi, kurash, g'alaba yoki taslim ko'rinishlarini aktyorlar shaxsiy his-tuyg'ulari bilan uyg'unlashishi – bu hammasi sahnaning kuchli ifodasidirki buni aktyor va rejissyor qadirlashi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. K.S.Stanislavskiy "Aktyorning o'z ustida ishlashi". -:Badiiy adabiyot, 1965 – 109b.

# TEATRINING YOSHLAR TARBIYASIDA MA'NAVIY – TARBIYAVIY AHAMIYATI

*“Dramatik teatr va kino san’ati”*

*kafedra dotsenti X.Qobilov*

## **Annotatsiya**

*Ushbu maqola “Yangi O‘zbekiston” yoshlarini tarbiyasida Jadidchilik maktabining o‘rini xaqida. Maqolada talabalarni Jadidlik maktabi, ularning tuganmas ijod mahsuli ostida yaralgan ijodiy ishlari asosida tarbiyalanishining ilmiy jihatlari xaqida.*

*Kalit so‘zlar: Ibrat, ma’naviyat, ma’rifat, g‘oya, teatr, kitob, spektakl, mavzu, ma’no.*

## **Annatatsiya**

*Eta statya o roli shkoli djadidov v vospitanii molodeji «Novogo Uzbekistana». Statya posvyashena Shkole djadidizma, nauchnim aspektam obucheniya studentov na osnove ix tvorcheskoy deyatelnosti.*

*Klyucheviye slova: primer, duxovnosti, prosvesheniye, ideya, teatr, kniga, spektakl, tema, smisl.*

## **Annotation**

*This article is about the role of the Jadid school in educating the youth of "New Uzbekistan". The article is devoted to the School of Jadidism, the scientific aspects of teaching students based on their creative activity, created as a result of endless creativity.*

*Keywords: Example, spirituality, enlightenment, idea, theater, book, play, theme, meaning.*

Bugungi kunda xalq erishgan ma’naviyat, ma’rifatning shakllanishida bevosita jadidlarning hissasi beqiyos ekanligiga takror-takror duch kelamiz. Eng sevgan kitoblarimiz jadid adiblari qalamiga mansub ekanligi yoki sevgan kitoblarimizning deyarli barchasida jadidlar tilga olinganiga takror-takror guvoh bo‘lamiz. Jumladan, ma’naviyat masalasiga bag‘ishlangan eng sermazmun kitoblardan biri bo‘lmish “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday jumlalarga duch kelamiz: “Tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma’rifat g‘oyasini baland

ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi".

Teatr – ibratxonadir deyishadi. Ibrat, ma'rifat, xalqning ko'zini ochish jadidlar oldidagi asosiy vazifa edi. Mashhur rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov insonga qilmishlarini, ayblarini yuziga aytishdan ko'ra o'ziga ko'rsatib berish ma'qul degan fikrni aytadi. Ayni muddaoki, jadidchilik davrida ham ijod ahli xalqning ahvoli qanday ekanligini o'ziga namoyish etishga intilishdi. Ularning yutug'i shundaki, jadidlar yuksakka ko'targan mavzular nafaqat ayni bir davrga, balki butun insoniyatga daxldor bo'lgan dolzarb mavzularni qalamga olishdi. Deylik, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari mavzusi – o'qimagan bolaning ahvoli qaysi davrda kuzatilmaydi? Yoki Hamzaning "Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari"dagi dolzarblik qaysi davrda kuchini yo'qotadi? Ularning asarlaridagi mavzularning dolzarbligini, voqealarning hayotiyliigi, qolaversa, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan boy ekanligini mazkur asarlarni o'qiganda, o'rni kelganda, ma'lum bir qahramon rolini bajarayotganda yoki spektaklni tomosha qilish mobaynida teranroq anglab yetish mumkin.

Jadidchilik davri dramaturgiyasi tarkibiga kiruvchi ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan dramatik asarlar qatoriga Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Hoji Muinning "Eski maktab – yangi maktab", "Qozi ila muallim", "Boy ila xizmatkor", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari", Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" kabi bir qator asarlarni kiritish mumkin. Bu asarlar o'z dolzarbligini hech qaysi davrda yo'qotmaydi. Dunyoda ilm-ma'rifat toki bor ekan, mazkur asar qahramonlari singari insonlar ma'rifatga

chorlanmog‘i muqarrar. Toki hayotda haqiqiy muhabbat tuyg‘usi yashar ekan, mazkur asar qahramonlari yuragini o‘rtagan ishq-muhabbat tuyg‘ulari tarannum etilaveradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari 1911 yilda yozilgan bo‘lib, bu o‘zbek dramaturgiyasida ilk dramatik asar hisoblanadi. Pesa 1914 yilga kelib sahnalashtiriladi va ommaga havola etiladi. Spektaklni tomosha qilish uchun tashrif buyurgan tomoshabinlarning ko‘pligidan teatr binosining eshigi hatto sinish darajasigacha borganligi voqeasi tildan tilga o‘tib kelmoqda.

Muallif bu pesaga milliy fojia degan janr biriktiradi. E‘tiborga molik bir xulosa borki, Aristotel tragediyaga bizdan ustun turadi, biz undagi personajga, bosh qahramonga doimo havas qilamiz, shuning uchun ham tragediyalarning nomi bosh qahramon ismi bilan nomlanadi, degan ta‘rif beradi. Behbudiyning pesasida esa hech qanday biz havas qiluvchi personaj bosh qahramon qilib olinmagan, shuning uchun ham bu asarni milliy fojia degan janrga biriktiradi.

Pesaning ma‘rifiy jihatlariga e‘tibor bersak, unda ilm olishga, ma‘rifatli bo‘lishga undovchi personajlar bular domla va ziyoli hisoblanadi. Bu personajlar bir-birlari bilan uchrashishmaydi. Ammo bir-birlarining gaplarini boy orqali eshitib, bir-birlarini ma‘qullashadi, boyga qarshi aytilgan fikrlarni oshkora qo‘llab-quvvatlashadi.

Ma‘naviyat so‘zining tub ma‘nosi ma‘no so‘zi hisoblanadi. Har qanday asarning ma‘naviy o‘rni bu – o‘sha asar mavzusi, g‘oyasining ongimizga qanday ma‘no baxsh eta olishi bilan belgilanadi. “Padarkush” pesasi xalkning ongini o‘stirishga, jaholatdan uyg‘onishga, ma‘rifatli bo‘lishga, ilm olib, butun xalqni ma‘rifatli qilish, jaholat botqog‘idan qutulishga da‘vat etuvchi g‘oyaga biriktirilgan.

Xuddi mana shu mavzuga, g‘oyaga yondosh bo‘lgan yana bir jadid dramaturgiyasiga katta hissa qo‘shgan asarlardan biri Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?” pesasi hisoblanadi. Bu pesa atigi bir pardali bo‘lib, shu qisqagina voqeyilik mobaynida kerak bo‘lsa xalqning hali qay darajada g‘aflat uyqusida ekanligini ko‘rsatib berishga, ma‘rifatli insonlarning dunyoqarashi,

fikrlashi qay yo'sinda bo'lishini namoyish qilishga ham ulguradi ijodkor. Unda chet elda ilm o'rganib kelgan advokatning yoniga turli shikoyatlar bilan uquvsiz, omi odamlar yog'ilib kelaveradi. Advokat esa ularning bu holatini ko'rib, hatto shikoyat qilishni ham bilmasligiga guvoh bo'lib, xalqning ahvoriga achinadi, chora izlaydi.

Bu asarlarning o'lmas g'oyaga ega ekanligining yana bir isboti shundaki, yaqin kunlarda O'zbek Milliy drama teatri sahnasida aynan Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pesasi sahnalashtirilishi rejalashtirilmoqda.

Jadidlar safidagi eng yosh jadidchi, 14 yoshli Cho'lponning mashhur "Kecha va kunduz" romanida Miryoqub epaqa bilan poyezdda tanishib qolgan jadid personaji orqali biz jadidlar g'oyasi, ularning nimalarga intilgani, ular uchun ma'rifatning, ilmning qay darajada muhim ekanligini, xalq uchun qay darajada kuyunchak, qanchalar xalqparvar bo'lishganini yanada teranroq tasavvur qilishimiz mumkin.

Aslini olganda, jadidchilik Turkistonda bor-yo'g'i o'ttiz yil nari-berisi davom etdi. Jadid teatri esa undan ham kamroq – yigirma yilga yetar-yetmas. Tarix oldida mu muddat zarrachalik ham emas. Biroq shu qisqagina davr katta bir xalqning millat sifatida shakllanishiga, ijtimoiy ongi uyg'onishiga, dunyoqarashi o'zgarib, estetik didi kamol topishiga imkon yaratdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mana shu pesalar qatorida turuvchi barcha asarlarning ma'rifiy va ma'naviy jihatdan bugungi kunda ham o'z o'rnini bor. Ulardagi yoshlarni ilmli qilishga intilish, xalqning ko'zini ochishga harakat qilish, ilm o'rganish, ma'rifat nurini tarqatish masalalari bugungi kunda yanada dolzarbroq bo'lib bormoqda desak xato bo'lmas balki. Chunki yoshlarimizning yengil hoyu havaslarga uchishi, o'z kelajak yo'lini qura olmasliklari, ba'zi hollarda turli diniy va terroristik guruhlariga aralashib qolishlari, ongsiz ravishda turli jinoiy ishlarga qo'l urishlari – bularning bari Behbudiy qayta-qayta ta'kidlagani, Avloniy bot-bot takrorlagani ilm,

ma'rifatning yo'qligidan ekanligi barchamizga kundek ravshan bo'lib turgan haqiqatdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

3. Shuhrat Rizayev: “Jadid dramasi” – “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent – 1997

4. Miyon Buzruk Solixov: “O'zbek teatri tarixi uchun materiallar” – {elektron shaklda}

5. Birinchi Prezident Islom Karimov: “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” – “O'zbekiston” nashriyoti. Toshkent – 2008

6. Internet yangiliklari.

## AKTYORNING OBRAZ YARATISHIGA XIZMAT QILUVCHI OMILLAR

*“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası  
katta o‘qituvchisi Sevara Rajabova*

Obraz yaratish tushunchasi bu keng ma’nodagi qo‘llaniladi. Obraz - bu timsol deganidir. Dramaturg asariga kiritgan har bir qahramonni obraz deb atash noto‘g‘ri. Bular xarakterlardir. Aktyor xarakterlarni obraz darajasigacha olib chiqish uchun ancha ter to‘kishi kerak bo‘ladi, qaysi ma’nodagi, buning uchun aktyor o‘z kasbini ham nazariyasini, ham texnikasini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida bo‘lajak aktyorlarga K.S.Stanislavskiy sistemasini bo‘yicha ta’lim beriladi. Stanislavskiy yozib qoldirgan asarlari talabalar uchun asosiy dasturi-amal bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda gap obraz yaratish ustida borar ekan, Stanislavskiyning “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” kitobida bu borada atroflicha to‘xtab o‘tilgan.

Stanislavskiy tilga olgan “Kechinma san’ati” – obraz yaratish uslublarini bir tarmog‘i xisoblanadi.

“Kechinma san’ati” deb – yaratayotgan obrazini ichki kechinmalarini aktyor ichidan his qilib tomoshabinga yetkazib berishiga, ijro etishiga aytiladi.

“Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, obraz yaratishda eng asosiy kuch – aktyorga tushadi. Aktyor o‘z rolini qo‘liga olar ekan, avvalo u tekst bilan tanishadi. Rol – bu tekstdir. Agar biz tekstni bilmasak rol ijro etolmaymiz”. [1]

Xarakter esa - nima qiladi?, nima ish bajaradi? degan savollarga javob izlaydi. Xarakter – irodaga va berilgan maqsad sari intiladi.

Obraz esa shu – rol va xarakterdan kelib chiqadi.

“Obraz yaratish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Lekin bu bosqichlar ming to‘g‘ri bajarilmasin, artistlik tabiatimizda ilm va ilxom qorishmas ekan kutilgan natijaga erishilmaydi”. [3] Aktyor asarni qo‘liga olar ekan, avvalo ishni pyesa bilan tanishishdan boshlaydi. Endi uning xarakteriga alohida to‘xtalinadi. U qanaqa inson, nimalarni yaxshi qo‘radi-yu, nimalarni yomon ko‘radi? Keyin atrofdagi insonlarga uning munosabati qanaqa? Atrofdagilarni unga munosabati qanaqa? Aktyor bu yerda

“Men” deb obyektga munosabat bildirsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Undan so‘ng asardagi berilgan shart-sharoit aniqlanadi. Albatta bu yerda bir jamoa bo‘lib ish ko‘rilsa, yanayam tez va aniqlikka erishiladi. Bahs-munozarada dramaturg va rejissyorning fikri juda muhim. Chunki bu ikki inson aktyorlardan avvalroq bu jarayonga aniqlik kiritib olgan bo‘lishadida. Shu bilan birga bular xaqida bosh qotirishni dastlab aktyorlarning o‘ziga qo‘yib berish kerak. Bu suhbatlar natijasida aniq bir to‘xtamga keliniladi.

Keyingi bosqich maqsadni aniqlash. Ya‘nikim, aktyor o‘ziga mening maqsadim nima va men asar davomidagi xatti-harakatim orqali nimaga erishaman degan savollarga aniqlik kiritib olishi lozim. Asardagi xar bir qaxramonning o‘zi uchun xaqiqati mavjud. U salbiy qaxramon bo‘lsa xam, asar davomida u bajarayotgan ishlar, munosabatlar o‘zi uchun to‘g‘ridir. Salbiy qaxramon “Men mana bu ishni noto‘g‘ri qilyapman” deb ko‘rsatib bermaydi. Bu ish uning uchun eng to‘g‘ri ish va shu xarakter uni maqsadi sari to‘g‘ri yetaklaydi. Buning noto‘g‘ri ekanligini tomoshabin o‘zi hal qiladi va ajratib oladi. Salbiy qaxramon “men yomon insonman va mening maqsadim xam yomondir” deb harakat qilishi noto‘g‘ri hisoblanadi. Shuning uchun aktyor salbiy qahramonni ijro etayotganda ham yuqorida aytganimdek uning o‘zi uchun to‘g‘ri bo‘lgan maqsadlari va haqiqatlarini aniqlab olishi zarur. “Men bu rolni ijro etib tomoshabinga nima demoqchiman?” navbatdagi javobi izlanishi kerak bo‘lgan savol esa shu. Bu eng muhim savollardan. Chunki tomoshabin mavxumlikni tushunmaydi va qabul qilmaydi. Xar bir qaxramonning asarda aytmoqchi bo‘lgan gapi bo‘ladi. Bu uning sahnadagi harakatida tomoshabinga yetib boradi.

Asosiy jarayonlardan yana bir esa – bu g‘oyadir. Bu yerda uch birlikni g‘oyalari bir-biriga hamohang bo‘lishi juda muhimdir. Aktyorning topgan g‘oyasi rejissyor va dramaturgning g‘oyasi bilan mosmi yoki men boshqa yo‘nalishdan umuman boshqa tomonga harakat qilyapmanmi, degan savolni aniqlash asosiy jarayondir. Xech bo‘lmaganda rejissyor bilan g‘oyalar birdamligini ta‘minlab olish kerak. Chunki dramaturgning tekstiga xar bir rejissyor o‘zicha yondashadi. Shuning uchun aktyor

avvalo asosiy ishni rejissyor bilan bajarishi lozim. Rejissyor tomoshabinga aytmoqchi bo'lgan gapni yetkazish aktyorga bog'liqdir.

Yuqorida sanab o'tganlarimizdan tashqari obraz ustida ishlashning yana bir necha xil uslubiyatlari mavjud. Bular:

- Usul va tizim
- Rol hayotining tashqi tomoni
- Janr va ijro uslubiyati
- Voqealar tizimi, shart-sharoitlar, xatti-harakat, yetakchi xatti-harakat
- Rolning oliy maqsadi
- Artist rolining yetakchi xatti-harakati
- So'z ustida ishlash jarayoni
- Spektaklning muhiti (Atmosfera)
- Muxit va ijro
- Obyektiv muhit va subyektiv his – tuyg'u
- Muhit va mazmun. Muhit burchi
- Xatti-harakat
- Psixofizik jarayon va uning bosqichlari
- Ruxiy xatti- harakat
- Aktyor ijodida sodda jismoniy harakatlarning ahamiyati
- Aktyorning professional etikasi
- Aktyorlik mahorati ta'limoti
- Spektakl jarayonida xatti-harakat
- Jismoniy harakat va biomexanika usuli
- Spektakl jarayonida improvizatsiya (badiiyxa)
- Moslama
- Matn mohiyatini aniqlash
- Tabiiy ijod orqali berilgan siymo-timsol(obraz)

Yuqorida sanab o'tilgan barcha uslublar aktyorning obraz yaratishiga xizmat qiladi. Bularni aktyor yuragi va tanasida ishlata olmas ekan kutilgan samarani bermaydi. Aslida shularni ishlata olish va shulardan foydalana olishning o'zi -

aktyorlikdir. Bir timsolning paydo bo‘lishi mana shunday bosqichlarni bosib o‘tadi. Bu yerda albata dramaturg va rejissyordan xam ko‘ra, aktyorning mehnati katta bo‘ladi. Shuning uchun so‘zimni mashhur rus aktyori Oleg Tobakovning bir gapi bilan yakunlamoqchiman: “Men o‘z obrazimni, yaratayotgan qaxramonimni - dramaturgdan ham, rejissyordan ham, teatrshunos va jurnalistdan ham yaxshi bilaman”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

2. K.S.Stanislavskiy “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. -:Badiiy adabiyot, 1965 – 87b.
3. V.N.Sundukova, Z.A.Axmedova “K.S.Stanislavskiy sistemasining atama va unsurlari”. UMED, 2012 - 34b.
4. K.S.Stanislavskiy “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. -:Badiiy adabiyot, 1965 – 109b.

## ZAMONAVIY O‘ZBEK MILLIY TEATRI

*“Dramatik teatr va kino san’ati” kafedrası  
O‘qituvchisi Qahramon Madrimov*

### **Annatatsiya**

*Bu maqola musiqali teatr san’atini O‘zbekiston hududidagi drama teatri xalq orasida rivoji xaqida. O‘zbek san’atida teatrni o‘rni, klassik dramaturgiya, aktyorlik mahoratini hamda maktab asoschilarini o‘rni yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Teatr, ma’naviy, g‘oya, estetik, tarix, xalq, Millat, mezon, aktyor, rol, ijro.*

### **Annotatsiya**

*Eta statya o razvitii muzikalnogo teatra na territorii Uzbekistane. V teatralnom iskusstve osveshayutsya rol muzikalnogo teatra, klassicheskoy dramy, akterskogo masterstva, i rol osnovopolojnikov shkoli v uzbekskom iskusstve.*

**Klyucheviye slova:** *teatr, duxovnost, ideya, estetika, istoriya, lyudi, Natsiya, kriteriy, akter, rol, spektakl.*

### **Annotation**

*This article is about the development of musical theater on the territory of Uzbekistan and musical theater among the people. In theatrical art, the role of musical theater, classical drama, acting and the role of the founders of the school in Uzbek art is highlighted.*

**Key words:** *theater, spirituality, idea, aesthetics, history, people, nation, criterion, actor, role, performance.*

Teatr – insonga kuchli ma’naviy ozuqa beradigan, g‘oyaviy va estetik ta’sir qiladigan, zavq beradigan san’at turlaridan biridir. XIX asr oxiri va XX asrning boshi yurtimiz uchun boshqa tarixiy davrlardan farq qilib, o‘zbek xalqi hayotiga yangi g‘oyalar olib kirdi. XX asr demokratik ruhdagi o‘zgarishlar bilan boshlandi. Millatimiz ziyolilari, san’tkorlar, xususan aktyorlar XX asr boshlarida xalqimizni madaniyatga, ma’rifatga boshlovchi va uni targ‘ib qiluvchi teatr ekanligini anglab yetishgan edi. Xalqimizning ma’naviyatini va ma’rifatini teatrda, deb bilgan ilg‘or jadid ziyolilari Turkistonda Yevropa usulidagi teatrlarni tashkil eta boshlashdi, ular teatrlarni tarbiya va ma’naviyat maskani deb tan olishgan edi. “Teatr o‘yunbozlik emas! Masxarabozlik ham

emas! Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o‘z husnu qabihini ko‘ra olur. Yuziga un surtib masxarabozlik shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdurlar”<sup>5</sup>. Teatr asoschilaridan biri bo‘lgan dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiy bu so‘zlari orqali teatr jamiyat uchun benihoya zarurligini, u xalq uchun ibrat maktabi bo‘lib, teatr jamiyat ko‘zgusi ekanligini ta’kidlagan edi.

Mana necha yillardirki, o‘zbek teatri ijtimoiy – estetik mezonga amal qilib yashamoqda, o‘smoqda, rivojlanmoqda. Milliy teatrlarimizda buyuk sahna namunalari yaratilmoqda, buyuk rejissyorlar, aktyorlar yetishib chiqmoqda, an‘analarimiz shakllanib rivojlanmoqda. O‘zbek teatri tarixiga nazar solar ekanmiz uning o‘z an‘analari doirasida bir nechta ijodiy maktablar yaratganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu maktablarda yuksak san‘at arboblari ta’lim oldi, elga tanilgan aktyorlar, buyuk rejissyorlar kamol topib o‘zlaridan keyingi avlodga ulkan ijodlarini meros qilib qoldirdi.

“O‘zbek xalqi jahon teatr madaniyatining deyarli barcha turlarini egallagan. Lekin xalqimiz o‘z xarakter xususiyati va milliy an‘analariga tayangan holda professional teatrning yangi o‘ziga xos turi - musiqali dramani yaratdi. Musiqali dramaning tarixi uzoqo‘tmishga borib taqaladi.”<sup>6</sup> Darhaqiqat, teatr tarixiga nazar solar ekanmiz, xalqimiz ming yillardan beri san‘atni, xususan teatr san‘atini sevib, ardoqlab kelayotganini guvohi bo‘lamiz. O‘lkamizda an‘anaviy teatr, xalq va maqom musiqasi, doston ijrochiligi - baxshichilik san‘ati, hofizlik, sozandalik va raqs san‘ati juda qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Yurtimizga XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida kirib kelgan Yevropa usulidagi teatr san‘ati an‘anaviy teatrimiz, baxshichilik ijro uslublari, maqom, xalq kuy va ko‘shiqlari bilan qo‘shilgan holda dunyoning hech bir yerida uchramaydigan yangi bir janrga-musiqali teatr janriga asos soldi. Bu janr xalqimiz orasida eng sevimli san‘at turlaridan biriga aylandi. XX asrning boshlarida yaratilgan “Halima”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi zamonaviy va mumtoz asarlar o‘zbek musiqali teatrida

---

<sup>5</sup>Ahmad S. Behbudiyning armonlari. “Teatr” adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali, 2006 №1. 7 b.

<sup>6</sup>Xamidjon Ikromov. “Davr va Teatr.” - “Musikali teatr: tashabbus va ijro.” “Uzbekiston milliy

o‘ziga xos an‘analarning shakllanishiga zamin bo‘ldi.

Teatrni va unda qo‘yilayotgan asarlarning xalq uchun naqadar mo‘jizakor kuchga ega ekanligini juda ko‘p ziyolilar, buyuk rejissyorlar, va aktyorlar ta’kidlab kelganlar. Mana shu mutaxassis san’atkorlar qatori mashhur rejissyor G.Tovstonogov ham teatr haqida o‘z fikrini shunday bayon qiladi: “Sahna uzunasiga o‘ttiz, eniga yigirma qadam, balandligi pardasi barobar uncha katta bo‘lmagan bir makon. Unga kichikroq uy yoki bog‘ni joylashtirsa bo‘ladi. Biroq bu makonning pardalari ochilgach, unga o‘tmish ham, bugun ham, kelajak ham sig‘ishi mumkin. Bu yerda dunyo yaratish mumkin”.

Mashhur rejissyor Nemirovich Danchenko esa, “Juda hashamatli bino qurib, uni zamonaviy yoritgich va isitgichlar bilan jihozlab, malakali rassom va orkestrni taklif etib, ishbilarmon administrator va direktorni ishga jalb etgan taqdirda ham bu teatr - teatr bo‘lmaydi. Bu yaxshi jihozlangan va ta’mirlangan bino bo‘lib qoladi. Mana biror shahar maydoniga uch aktyor kelib, yerga gilamcha soldilar va o‘z mahoratlarini, ijrolarini namoyish eta boshladilar - ana endi bu tomosha haqiqiy teatr tomoshasidir”, deb teatr aktyori haqida o‘zining iliq fikrini bildirgan.

K.S.Stanislavskiy teatr aktyorlarini ulug‘lab shunday degan edi: “Sahnaning yagona shohi va hukmroni iste’dodli aktyordir!”<sup>7</sup>.

Ha, darhaqiqat, teatrning asosiy qon tomiri bu – aktyordir. Teatrni ushlab turgan ham, unga tomoshabinlarni jalb etadigan ham aktyordir. Aktyor ijodi va mahorati bir paytning o‘zida ham tabiiy, ham ijtimoiy, ham amaliydir. Aktyor dramaturg fikriga, rejissyor talqiniga o‘z ijrosi bilan jon kiritib uni sahnaga olib chiqadi, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo‘ladi, unga zavq-shavq bag‘ishlaydi, o‘ylashga, fikr yuritishga majbur qiladi. Mana shu sababdan ham doimo aktyorlar ijodi soxa mutaxassislari, tanqidchilari va amaliyotchilarining e’tiborida bo‘lib kelgan. Biroq, har qanday tanqidchi yoki tadqiqotchi bo‘lmasin, butun vujudi bilan berilib obraz yaratayotgan aktyorning his-tuyg‘usini, uning ruhiyatini nozik jihatlarini ko‘rishga va anglashga qodir bo‘laverishmaydi. Aktyor sahnada rol ijro etar ekan u o‘zligini unutmagan

---

<sup>7</sup>Станиславский К.С. Собр.соч., т. 6. М., 1959, стр. 24.

holda o‘zga kishining dunyosi bilan yashaydi. Jon-jahdi bilan u inson qiyofasini tashqi va ichki jihatlarini ochib berishga intiladi va bunga erishadi ham.

Biz pedagoglar, teatrga kuchli aktyorlarni tayyorlab berish uchun, avvalambor, yosh mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirib, ularning ijodiy imkoniyatlari va iqtidorlarini to‘laroq namoyon qilishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratishga harakat qilishimiz zarurdir.

Pedagoglar oldiga qo‘yilgan yana bir vazifa, teatr – musiqiy ta’limi jamiyatimizning ma’naviy, estetik, g‘oyaviy talablaridan orqada qolmasligi uchun, ijodiy mutaxassislarni egallayotgan kuylovchi aktyorning tayyorgarligini rivojlantirish va mukammallashtirishdan iboratdir.

Kamol topayotgan yosh avlodni tarbiyalash uchun pedagog talabada o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini uyg‘otishi kerak. Talaba birinchi kundanoq o‘qituvchining samimiy munosabatini sezishi kerak. O‘zaro hurmat va ishonch, san’atkor nomini ulug‘lab ko‘tarib yurish – bu ustozlarimizdan bizgacha yetib kelgan teatr pedagogikasining asosiy tamoyillaridir.

O‘zbek xalqining sevimli xonandasi, bir qancha spektakllarda rol o‘ynab ariyalarni maromiga yetqazib ijro etgan Halima Nosirova san’atkorlar haqida shunday degan edi, “ San’atkor - bu juda yuksak nom. San’atkor el nazariga tushgan, xalq izzat-hurmatini qozongan, obro‘-e’tiborli, madaniyatli, did va farosati charxlangan kishi. San’atkor – ilg‘or ideallarni, yangilik va ezgulikni chuqur his etuvchi hamda uni xalq ongiga singdiruvchi tashviqotchi. San’atkor o‘z burchini chuqur anglaydigan, sof vijdonli, ochiqko‘ngil, fidoyi inson. U kishilar qalbiga cho‘g‘ soluvchi, ularni yaxshilikka, olijanoblikka yo‘llovchi insondir...”<sup>8</sup>.

O‘zbekiston qahramoni, sevimli aktyorimiz Zikir Muhammadjonov bunday deb ta’kidlab o‘tgan: “Iste’dod - san’atkorning qanoti bo‘lsa, mehnat - parvozini vujudga keltiruvchi quvvatdir”<sup>9</sup>.

“...Rejissyor san’atining asosiy materiali aktyor ijodidir. Aktyor ijodiy muhofaza uchun doim rahbarga, ustozga muhtojdir”<sup>10</sup>. Xalqimiz qalbidan joy olgan sevimli aktyorimiz Abror Hidoyatov bu so‘zlari orqali yosh aktyorlarga katta e’tibor qaratish kerakligini uqtiradi.

---

<sup>8</sup>Qodirov M. Sahnamiz lochinlari. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1986 y. 83 b.

<sup>9</sup>Abdusamatov H. Sahna sardori. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2003 y.

<sup>10</sup>Qodirov M. Sahnamiz lochinlari. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1986 y. 38 b.

Yurtimizda istiqloq yillarida yosh kadrlarga boʻlgan eʼtibor va talab kuchaytirildi, ulkan maʼnaviy va maʼrifiy islohotlar amalga oshirilib, yosh ijodkorlarga yetarlicha ahamiyat berila boshlandi.

Mustaqillik yillarida sanʼat sohasiga ham eʼtibor kuchayib, uni rivoji yoʻlida juda katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning “Oʻzbekiston teatr sanʼatini rivojlantirish toʻgʻrisida”gi 1998 yilgi farmoni sanʼat ahli uchun katta voqea boʻldi. I.A.Karimov teatr sanʼatining ahamiyati toʻgʻrisida bunday degan edi: “Teatr muqaddas dargoh, tomoshabinlar unga nafaqat dam olish, hordiq chiqarish, balki maʼnaviy ozuqa olish, dunyoqarashini kengaytirish maqsadida keladi. Shuni alohida taʼkidlab oʻtish joizki, hozirgi vaqtda respublikamiz teatrlarida turli mavzu va janrlarda koʻplab spektakllar yaratilmokda, oʻziga xos ijodiy izlanishlar davom etmokda.

Ayni paytda teatr sanʼatimizda ham bugungi hayotimizni, zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan, tomoshabinni oʻziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtai nazaridan badiiy yuksak asarlar, afsuski, kam ekanini tan olishimiz lozim. Aksincha, real haqiqatdan yiroq, odamga katta maʼnaviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar repertuarlarini toʻldirish holatlari koʻzga tashlanmoqda.

Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sugʻorilgan asarlar yaratish barcha sanʼat turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon boʻlishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va isteʼdodli dramaturg va rejissyorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi”<sup>11</sup>.

I.A.Karimov aytganidek yuksak badiiy, chuqur maʼnaviy asarlarni yaratish, yillar davomida yigʻilgan anʼanalar asosida mukammal, mumtoz spektakllar sahnalashtirish, yosh va isteʼdodli dramaturglar, rejissyorlar, aktyorlarni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun esa ildizi ming yillarga borib taqaladigan musiqali teatr janri anʼanalarini, uning murakkab taraqqiyot bosqichlarini ilmiy oʻrganishimiz zarur.

Oʻzbek teatrining boy tarixiga nazar tashlasak, unda teatr tarixi anʼanalarini oʻrgangan koʻplab teatrshunos olimlar va sanʼatimiz fidoyilarining ilmiy ishlari, kitoblari va maqolalarining mavjudligini koʻramiz. Misol uchun, Akademik M. Rahmonovning “Hamza va oʻzbek teatri”, professor M. Qodirovning “Sehr va mehr”, professor T.Tursunovning “Sahna

---

<sup>11</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenta I.A.Karimovning “Oʻzbekiston teatr sanʼatshsh rivojlangirish tugrisida gi Farmoni, “Teatr” jurn. Toshkent, 1999 yil,(1-2 son)

va zamon”, professor A. Jabborovning “Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida”, professor H.Ikromovning “Davr va teatr” nomli kitoblarida musiqali teatr masalalari ham yoritilgan, bundan tashqari professorlar S.Tursunboyev, T.Islomov, M.To‘laxo‘jayeva, san’atshunoslar Matluba Temur qizi, S.Ahmedovlarning ishlarida ham shu masala o‘rganilgan.

Ushbu qo‘llanma o‘zbek drama tarixi, rejissurasi, aktyorlik san’ati yo‘nalishlarida kelajakda yaratilajak darslik, o‘quv - uslubiy qo‘llanmalar va boshqa izlanishlar uchun o‘ziga xos manbaa bo‘lib xizmat qiladi, amaliy jihatdan esa musiqali teatr sohasidagi yosh san’atkorlarga o‘zbek musiqali teatr rejissurasi an’analarini chuqurroq o‘rganishlarida foyda bo‘ladi, degan umiddamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmad S. Behbudiyning armonlari “Teatr” jurnali
2. Xamidjon Ikromov “Davr va Teatr.”
3. Stanislavskiy K.S. Sobraniya sochinenii.
4. Qodirov M. Sahnemiz lochinlari.
5. Abdusamatov H. Sahna sardori.
6. Qodirov M. Sahnemiz lochinlari.
7. “Teatr” jurn. Toshkent, 1999 yil,(1-2 son)

## **SAN'AT TA'LIMIDA MUSIQALI TRAGEDIYAGA MANSUB ASHULALARNI O'RGATISHNING BA'ZI MASALALARI**

Go'zal RASHIDOVA,  
O'zbekiston davlat san'at va  
madaniyat instituti "Dramatik teatr  
aktyorligi" kafedra katta o'qituvchisi

San'at olamining teatr sohasida "Ustoz-shogird" an'anasi juda katta ma'noga ega tushuncha bo'lib, unda ustozlar merosi kelajak avlodga uzatiladi, maktab yaratgan ustozlar merosini o'zlashtirish orqali shogirda mahorat va kamolot oshib boradi, har bir ijodkorda o'z kasbiy yo'lini topishga intilish paydo bo'ladi, ularda yangi ijodiy yutuqlarga erishishga rag'bat paydo bo'ladi. Shuningdek, bu an'ana yangi avlod tomonidan ustozlar merosining amaliy ahamiyati va qadr-qimmatini amalda namoyish qilishinishiga xizmat qiladi. San'at sohasida ustoz-shogird an'anasining ilmiy ahamiyati shundaki, shu orqali ashula-musiqi ijro durdonalarini saqlash va umriga umr qo'shish, undan yosh avlodni bahramand etish samarasi hosil bo'ladi.

San'at ta'limining teatr sohasida ustoz-shogird an'anasi milliy san'atimizni dunyo xalqlariga ko'z-ko'z qilish, ajdodlarga munosib vorislar tayyorlash, jamiyatda ustoz va ustozlik martabasini yuqori ko'tarish maktabidir.

Ustoz sabog'ini olmagan iste'dod yovvoyi daraxtga o'xshaydi, yovvoyi daraxt esa ahamiyati yo'q, xaridori bo'lmaydigan meva beradi. Ustoz tarbiyasini olgan iste'dod esa ulama daraxtga o'xshaydi, kelajakda u totli, mazali va xushbo'y meva beradi, odamlar undan bahra oladi, o'zini ham qadrlaydi. "Ustoz-shogird" an'anasi bo'yicha o'ziga xos tajriba va tizimga ega bo'lgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida mutaxassislik darslarida, amaliy mashg'ulotlarda o'z o'zanida to'xtovsiz davom etadi. Ammo bu an'ana tegishli dastur doirasidan tashqariga chiqq olmaydi. Shuning uchun ustoz-shogird an'anasining yangi qirralarini izlash, masalaga kreativ

yondashuv kerak. Ulardan biri yaqin o‘tmishda ijod qilib o‘tgan san’atkorlar repertuaridan yangi avlodga o‘rgatish, ularning mahoratini oshirish, namoyish qilishdir.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturini bajarish kabi dolzarb vazifalar ijrosi shuni talab etadi.

#### *Asosiy natija va tahlillar*

Bu maqolada yosh avlod yaxshi bilmaydigan, merosi juda sermahsul, serqirra ustazoda san’atkor O‘zbekiston xalq artistlari E’tibor Jalilova, Rahima Mazohidova ijodiy merosini ustoz-shogird an’anasi asosida o‘rgatish muammolarini ko‘rib o‘tamiz.

O‘zbek musiqali drama xonandasi, noyob ovoz sohibasi, yetuk ustoz E’tibor Jalilova ijodi san’at tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. U 1924 yil 15 martda Andijon shahrida tug‘ilgan. 1983 yili vafot etgan. Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan. 1964 yili O‘zbekiston xalq artisti unvoniga ega bo‘lgan. 1940-41-yillari Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan o‘zbek opera studiyasida tahsil olgan. Toshkent konservatoriyasida o‘qigan. 1941 yildan boshlab Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida aktrisa-ijrochi, xonanda bo‘lib ishlagan. Aktyorlik va xonandalik iste’dodi mahalliy mualliflarning musiqali drama va komediyalarida, o‘zbekchaga tarjima qilingan xorijiy asarlarda estetik jihatdan mukammal, realistik jihatdan ishonarli, usluban o‘ziga xos, jozibali va ishonarli sahna obrazlarini yaratgan.[2]

“Tohir va Zuhra”da Zuhra, “Arshin mol olon”da Gulchehra, “Oltin ko‘l”da Shohista, “Farhod va Shirin”da Shirin, “Oftobxon”da Oftobxon, “Nurxon”da Nurxon obrazlarini teran psixologik xarakterlar namunasi sifatida

namoyish qila olgan [3]. Mazkur asarlarda qahramonlar tilidan ajoyib ashulalar ijro etgan. Ayni mana shu ashulalar radiolarda berilib, aktrisaning elga tanitgan. Radiofonoteka xazinasida hanuz yozuvlari saqlanadi. Ushbu ashulalarni qayta yozib olib, talabalarga o'rgatish, ularning ustozlar merosidan bahramand bo'lishini yo'lga qo'yish lozim.

San'atshunos professor Toshpo'lat Tursunov Muqimiy teatri haqidagi makolasida "Tohir va Zuhra" asari yangi tashkil qilingan teatrning qiyofasi, qadri va obro'sini belgilaydigan asar bo'lganligini ta'kidlab, tomoshabinlar E'tibor Jalilova, Farog'at Rahmatova, Shahodat Rahimova, Tursunxon Ja'farovalarni Zuhra obrazi orqali, Mashrabjon Yunusov, Mahmudjon G'ofurovni Tohir obrazi orqali xalq tanitganligini alohida e'tirof etadi. [4]

XX asr o'zbek xalq ashulachiligi namoyandasi qo'qonlik O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazohidova (1930-2014) ijodiy faoliyatini M. Qo'ldoshev rahbarligidagi badiiy havaskorlik to'garagida boshlagan. Qo'qon musiqali drama teatrida ishlagan. Shahardagi "Omon yor" ayollar folklor ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari bo'lgan. U xalq sayillarida, to'y-tomoshalarda o'zining jo'shqin va yoqimli ovozi bilan xizmat qilib, folklor va milliy qo'shiqchilik san'atini tiklash va saqlashga katta hissa qo'shgan hofiza edi. Rahima Mazohidova doyra chalib, to'y marosim qo'shiqlaridan «Yor-yor», «Kelin salom»ni aytib el qalbini shod qilar edi. Xalq lapar va yallalaridan «Deydi-yo», «Bugmacha bilagim», «Omon yor», «Yalli-yali», «Qari navo» ashulalarini maromiga yetkazib ijro qilar edi.[6]

Rahima Mazohidova faqat xalqona ashulalar ijro etish bilan kifoyalanmay, "Feruz", "Qo'qon Ushshog'i", "Guluzorim", "Mujgonlaring", "Farg'ona tong otguncha", "Bir kelib ketsun" kabi mumtoz ashulalarni ham mahorat bilan kuylay olgan. «O'zbekfilm» studiyasining «O'tgan kunlar» (1969), «Zulmatni tark etib» (1973), «Ota vasiyati» (1979) filmlarida o'z ashulalari bilan suratga tushgan. Bu orqali rejessyorlar uning ashulalarini kelajak avlodga yetkazishni ham ko'zlaganlar. Ustoz va talabalar ushbu

san'atkorlar ijodini o'rganishda Ilyos Akbarov, To'xtasin G'afurbekov kabi san'atshunoslar asarlaridan albatta foydalanishlari tavsiya qilinadi.

Xulosa va tavsiyalar

- Hozirgi davrda yosh iste'dodlar milliy ashulalarimizdan foydalanishda ilmiy izlanish o'rniga tayyor ashulalarga murojaat qilib, boy milliy merosimiz mavjudligini tasavvur eta olmayaptilar. Ular zamonaviy san'atkorlar ijodiga qiziqish bilan kifoyalanmoqdalar.

- Ustozlar esa boy merosimizda durdona asarlar mavjudligini bilsalarda, o'zlariga oson va qulay, mashhur hamma biladigan namunalarini o'rgatish bilan kifoyalanmoqdalar.

- Endilikda xalq xotirasidan chiqib ketayotgan, biroq radio va televideniye arxivlarida mavjud bo'lgan as'halalarni topib, qayta tinglab, yosh avlodga o'rgatishlari, ularga merosni tekshirish malakasini o'rgatishlari zarur. Ularga topshiriqlar berib, qiziqtirishlar kerak.

- Ustoz-shogird an'anasi faqat amaliy mashg'ulotlar bilan emas, balki ustozlar merosi tarixini bilishga yo'naltirish bilan birgalikda olib borsalar ijobiy natijalar yanada ko'paygan bo'lur edi.

- O'zDSMI da "Ustoz-shogird" an'anasi natijalarini maxsus konsent dasturlari namoyishi bilan ko'rsatib berish kerak. Bu esa shogirdlar mehnatini ham namoyish qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

[1] Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017., 140 bet.

[2] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "J" harfi. [WWW.ziyouz.com](http://WWW.ziyouz.com) kutubxonasi.

[3] Musiqali dramalardan parchalar. T. 1958.

[4] Tursunov T. To'xtasin Jalilov va Muqimiy teatri. // "Teatr" jurnali, 2009 y. 9-son.

[5] Qo'shiqlar guldastasi. D.Jalilov nashrga tayyorlagan. T.1989.

[6] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "M" harfi. [WWW.ziyouz.com](http://WWW.ziyouz.com) kutubxonasi.

## **JAHON MUMTOZ ASARLARI**

*“ Dramatik teatr va kino san’ati”  
kafedrasi o‘qituvchisi Karayeva Feruza*

### **ANNOTATSIYA**

*Bo‘lajak aktyorning jahon dramaturgiyasi namunalari, umuman, mumtoz asarlarda rollar ustida ishlashi unga nima berishi mumkin? O‘zbek va dunyo teatrlari tajribalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, jahon klassik asarlarida ishlab ko‘rgan yosh aktyorda ijodiy daraja shakllanadi.*

**Kalit so‘zlar:** Aktyor, uslub, yondoshuv, fantaziya, mumtoz asarlar.

*Kafedra « Dramaticheskii teatr i kino»  
Pedagog Karayeva Feruza*

### **ANNOTATSIYA**

*Chto mojet dat yemu rabota budushego aktera nad rolyami v obrasax mirovoy dramy, v obshem, klassicheskix proizvedeniyax? Isxodya iz opita uzbekskix i mirovix teatrov, mojno skazat, chto molodoy akter, rabotavshiy v mirovoy klassike, razvivayet tvorcheskiy uroven.*

**Klyucheviyeye slova:** akter, stil, podxod, fantaziya, klassicheskiye proizvedeniya.

*Department of " Dramatic theater and cinema"  
Teacher Karaeva Feruza*

### **ANNOTATION**

*What can a future actor’s work on roles in examples of world drama, in general, classic works, give him? Based on the experience of Uzbek and world theaters, it can be said that a creative level is formed in a young actor who has worked in world classics.*

**Keywords:** Actor, style, approach, fantasy, classic works.

Teatr deganda, kishining ko‘z o‘ngida avvalo, obrazli liboslar va ajib grimlarda xayotning turfa vaziyatlarida turfa xil maqsadlar yo‘lida gox quvonib, goh dard chekib hayot kechirayotgan odamlarni ko‘rsatib beruvchi aktyorlar gavdalanadi. Tomoshabinga teatr nima ekanligini tushuntiruvchi ham va bu xizmatlari evaziga ularning olqishiga sazovor bo‘luvchilar ham aktyorlardir. “Aktyor sahnaning yagona egasi”, “Aktyor sahna qiroli” kabi ko‘plab e’tirof va ta’riflarning barchasida teatr san’atida aktyorlarning vazifasi va mavqeyi qanchalar yuqori o‘rin tutishini nazarda tutilgan. Bu san’at paydo

bo‘libdiki, butun dunyo olimlari ular haqida bahs yuritadilar, kitoblar yozadilar. Didro, Stanislavskiy, Meyerxold, Gratonovskiy, Mixayl Chexov va boshqa shu kabi buyuklar bu san‘at sohasining mohiyatiga yetishga, aktyor kim ekanligini o‘rganishga umr sarflagan. Hozirgi kunda ham bu san‘atning asl siri, oxir poyoni qayerda ekanligini hech kim butkul anglab yetgan emas. Shuning uchun ham uni o‘rganish, anglash yo‘lidagi izlanishlar davom etaveradi. Ana shunday boshqalar uchun havasli va sirli tuyuladigan san‘at sohiblari aktyorlar qanday shaklanadi? Balki oddiydir, balki murakkab, buni faqat sohaning chinakam ustalarigina va aktyorlarning o‘zigina biladi. Albatta, aktyor shunchaki paydo bo‘lib qolmaydi. Mana shunday yuksak san‘atni egallashda o‘z qobiliyati ustida tinimsiz ishlash, uni boyitish yo‘lida izlanish, o‘qish, umuman, katta va davomli mehnat talab qiladi. Har qanday ta‘limni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi tomonlar tashkil etadi. Har qanday sohani o‘zlashtirishning esa ikki tomoni bor, ya‘ni kasbiy bilim va amaliyot. Aktyorlik uchun fantaziya va dunyoqarashning kengligi, inson va xayot, kasbi haqida yetarlicha bilim kerak. Amaliyot esa shular negizida yuzaga chiqadi. Bo‘lajak aktyor san‘atning barcha turlarini tushunishi, ayniqsa, jahon adabiyotining mumtoz namunalari bilishi katta ahamiyatga ega. Bunda esa pedagog san‘atkorning tajribasi va maqsadga to‘g‘ri olib bora olishi muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak aktyorning jahon dramaturgiyasi namunalari, umuman, mumtoz asarlarda rollar ustida ishlashi unga nima berishi mumkin? O‘zbek va dunyo teatrlari tajribalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, jahon klassik asarlarida ishlab ko‘rgan yosh aktyorda ijodiy daraja shakllanadi. Masalan, dunyo dramaturgiyasining cho‘qqisi bo‘lgan Shekspir tragediyalarida qahramonni o‘ynagan aktyorda maqsadli ijodiy daraja paydo qiladi. Davrni va shu davr va millatga xos ruhni his qilish paydo bo‘ladi. Chunki bu asarlar aktyorga ijroda uslub bo‘lishini, janrni tushunishni, xarakter yaratishda individuallik topishni o‘rgatadi. Shuning uchun har bir aktyor hamisha bunday asarlarda rol ijro etishni orzu qiladi. Bu bilan o‘z ijodiy darajasini sinab

ko‘rishni, o‘z mahorat qirralarini kashf qilinishini istaydi. Umuman, shunday yuksak rollarga loyiq bo‘lishni maqsad qiladi.

Shu sababdan teatr aktyorlarini o‘qitishda jahon klassik asarlariga murojaat qilish ularning katta sahnalarda har qanday rolni ijro eta olishiga zamin yaratadi.

Ma‘lumki, yurtimizda aktyorlik san‘ati bo‘yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliygoh, san‘at va madaniyat instituti boshqa oliy uquv yurtlaridan farqli ravishda teatr san‘ati bo‘yicha rejissyor va aktyorlarni o‘qitadigan ijodiy yo‘nalishdagi maskan. Unda ko‘pgina malakali pedagog ijodkorlar yosh aktyorlarni tarbiyalab kelmoqda. Aktyorlarni o‘qitishda kurslar aro bosqichma bosqich tizim bo‘lib, dastavval kichik sahnaviy parchalardan, etyudlardan, milliy ruhdagi spektakllarga va jahon klassik asarlariga o‘tiladi. Sofokl, Yevriped kabi antik davr dramaturgiyasidan tortib, to Shekspir, Molyer, Gotssi, Galdoni kabi o‘rta asrlar va uyg‘onish davri klassitsizmi, Brext, Ostrovskiy, Chexov, Tolstoy, Gogol kabi realizm davri vakillari sahna asarlariga murojaat qilinishi bo‘lajak aktyorlar mahorat darajasining ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonlarida turli aktyorlik kurslarida sahnalashtirilgan “Olchazor”, “O‘lik jonlar”, “Medeya”, “Otello”, “Romeo va Julyetta”, “Gamlet”, “Kavkazning bo‘r doirasi” singari ko‘plab spektakllar talabalarning aktyorlik mahorati va ijodiy imkoniyatlarining yuzaga chiqishi, shuningdek sinovdan o‘tishiga keng maydon yaratgan. O‘quv jarayonidagi spektakllardayoq mutaxassislar e‘tiboriga tushish yosh aktyorlarga katta sahnalarga yo‘l ochilishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Jahon mumtoz asarlari professional teatr aktyorlari qirralarining ochilishida ham hamisha katta ahamiyat kasb etib kelgan. Birgina, yaqindagina O‘zbek Milliy akademik teatrida sahnalashtirilgan ingliz mumtoz dramaturglaridan biri Molyerning “Tartyuf” spektakli misolida ham ko‘rish mumkin. Ushbu spektakl yosh yoki tajribali ekanligidan qat’iy nazar ko‘pgina aktyorlarning kasbiy mahorat darajasini namoyon qildi. Ayniqsa, bosh

qahramon Tartyufni jonlantirgan aktyor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Tohir Saidov va Muyassar Berdiqulovalarning mahoratining yanada charxlanganligi namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga Gulnora Jumanazarova, Feruz Burxonov, Ixtiyor Atajonov, Nigina Anorboyeva kabi qator teatrning yosh aktyorlarining o‘z iqtidorlarini ko‘rsatishlari uchun imkoniyat bo‘ldi.

Bugungi kunda teatr san‘atida kuzatilayotgan muammolar haqida ko‘p gapirilyapti. Shu jumladan, aktyorlik san‘ati, ayniqsa, yosh teatr aktyorlarining mahorati masalasi sohaning og‘riqli nuqtalaridan biri sifatida ko‘tarilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, san‘at sohasida kadrlar tayyorlashda bugungi kunda uchrayotgan muammolardan kelib chiqqan holda vaqt sinovidan o‘tgan mavjud metodlarni yana ham mustamlash, aktyorlarni yangicha ijodiy ukitish usullarini joriy etish zarurati sezilyapti. Ayniqsa, nafaqat o‘quv jarayonlarida balki teatrlarning o‘zida ham jaxon mumtoz asarlarini ko‘proq sahnalashtirish aktyorlarning mahorat darajalarini yuqoriroq ushlab turishga jiddiy ko‘mak beradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

- 1. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili .X.Mahmudova /2014 y***

## GRIM SAN`ATINING TAKOMILLASHUVI

“Dramatik teatr va kino san`ati” kafedrası  
o`qituvchisi Robiya Rizayeva

### Annatatsiya

Grim bilan ishlashning o`ziga xos hususiyatlarini o`rganildi, sahnada badiiy obraz yaratishning zamonaviy tendensiyalarini amaliy jihatdan tahlil qilindi hamda ilmiy-amaliy tadqiq etildi, amaliy ko`rsatmalar ishlab chiqildi.

**Kalit so`zlar:** Kino, sahna, kadr, kollodiy, fosfor, grim, ichki va tashqi qon.

### Аннотация

Изучени особенности работы с гримом, проведен практический анализ и научно-практическое исследование современных тенденций создания художественного образа на сцене, разработани практические рекомендации.

**Ключевие слова:** кино, сцена, кадр, коллодий, фосфор, грим, внутренний и наружный кров.

### Annotation

The features of working with makeup were studied, practical analysis and scientific and practical research of modern trends in creating an artistic image on stage were carried out, practical recommendations were developed.

**Key words:** Film, pool, scene, shot, collodion, phosphorus, grim, internal and external blood.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida”gi PF-60-son farmoni<sup>12</sup> bilan tasdiqlangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosan mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san`at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg`or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san`at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda

Xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirish, ta`lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san`at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini

---

<sup>12</sup> O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida”gi PF-60-son farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

takomillashtirish Taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifasi bo'lib, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish orqali san'at va madaniyat sohasini tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda va sohaning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

Rol va obraz yaratishda grim san'atining tarixini nazariy tadqiq etildi; ijodiy ishlarda grimdan amaliy yordam beriladi, nazariy tomonlama maslahatlar beriladi, estradada rol va obraz yaratish jarayonida grim san'atining tarixiy hamda ilmiy-nazariy asoslaridan kelib chiqib, grim bilan ishlashning o'ziga xos hususiyatlari, amaliy ko'rsatmalar, badiiy obraz yaratishning grim san'ati misolida zamonaviy tendensiyalarini amaliy jihatlarini tashkil etadi.

Grim bilan ishlashning o'ziga xos hususiyatlarini o'rganildi, sahnada badiiy obraz yaratishning zamonaviy tendensiyalarini amaliy jihatdan tahlil qilindi hamda ilmiy-amaliy tadqiq etildi, amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda - teatr va kino san'atining ijodiy faoliyatida aktyorlarni obraz yaratishida grim san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyorlar grim san'atining imkoniyatlaridan to'la qonli ravishda foydalanmayotganliklari dolzarb masala hisoblanadi.

Grim san'ati, muhim soha bo'lib, san'at turlarining barcha jabhalarida, xalq ijodi marosimi, tantanalarida o'zining ta'sirli ifoda kuchiga ega. Teatrning asosi spektakl, spektaklning asosiy komponentlaridan biri bu - grim hisoblanadi.

Grim, teatr san'atida obraz yaratishda muhim rol o'ynaydi. Grim orqali ma'lum davrga xos bo'lgan xarakterni ochib berishda, sahnaviy ishonchni dalilroq ko'rsatishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Dastlabki davrlarda mohir aktyorlar, rejissyorlar va rassomlar shug'ullanishgan, sekin-asta grimchi ham o'z nomini kashf etdi.

Teatr san'atida spektaklni asosiy hal qiluvchi omili aktyordir. Ammo, aktyorni yaratayotgan obrazida o'rinli topilgan grimi orqali asar g'oyasi,

rejissyor maqsadi to'liq o'z yechimini topadi. Grim qanchalik yengil va sodda bo'lsa, aktyorning xatti-harakati uning sahnadagi harakatlarida yengillik bo'ladi. Qanchalik yorqin va ta'sirchan grim topilsa ijrochi uchun erkinlik va unga sahnada keng yo'l ochib beriladi.

Grimchi uchun spektaklni to'laqonli, badiiy yaxlit yaratilishi uchun mashaqqatli mehnat va har tomonlama bilimdon bo'lishini taqazo etadi. Chunki u davr manba'lariga murojaat qiladi. Ya'ni, pesani chuqur o'rganadi, o'sha davr turmush-tarzi, rolning tarixi, sharoiti va hokozolarni o'rganadi. So'ngra yig'ilgan ma'lumotlarni saralaydi, obrazning tashqi qiyofasini yaratadi. Oxirida ijrochini shu qiyofada gavdalantiradi.

Grimchi – teatrdagi rejissyor bilan hamkorlikda ish olib boradi. Kinoda esa rejissyorning yoniga operator ham qo'shiladi. Chunki, har bir personajni grimi, operator qo'ygan svet (nur)da o'z tabiiyligini yo'qotmasin.

Teatr tajribasidan, murabbiylik tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkin-kim sahnaviy mufassal grim birdaniga paydo bo'lmaydi. Asta sekinlik bilan repetisiyadan repetisiyaga qarab grim mukammallashib boradi. Bir holatdan boshqasiga o'tib, aktyorga obrazni to'loqonli ochishga erishishga, tomoshabinlarda obrazni mutoloq tushunib yetishishiga yordam beradigan asosiy vositalaridan biriga aylanib beradi. Vaqt o'tishi bilan rol chuqurlashib, o'sib boradi. Yangi topilmalar bilan grim takomillashib boradi. Qaysidir detallar yo'qolib, yangi, ta'sirchanroqlari paydo bo'ladi. Chunki, birinchi tomosha kuni – bu faqat spektaklning tug'ulgan kunidir. Hali u sahnaviy go'dakdir. Uni balog'atga yetkazish uchun, uni tarbiyalash va muhokamalash zarur bo'ladi. Uni, grimni umrboqiyiligini ta'minlash uchun, obrazni ichki dunyosini namoyish qilish uchun, tashqi qiyofa mukammalligi ustida (grim) tinmay izlanishga to'g'ri keladi. Ana shu jarayonda grimchi bevosita spektakl ijodkori bilan hamkorlikda ishlaydi. Bu ijodiy hamkorlikni ta'minlaydigan grimchi hisoblanadi.

Rol va obraz yaratishida grim san'atining ahamiyatini aniqlashdan iborat bo'lib, vazifalari quydagicha:

- grim san'atining tarixini nazariy tadqiq etish;
- estradada grim bilan ishlashning o'ziga xos hususiyatlarini o'rganish, amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqish;
- sahnada badiiy obraz yaratishning zamonaviy tendensiyalarini amaliy jihatdan tahlil qilish, ilmiy-amaliy tadqiq etish.

Ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

- grim san'atining tarixini nazariy tadqiq etildi;
- estradada grim bilan ishlashning o'ziga xos hususiyatlarini o'rganish, amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqildi;
- sahnada badiiy obraz yaratishning zamonaviy tendensiyalarini amaliy jihatdan tahlil qilish, ilmiy-amaliy tadqiq etildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. «Grim» darslik Feruza Jalilova
2. «Grima v kino» Volchanovskiy
3. Mahmudov J. sahna kompozitsiyasi
4. «Osnova ssenicheskogo iskusstva» Shkolnikov.
5. Shkola izobratilnogo isskustvo Vpuskax 10.

## **O‘ZBEK TEATR SAN’ATIDA MONOSPEKTAKLNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

Xurshid To‘xtayev  
“Dramatik teatr va kino aktyorligi”  
kafedrası o‘qituvchisi

San’atning ezgu vazifalaridan biri, eng yaxshi ijod namunalari orqali xalqimiz, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbiga ona vatanga, oilasi, do‘stlariga, mehr-muhabbat va sadoqat, tuyg‘ularini singdirishga xizmat qilishdan iborat.

Shu ma’noda, teatr san’ati ham dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan, mustaqil fikrli, ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalashni o‘z vazifasi deb biladi.

An’anaviy o‘zbek teatrlari va hozirgi monospektakllarning o‘zaro bog‘liqlik jihatlarini ko‘rib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

An’anaviy o‘zbek xalq teatri san’atida niqoblar yordamida bir aktyor ikki – uch kishi obrazida namoyon bo‘lgan. Uning tomoshalari asosan satirik yo‘nalishga ega edi. Ularda turli anjomlar orqali sahnadagi tabiiylikni ta’minlashga harakat qilingan. YA’ni sahnaga tabiiy ravishda so‘ri, gilam, ko‘rpa-to‘shak, yostiqlar, kitob qo‘yadigan taxta, lavh, tasbeh, qamchi, hasa singari tabiiy ashyolardan keng foydalanilgan. Bularning barchasi berilgan shart-sharoit muhitni tomoshabin ko‘z oldida namoyon bo‘lishiga xizmat qilgan. An’anaviy o‘zbek teatri repertuarlari musiqa va raqs san’ati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va ular sahna tomoshasi tarkibiga kirib ketgan. Tomoshalarda maydoning o‘ziga xos xususiyatiga, so‘z va tovush san’atiga, intonatsiyaga, o‘tkir so‘z o‘yinlari va hozirjavoblikka alohida e’tibor berish taqozo qilingan. Yuqoridagilar shundan dalolat beradiki, qadimgi sahna asarlarining o‘ynalish jarayonida mavjud bo‘lgan musiqa va raqs san’ati qadimgi o‘zbek teatrining estetik tamoyillaridan kelib chiqqan va sahna asarining g‘oyaviy yechimi va uning ta’sir kuchini oshirishda ma’lum darajada xizmat qilgan. Bu

xususiyatlarning ko'pchilik qismi bir aktyor teatri ya'ni monospektaklda ham ko'rinadi.

Spektakllarning zamonga mosligi ularning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri edi.

Bir aktyor teatri bugungi kunga kelib, an'anaviy o'zbek teatrining ayrim jihatlarinigina o'zlashtirdi. Hozirgi davrga kelib "bir aktyor teatrining" tarmoqlari kengaydi: badiiy so'z ijrochiligi san'ati, satirik monologlar ijrosi bilan – "razgovorniy" janri, parodiya, pantomima, baxshi – bir aktyor teatri, monospektal shular jumlasidandir.

Monospektakl bu - oliy uchuvchilik san'ati. Monospektakl yoki "bir aktyor teatri" – bu shunday jarayonki, butun pyesa mobaynida barcha qahramonlar sahnada faqatgina bitta aktyor tomonidan ijro etiladi. Bunday spektaklni o'ynash uchun faqat o'zining mahorati ustida jadal ishlagan, o'zida dadillik sezgan va hozirgi kunda o'zi nimadir deya oladigan va ko'rsata oladigan aktyor ijro eta olishi mumkin. Bunday jarayonda aktyor zimmasiga katta mas'uliyat tushadi va ijro davomida o'zidan boshqa hech kimdan umid kutmaydi.

Hayotning o'zi – bu monospektakl. Ma'lum vaziyatda xuddi hayotdagidek qahramonning yonida va uning o'rnida yashamoq, umr kechirmoq shart bo'ladi. Monospektakl uchun alohida pyesa yozilishi shart emas. Yuqorida tahlil qilingan monospektakllarning deyarli barchasi klassik asarlar asosida sahnalashtirilgan. Zamon o'zgarishi bilan inson dunyoqarashi ham o'zgaradi. Lekin o'zida xalqning dardini, orzu-o'ylarini ifodalaydigan asarlarning umri uzoq bo'ladi va bu asarlar yangicha talqinida qayta-qayta sahna yuzini ko'raveradi. Klassik asarlardan bugunni ham, ertangi kun mavzusini ham qidirsangiz bo'laveradi. Chunki kalassika zamon bilan hisoblashmaydi, unda har bir davr mavzularining mushtarakligi mujassamdir. Har bir zamon va makon uchun xos bo'lgan umuminsoniy g'oyalarni ilgari suruvchi bunday asarlar hoh monumental

spektakl bo'lsin, hoh monospektakl bo'lsin tomoshabinga o'z gapini ya'ni g'oyasini ayta oladi.

O'zbek teatr san'atida monospektakllar endigina san'at olamiga qadam qo'ygan yosh aktyor va rejissyorlar tomonidan talqin qilinmoqda. Bu albatta quvonarli hol. Chunki bu janr rejissyor va aktyorni o'zini namoyon qilishida, o'z ustida tinmay izlanishida, tajribaga ega bo'lishida juda katta imkoniyat yaratib beradi.

Monospektakl yo'nalishida ijod qilayotgan aktyorlarni bemalol, katta iste'dod egasi deb aytish mumkin. O'zlari ham muallif, ham rejissyor, ham aktyor sifatida monospektakl sahnalashtirish imkoniyatiga ega san'atkorlardir. Ularning bu borada erishgan yutuqlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Eng quvonarlisi shundaki, teatr san'atimizdagi "bir aktyor teatrining" tarmog'i hisoblangan monospektakl yo'nalishi rivojlanish bosqichiga ko'tarilmoqda.

Teatr san'atining ertangi kuni va uning rivoji rejissyor talanti va qobiliyatiga ham bog'liq. Rejissyor teatrning g'oyaviy-badiiy yo'nalishini nazorat qiladi, spektaklning badiiy yaxlitligiga, umumiy ruhiga javobgar bo'ladi. Demak rejissyorlarimiz izlansa, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashsa, va novatorlik ishlarini amalga oshira olishsagina teatr san'ati gullab yashnaydi.

Monospektakllarga hozirgi kunda deyarli hech bir rejissyor qo'l urmayapti. Rejissyorlar masalasi bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Eng muhimi yosh rejissyorlar tinmay izlanib, mustaqil ravishda bilimlarini mustahkamlab borishlari shart. "Rejissyorlikni o'rgatish mumkin emas, uni o'rganish mumkin" – degan edi K.S.Stanislavskiy.

Yana bir narsani ta'kidlab o'tishni joiz deb topdik. Ikki yilda bir bor o'tkazilayotgan "Debyut" yosh rejissyorlar tanlovi ham yosh rejissyor va aktyorlarni kashf qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tanlovga qatnashish hohishini bildirayotgan yosh rejissyorlar soni yildan yilga ortib

bormoqda. Bu esa kelajakda teatr san'atining rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun monospektallarining rivojlanish vaqti keldi. Ularni rivojlantirib yangi bosqichga ko'tarish yoshlarning va ularga ta'lim – tarbiya berayotgan ustozlarning ko'magi va sayi harakatlari orqali amalga oshadi.

**DOSTONLAR ASOSIDA MUSIQIY SPEKTAKL ISHLASHDA  
ARIYANING TUG‘ILISHI**

O‘zDSMI “Musiqali teatr san’ati”  
kafedrası dotsenti R.J.Usnatov

**РОЖДЕНИЕ АРИИ В ПРОИЗВОДСТВЕ МУЗИКАЛЬНОГО  
СПЕКТАКЛЯ ПО ЭПОСУ**

Государственного института искусств  
культуры Узбекистана доцент Р.Ж.Уснатов

**THE BIRTH OF AN ARIA IN THE WORKING OF A MUSICAL  
PERFORMANCE BASED ON THE EPIC**

UzSACI "Musical theater art"  
department associate professor

**АннотациY.** Ustoz pedagoglarimiz tomonidan diplom oldi va diplom spektakllarini tanlashda albatta asarning pishiqligi, musiqaning milliyligiga, klassik asarlarga aloxida e’tibor qaratadi. Talabalarning shakillanishida klassik asarlardan, milliy dostonlardan foydalanib sahnalashtirilgan spektakllar o‘z samarasini beradi va buni ustozlarimizdan ko‘p bora eshitganmiz. Shu o‘rinda milliy ro‘xda yozilgan “Alpomishning qaytishi” asari ustida ish olib bordik va ish jarayonida yuzaga kelgan ba’zi fikrlar borasida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Musiqali aktyor, rejissyor, dirijyor, partitura, pedagog-rejissyor, nota, sahnaviy hatti-harakat, voqiylik, dramaturg, baletmeyster, pedagog, muallif, bastakor, repetitsiy.

**Аннотатсий.** Преподаватель получил диплом от наших педагогов и при выборе дипломных спектаклей обращает особое внимание на зрелост произведения, национальную принадлежност музыки и классических произведений. Драмы на основе классических произведений и национального эпоса эффективни в формировании учащихся, и ми неоднократно слышали это от наших преподавательей. Здес ми работали над произведением «Возвращение Алпомиша», написанним на национальном языке, и расскажем о некоторых идеях, возникших в ходе работы.

**Ключевие слова:** Музыкальный актёр, режиссёр, дирижёр, партитура, режиссёр-педагог, ноти, сценические движения, событийност, драматург, балетмейстер, педагог, автор, композитор, репетитсий.

**Annotation.** The teacher received a diploma from our pedagogues, and when choosing his diploma performances, he pays particular attention to the maturity of the work, the nationality of the music, and classical works. Dramas based on classical works and national epics are effective in the formation of students, and we have heard this from our teachers many times. Here, we worked on the work "The Return of Alpomish", written in the national language, and we will talk about some ideas that arose during the work.

**Keyword:** Musical actor, director, conductor, partitura, teacher-director, notes, stage line-action, reality, dramaturg, ballet master, author, composer, repetition.

“Musiqali drama san’atning gultoji” degan birgina fikr orqali musiqali teatr san’atining qay darajada yuksak, qiyin va murakkab san’at ekanligini bilib olish qiyin emas. O‘zbek milliy musiqali drama san’atining rivojlanish bosqichlariga nazar soladigan bo‘lsak yuqorida keltirilgan fikrning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlovchi ko‘plab omillarni ko‘rishimiz mumkin. Mazkur san’at turi o‘zining rang-barangligi, unda kechadigan voqealarning musiqaga yo‘g‘irilganligi, inson qalb qarida berkinib yotgan nozik his-tuyg‘ularining so‘z bilan bayon qilib bo‘lmaydigan qismini kuylash orqali nomoyon etish xususiyati bilan axamiyatlidir. Musiqiy spektakllar inson yuragini larzaga soluvchi, ong va shuurini jumbushga keltiruvchi, kuchli emotsional xolatlarda ijro etiladigan ariya, duet, trio, kvartet va xorlar orqali tomoshabinlar ko‘nglidan chuqur joy egallagan.

Musiqali teatr aktyorlaridan musiqiy qalb va professional kuylash mahoratini talab etib, bularsiz uning mohiyati yo‘qqa chiqadi. Drama aktyorligidan farqli o‘laroq musiqali teatr aktyorligida yuk og‘irroq. Dramatik teatrda aktyorlar ijrosi vaqt o‘lchamlariga bo‘ysundirilmagan. Musiqali teatrda esa aktyorlarning aynan kuchli psixofizik xatti-harakatda bo‘lishini talab etadigan sahnalar musiqiy o‘lchamlar bilan o‘lchab qo‘yilgan. Bu esa mazkur sahnalarda aktyorlar o‘z organikasidan kelib chiqib istalgancha hatti-harakat qilishi, hissiyotga berilishi va improvizatsion qobilyatini ishga solishini chegaralab qo‘yadi. Birgina mana shu murakkab jarayonning o‘zi musuqali tetr aktyorlaridan katta mahoratni talab etadi.

Musiqali teatr san’atida ariyaning tug‘ilishi mavzusiga diqqatimizni qaratar ekanmiz, avval ariya o‘zi nima?, degan savolga oydinlik kiritib olishimiz kerak. Ariya-dramatik voqea rivojiga tasir ko‘rsatuvchi uning o‘shiga yoki aksincha

pasayishiga xizmat qiluvchi, qahramonning tuyg‘u va kechinmalari holatiga muvofiq quriladigan dramatik asardagi monologdan yuqoriroq darajadagi kuyga solingan monolog desak adashmagan bo‘lamiz. Musiqali dramada musiqa va so‘z bir-birini to‘ldirib asar mazmunini ochishga xizmat qilishi lozim.

Ariya tug‘ilishi asar voqeasidan kelib chiqib paydo bo‘ladi. Xozirgi kunda aksariyat xolda dramaturg yozgan pesa bastakor tomonidan o‘qib chiqilib, asar voqeasida ariya talab qiladigan sahnalarga mazmunan mos tushadigan, dramaturg tomonidan yozilgan matnni notaga, kuyga solinadi. Mening fikrimcha bunday qilinganda asar mazmuni undagi voqealar tizimi sahnadagi kabi keng ochilmasligi mumkin. Chunki dramaturg yozgan har bir voqea sahna sharoitiga tushmasligi mumkin, shuning uchun avval asarni drama shaklida sahnaga ko‘chirib uni bastakorga ko‘rsatib u bilan birgalikda asar mazmunidan kelib chiqib ariya talab qiladigan sahnalarni aniqlashtirish lozim. Ana undan so‘ng asarga ariya- duetlar yozishga kirishilsa asar va undagi ariy -duetlar va musiqalar dramatik voqelikga uyg‘unlashadi va asarning ta’sir kuchi yanada ortadi deb o‘ylayman.

Milliy musiqali drama janri paydo bolib o‘zining yuksaklik darajasiga yetgan davrlarda asardagi ariya va duetlar va musiqiy xorlar soni 18-20 ta va undan ham ortiqni tashkil etgan. Bu esa o‘z navbatida aktyordan juda katta mahorat va chidamli ovozni talab qilgan. Xozirgi kunda ariya duetlar soni ancha tushib ketdi. Bunga sabab ijodiy hamkorlik yo‘qligida. Qay ma’noda ijodiy hamkorlik? Rejissyor, dramaturg, bastakor va aktyorning hamkorligi. Agar dramaturg yozgan asarni sahnada ishlash jarayonida, ariya talab qiladigan sahnalariga dramaturg o‘zi matn yozsa, bastakor uni o‘sha vaqtning o‘zida aktyorning ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan xolda kuyga solsa, rejissyor bularning barchasini umumlashtirgan xolda sahnalashtirsa bu muammolar anchayin o‘z yechimini topgan bo‘lar edi.

Biz O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” pesasi ustida ishlash jarayonida ariya duetlar kamligini xisobga olib, asardagi ariya talab qiladigan sahnalarni ko‘ra boshladik va Alpomishning Qultoy qiyofasida do‘sti Qorajon bilan uchrashish sahnasini ariya bilan yakunlamoqchi bo‘ldik. Chunki voqealar rivoji shuni talab qilar edi. Biz bunda san’at arbobi, asar bastakori Baxrulla

Lutfullayevning boshqa musiqalaridan foydalanib, dramaturg o'zi yozgan "Baxshiyona" she'riy to'plamidan asar voqeasiga mazmunan mos she'rlaridan foydalanib, yangi ariyani kiritdik.

Men pesaning ana shu qismini tahlilga tortmoqchiman.

Qalmoqqa ketib yetti yil zindonda yotib va zindondan chiqib qalmoqni zolim Toychaxon zulmidan ozod qilib yurtiga qaytgan Alpomish birinchi bo'lib Qultoyga duch keladi.

Qultoy bo'lgan barcha voqealarni: Ota-onasi hizmatkor qilinganini, do'sti, va amaldorlar Ultontozga sotilganini, Ultontoz Oybarchinga uylanaman deb to'y boshlab yuborganini aytib beradi. Bulardan xabardor bo'lgan Alpomish "birovni chorig'iga birov toyib o'lib ketmasin" deb atrofida gilarni sinamoqchi bo'ladi.

Qultoy bilan kiyimlarini almashtirib olayotgan payt ot dupuri eshitiladi qarasa do'sti Qorajon keladi. Qorajon kelgach alpomish to'y qilayotganini va Qultoyni to'yga borishini aytadi. Bunga javoban Alpomishdan "Alpomish Qalmoqda, zindonda yotibdi. Ultontoz to'y qilayotganidan xabarim bor. Barchin tegmayman deb sovchilarni qaytarib yotganidan ham xabarim bor", javobini olgan Qorajon g'azab otiga minib, uni gapirmaslikga undaydi. Lekin Alpomish uni qo'rqq deb haqorat qilgach, Qorajon qilich yalang'ochlab Alpomishga o'qталadi. Qorajon Alpomishning boshi uzra qilichini ko'taradi-da, shashti pasayib, tushuradi va bir ichki o'rtanish bilan majburlikdan bu ishni qilganini, yurtiga ketay desa akalaridan kechganligini dard va iztirob bilan so'zlab beradi. Shu payt Xaqqul baxshi keladi.

Xaqqul: Qultoy bobo olisdan qorangni ko'rib burildim. Yaxshi yuribsanni bobo?

Alpomish: Xaqqul! xaqning quli! Xaqning shoiri! Boysin-Qo'ng'irotning peshonasiga xudo bergan baxshi! Sog'-omon bormisan?

Xaqqul: Yasavullarning zo'ri ham shu yerdaku! Qorajon yasavul, hamma to'yda qimizzxo'rliq, go'shtxo'rlik qilayapti, siz bu yerda yuribsiz?

Qorajon: Men bilan ishing bo'lmasin. O'zing nima qilib yuribsan? Xaliyam... O'sha dostonni aytayapsanmi?

Xaqqul: Aytayapman!

Qorajon: Nima deb aytayapsan?

Xaqqul: O‘zim bilganday aytayapman.

Qorajon: O‘zing bilgandan qolsang, yaxshi bo‘lar edi.

Xaqqul: Men xaqni aytaman, Ultonqulning yasavuli, xaqni aytaman! Senga ham aytaymi? (tanasiga sig‘may birdan qo‘shiq boshlaydi)

Yasavullik paytingda kulsang bolar Qorajon!

Gul shoxiga qarg‘aday qo‘nsang bo‘lar Qorajon!

Xudo xaliyam joningni olmadimi Qorajon!

Qullarga qul bo‘lguncha o‘lsang bo‘lar Qorajon.

Alpomish uni to‘xtatadi Xaqquldagi ichki etiqod vatanga, Alpomishga bo‘lgan sadoqat va Qorajonga bo‘lgan nafrat to‘qnashishi sababli baxshida qo‘shiq, yani ariya tug‘iladi.

Xaqqul ketgach Qorajon ham o‘ziga kelib Alpomishga: “qimiz berib meni aljiratding. Bu gaplarni birovdan eshitsam kallangni olaman” deb chiqib ketadi. Do‘stini va xalqini shu axvolga tushganini ko‘rgan Alpomish o‘ziga sig‘may kuylaydi:

Do‘st do‘st uchun jondan kechmasa.

Do‘st do‘st bilan bormasa dorga.

Do‘st do‘st uchun og‘u ichmasa,

Quyosh qaro tortmasmu ordan.

Poyimizda shu bir parcha yer.

Bog‘la meni yov qo‘liga ber.

O‘lsam kuyar faqat volidam,

Qarilikda yolg‘izlik yomon.

Do‘st qo‘limni bog‘lagin maxkam

To‘rt tarafda g‘anim lashkari.

Meni bog‘la topshir dushmanga.

Men o‘layin sen qolgin omon.

Men bu maqolam orqali hozigi kun musiqali dramasi uchun ikki-uchta ariya ham yetarli degan fikr noto‘gri ekanligini va aksincha hozirgi kunda musiqali asar

yaratayotgan har bir dramaturg, rejissyor va bastakordan yuqorida aytib o‘tilgan an’ana va janr talablarini yaxshi bilishi va davom ettirishi lozim ekanligini aytmoqchiman. Mana shu an’ana va janr talablarini bilib, ularga amal qilib ijod qilgan ijodkorlarga bugungi kunga va kelajakka manzur bo‘ladigan asarlar yarata oladi. Mana shunday milliy dostonlarimiz orqali bo‘lajak yosh aktyorlarni tarbiyalash albatta o‘z samarasini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G.X.Muxamedova. «Xonandaning aktyorlik mahorati» 2009 y.
- 2.K.S.Stanislavskiy Tanlangan asarlar. 2-jild,M.,1954 y.
- 3.K.S.Stanislavskiy. M., «Iskusstvo», 2 t. 1953 g.

## YAXLIT SAHNAVIVY ASAR SAHNALASHTIRISH ISHLARI

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Musiqali teatr san'ati" kafedrasini mudiri,  
dotsent Sherzod Muhammadiyev*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yaxlit sahnaviy asar sahnalashtirishda etyud tug'ilishi, janrning ahamiyati, tanlangan janrning aktyor ijrosiga ta'siri, ijroning janrdagi xususiyatlari hamda etyudda pauzalar mantiqiy, psixologik, lyuftpauzani (havo pauzasi) ishtiroki haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ibora mazmuni, grammatika, fikr, fe'l-atvor, lyuftpauza-eng qisqa tanaffuz, urg'u, talaffuz, ishonch, maqsad-vazifa, matn, rol.

**Annotatsiya:** v dannoy statye rassmatrivayetsya zarojdeniye etyuda v postanovke selostnogo ssenicheskogo proizvedeniya, znachenije janra, vliyaniye vibrannogo janra na igru aktera, osobennosti igri v janre, a takje logicheskije, psixologicheskije i lyuftpauzani (vozdušnaya pauza) uchastiye paz v etyude.

**Klyucheviye slova:** sodержaniye predlojeniya, grammatika, misl, xarakter, lyuftpauza-kratchayshaya pauza, udareniye, proiznosheniye, uverennost, sel-zadacha, tekst, rol.

**Abstract:** this article discusses the birth of the etude in staging a complete stage work, the importance of the genre, the influence of the chosen genre on the actor's performance, the features of the performance in the genre, and the logical, psychological, and lyuftpauzani (air pause) participation of pauses in the etude.

**Key words:** sentence content, grammar, thought, character, lyuftpause-shortest pause, emphasis, pronunciation, confidence, purpose-task, text, role.

Asosiy kamchiliklar-jismoniy kuchanish, oshirib-yuborish, aktyorlik g'ayratlanish va boshqalar. Bular nimadan kelib chiqadi? Aktyorlar, qalbda yashayotgan his-tuyg'ularni ifodalay oladigan, nutqqa ega emasligidan.

Avvalambor aytilayotgan so'zlarda tartibni o'rnatish, ularni guruhlarga to'g'ri birlashtirish kerak, buni bajarish uchun esa, tanaffuzlar yoki aksincha aytganda mantiqiy pauzalar kerak. Mantiqiy pauzalar so'zlarni guruhlarga birlashtiradi, guruhlarni esa bir-biridan ajratadi.

Stanislavskiy mashq sifatida, xohlagan o'qiladigan kitobda nutqiy taktlarni belgilashni tavsiya qilgan. Bu rol ustida ishlashda zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi. Nutqiy taktlar bo'yicha bo'lish va o'qish, aktyorni, ibora

mazmunini katta chuqurlik bilan analiz qilishga, sahnada aytilayotgan soʻzni maʼnosini oʻylashga majbur qiladi, aktyor nutqini shakl boʻyicha xushbichim va aytilayotganda tushunarli qiladi.

Buni egallash uchun esa, grammatikani bilish kerak, u, gaplarda soʻzlarni bogʻlanish qoidalarini aniqlaydi va shu orqali tilga xushbichim, fikrli feʼl-atvor beradi.

Gapni toʻgʻri grammatik tuzilishini asos qilib olgach, aktyor, oʻzi uchun asosiy fikrni aniqlashtiradi va butun bir gapni nutqiy taktlarga boʻladi.

Pauzalar haqida gapirayotib, Konstantin Sergeevich uch xil pauzalarni tasvirlaydi; mantiqiy, psixologik va lyuftpauzani (havo pauzasi).

Lyuftpauza-eng qisqa tanaffuz, u nafas olish uchun zarur, ammo u koʻpincha alohida soʻzlarni ajratib chiqarish uchun ham xizmat qiladi. Baʼzan lyuftpauza tanaffuz emas, balki nutq tempini bir oz ushlanib turishi hisoblanadi.

2. Etyudda pauzalar mantiqiy, psixologik, lyuftpauzani (havo pauzasi) ishtiroki. Mantiqiy pauza, matnda yozilgan fikrni chiqarishga imkon beradi. Psixologik pauza esa shu fikrga hayot beradi, yaʼni uning yordami bilan aktyor podtekstini berishga harakat qiladi. Agar mantiqiy pauzasiz nutq savodsiz boʻlsa, unda psixologik pauzasiz u hayotga ega boʻlmaydi.

Nutqda urgʻular. Notoʻgʻri qoʻyilgan urgʻu, iborani butun maʼnosini oʻzgartirib yuboradi, chunki urgʻu, iboradagi, taktdagi asosiy soʻzni belgilashi kerak. Ajratilayotgan asosiy soʻzda iborani qalbi, podtekst oʻzini asosiy daqiqalari yashiringan.

Asosiy soʻzlarni aniq-ravshan ajratish zarurligini tushunish kerak, faqatgina umumiy maʼno uchun kerak boʻlgan soʻzlarni bekitish uchun esa, shoshmagan nutqqa, boʻyoqsiz talaffuzga, urgʻularni mukammal soniga, chidam va ishonchga erishish kerak-shundagina nutq zarur boʻlgan aniqlik va yengillikni hosil qiladi. Shunday juda murakkab gaplar boʻladiki, ularda asosiy muhim soʻzlarni ajratishga toʻgʻri keladi. Hamma soʻzlar ham bir xilda muhim boʻlaolmaydi. Ularni maʼnosiga qarab, koʻproq yoki kamroq muximligiga

ajratishga to'g'ri keladi. Urg'ularni shunday qo'yib chiqish kerakki, har xil urg'ularni-kuchli, o'rtacha va kuchsiz kabilarni to'plami paydo bo'lishi kerak.

Bizda nutqda shunday hodisa mavjud. Ko'proq muhim bo'lgan so'z, hammasidan yorqinroq ajratib chiqariladi va birinchi tovushli planga chiqariladi. Urg'ularni hamma bo'yoqlariga katta ahamiyat bergan holda, u nafaqat urg'ularni kuchi, balki ularni sifati haqida ham gapiriladi.

Mana shu hamma ajratilayotgan va ajratilmayotgan so'zlar o'rtasida o'zaro munosabatni, kuchni gradatsiyasini, urg'uni sifati topish lozim va ulardan iboraga harakat va hayotni beruvchi tovushli rejalar yaratish kerak.

Sahna nutqi-katta mexnatni talab qiluvchi san'at turi. "Nutq texnikasi sirlari" puxta o'rganish kerak. Faqatgina har kungi, doimiy mehnat, aktyorni, nutq qonunlarini shunday darajada egallashga olib kelishi mumkinki, u uchun, mana shu qonunlarga rioya qilmaslikka iloj qolmaydi. Muallif tomonidan yozilgan so'zlar, agar ular ijrochi tomonidan, uning ichki kechinmalari bilan isitilmagan bo'lsa, ular o'likdir.

Har bir aktyor yodda tutishi kerak, ijod paytida so'zlar-shoirdan, podtekst esa-aktyordan, agar buni aksi bo'lganida edi, tomoshabin teatrga aktyorlarni ko'rishga intilmagan bo'lardi, balki uyida o'tirib, p'esani o'qib chiqishni tanlar edi. Aktyor p'esani matniga o'z his-tuyg'ularini musiqasini yarata olishi va mana shu his-tuyg'ular musiqasini rolning so'zlari bilan kuylashni o'rganishi kerak. Qachon biz jonli qalb musiqasini eshitsakkina, faqat shundagina biz matnni go'zalligini ham, u o'zida nimani yashirayotganini ham to'la o'lchovda haqqoniy baho beramiz.

So'z – inson fikrining ifoda vositasi. Usiz kishi o'z qarashi, fikrini yon-atrofdagilarga bildirishi qiyin kechadi. Butun maqsad-vazifasi inson hayotini go'zal tarzda tasvirlashga qaratilgan aktyor ijodida ham so'zning o'rni beqiyos. So'zning bahosi, qadri, ahamiyatini to'la anglatish, his qildirish maqsadida talaba-aktyorlarni birinchi bosqichda so'zning zalvori bilan zimmalaridagi ma'suliyatni yana ham og'irlashtirmaslik lozim. Birinchi bosqichda o'tilgan barcha ijodiy texnik mashqlar talaba ijodiy tabiatining

organikligini, tabiiyligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mazkur mashqlar bir vaqtning o'zida sahnada so'zning ahamiyatini tushunishga, so'zdan to'g'ri foydalana olishga va so'zlashuv munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yishga o'rgatuvchi nazariy bilim va amaliy mashqlar uchun ma'lum ma'noda poydevor vazifasini ham o'taydi.

So'zning ahamiyatini, qadrini barcha ijodkor, ayniqsa, adabiyot, qalam axllari juda yaxshi tushunadilar. Yuqorida aktyor ijodining asosiy qurollaridan biri – xatti-harakat dedik. Sahnada xatti-harakatni to'ldiruvchi partnyor bilan munosabat o'rnatishdagi muhim vosita so'z hisoblanadi.

Real hayotda insonlar bir-biri bilan so'z orqali muloqotga kirishadilar. Kishilar faqat shunchaki so'zlashish uchun emas, balki biror-bir maqsadni ko'zlab muloqot qiladilar. Bunda bir-biri bilan eng keraksiz narsalarni gaplashib o'tirgan insonlar ham biror-bir maqsad, vaqtni o'tkazish, zerikmaslik kabi niyatlarda bir-birlari bilan so'zlashadilar. Hayotda so'z - inson biron xatti-harakatni amalga oshirish uchun dastak vazifasini o'taydi.

Teatrda nutqning vazifasi hayotdagidan birmuncha farq qiladi. Aktyorlarning ma'lum xatti-harakatni amalga oshirish maqsadida nutqdan foydalanish jarayoni murakkabroq hisoblanadi. Boisi, teatrdagi "teatrlilik" so'zlashuv munosabatining hayotdagidek to'g'ridan-to'g'ri tabiiy tashkil topishiga to'sqinlik qiladi. Buning natijasida ko'pchilik aktyorlar nutq so'zlash uchungina nutqdan foydalanadilar. Ular o'z zimmlariga yuklatilgan vazifani chalkashtirgan holda so'z yordamida xatti-harakat qilish lozimligini unutadilar. Sahnada nutqi jismoniy harakat uchun ko'makdosh bo'lishi kerak. Aktyor uchun so'z obraz timsolida o'z maqsadiga yetish yo'lidagi ko'makchi vosita hisoblanadi.

Sahna nutqi o'zida xatti-harakatga ega ekanligi bilan juda boy mazmunni mujassam etgan. Uning ma'no, mazmun va ohangini aktyor keng qamrovli o'rganishi va turli ta'sir etish nuqtalari - ong, tasavvur, hissiyot doirasiga yo'naltirishni uzluksiz ravishda mashq qilishi talab etiladi. Aktyor o'z roli so'zlarini irod qilar ekan, partnyorining aynan qaysi jihatiga, ya'ni ongi,

tasavvuri va yohud hissiyotidan qaysi biriga ta'sir etishni maqsad qilganligini aniqlab olingach aktyor o'z nutqining mantiqli, ishonchli va ta'sirchan chiqishi uchun intilishi kerak. Buning uchun esa rol matnini aniqlab, chuqur o'rganishi, uni qismlarga bo'lib, har bir qism ma'no-maqsadini va nihoyat butun bir matnning ma'no-maqsad, g'oyasini oydinlashtirib olishi kerak.

Aktyor sahnada partnyoriga nisbatan o'tkazuvchi ta'siri maqsadini aniq bilsagina so'zlar xavoga uchmaydi, balki ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda ta'sirli ifodalanadi. Bunday ta'sirli, mantiqli, maqsadli ko'rinish olgan nutq o'z navbatida aktyor temperamenti, xissiyot ilhomini uyg'otadi. Agar mazkur xislatlar aktyorda avvaldan uyg'ongan bo'lsa ularning yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ushbu ijod ilhomi va xislatlari proporsional ravishda so'zning yanada ematsional ifodalanishiga zamin yaratadi.

Albatta, sahnada so'zning ahamiyatini ko'plab yosh aktyorlar anglab yetishlari qiyin kechadi. Bundan tashqari sahnaning murakkab qonun va qiyinchiliklari ham mavjudki, ular oldida hatto eng ulug', tajribali aktyorlar ham ba'zida ojiz qoladilar. Bulardan biri – teatrdagi “teatrlilik” hisoblanadi. Aktyor tomonidan birinchi bor irod etilgan yoki tinglangan nutqning ta'siri va aktyorning unga munosabati hayoti, organik tarzda ketishi mumkin. Repititsiya va qayta namoyish etilgan spektakllar jarayonida takrorlanuvchi nutqni go'yo birinchi bor so'zlayotgan yoxud eshitayotgandek bo'lib samimiy ifoda etish – bu chinakkam aktyorlik san'ati hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Stanislavkiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T.3.-M.: Isskustvo. 1965.
2. Tursunboyev S. Teatr tarixi. -T.: O'qituvchi. 2007.

# MUSIQALI TEATR AKTYORLARINI TARBIYALASHNING ILK BOSQICHLARI

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti "Musiqali teatr san'ati" kafedrası  
o'qituvchisi Eldor Xushvaqtov*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqali teatr aktyori shuning tarbiyasida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, bugungi kun ziyolilaridan sanalmish bo'lajak san'atkorlar tarbiyasiga nafaqat pedagogik nuqtai nazardan, barobarida musiqali teatr aktyorining eng asosiy ish quroli rivojlantirishga bo'lgan ovoz imkoniyatlarini asrash va qaratilgan tibbiy madaniyatga ham e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kuylovchi aktyor, musiqa, ovoz gigiyenasi, foniator, bodomsimon bezlar, soglom tish, anatomiya, tovush madaniyati, tibbiy madaniyat.

**Annotatsiya:** V dannoy statye podnimayutsya voprosi podgotovki rejissyorov v obrazovatelnom protsesse. V statye govoritsya, chto neobxodimo prinimat molodix lyudey, imeyushix opit i sposobnix rukovodit, v vstupitelnox ekzamenox. Yest i drugiye predlojeniya po sovershenstvovaniyu uchebnogo protsessa pri podgotovke direktorov.

**Klyucheviye slova:** teatr, rejissura, performans, lichnost, resheniye, ideya, vnimaniye, ideologiya, duxovnost, obrazovaniye, iskusstvo, kultura.

**Annotation:** This article focuses on the education of musical theater actors, the education of future artists, not only from a pedagogical point of view, but also the medical culture aimed at preserving and developing the vocal abilities of the musical theater actor, which is the main tool of work.

**Keywords:** singing actor, music, sound hygiene, phoniator, almond glands, healthy teeth, anatomy, sound culture, medical culture.

Musikali teatr aktyorini tarbiyalash jarayonida ularga aktyorlik maxoratining poydevorini kuyish uslubi xuddi dramatik teatr aktyorini tarbiyalash singari bir xil kechadi. Ammo, musikali teatr aktyorligi mahoratidan saboq beruvchi pedagog zimmasiga yana boshka bir kancha vazifalar yuklanadi. Bularga talabanning musikiy ritmik qobiliyatini mukammal darajada rivojlantirish, musikiy xatti-harakat kilishga o'rgatish, ariya va duetlar ijrosida kuylash emas, xatti-harakat kilish kabi musiqiy teatr talablarini

bajarishga o'rgatish singari vazifalar kiradi. Lekin, musikiy teatr san'ati yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga sabok beruvchi pedagogdan sohaga xos bo'lgan yana bir jihatga e'tibor karatish talab etiladi. YA'ni, kuylovchi ovozni turli noxushliklardan asrash, tibbiy gigiyenaga talaba diqqatini ko'prok jalb etish mas'uliyati. Yetuk salohiyatli, intellektual rivojlangan shaxs - ijodkor tarbiyasida pedagogning roli va mas'uliyati haqida fikr yuritishdan oldin bir savolga javob topishga urinib ko'raylik. Italiyalik rejissyor Djorjo Streler bu savolni shunday ko'yadi va o'zi javob berishga xarakat qilib deydi: "Teatr san'atining ilk pillapoyasida bo'lajak aktyorni tarbiyalash xakida izchil, tabiiy ketma-ketlikni saklagan holda biror ko'llanma yoki kitob yozish mumkinmi? Balki mumkindir, lekin bu juda kiyin va ogir jarayon" (5.,5 b.).

Darhaqiqat, yuqorida aytganimizdek, bu yorug' olamda kancha odam bo'lsa hammasining xarakteri o'zgacha, o'ziga xos, biri boshkasiga O'xshamaydi. Shu jumladan, talabalar ham bir-biridan fark kiladi. Bu jihat xar bir talabaga individual yondashuvni taqozo etadi. Ana shu individual yondashuvlarni misol tariqasida qogozga tushirish, O'kuv jarayonidagi ba'zi lavxalarni xotirlash, ijodiy topilmalarni muxrlash, ularni iloji boricha yaxlit bir tizimga solishga urinish teatr san'ati hakidagi ilmiy salohiyatni mutassil oshib borishiga turtki berishi mumkin. Bu jarayonda, ya'ni talabaning xarakteridan, bilim saviyasidan kelib chikib ijodiy muloqotga kirishish, uning o'zligini topib olishida ko'maklashish, uni tugri yo'naltirishda yillar davomida orttirilgan pedagogik tajriba katta ahamiyatga ega.

"Ijod - bu ko'ngilning xohishi, lahzada kechadigan jarayon bulib, albatta irodaning g'alabasi bilan amalga oshadi. U har kuni yangilanib, sayqallanib turadi. Agar biz bir necha yil oldin aytgan fikrlarimizni aynan takrorlash bilan chegaralanib kolsak, unga bir miskol bo'lsa ham yangilik kiritib turmasak, demak bir joyda kotib kolgan bo'lamiz. O'sish, rivojlanish, oldinga intilish bo'lmaydi..."[6.]

Aslida haqiqiy ijod chaqmoq kabi yark etib namoyon bo'ladi. Uning kanday paydo bo'lganini, atrofdagilarga kanday ta'sir etganini, etni qanday junbushga keltirganini muhrlash juda kiyin. Talaba bilan ishlayotgan o'qituvchiga esa ana shu shirin lahzalarni his etish baxti muyassar bo'ladi. Xuddi ilk kadamni kuygan farzandining harakatidan zavqlangan ota-ona kabi. Aktyorlik mahoratidan saboq beruvchi pedagog ham shogirdining yilt etgan yutug'idan, hayotiy haqiqatni sahnaviy haqiqatga, sahnaviy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantira olish, ijod kila olish kobilyatidan zavklana olishi, unga dalda bo'lishi, ruhlantira olishi kerak. Tulik shakllangan, ilg'or fikrlaydigan, zamon va makondagi har bir o'zgarishni his eta oladigan, ruhiy ter to'ka bilish kobilyatiga ega ijodkor shaxsni tarbiyalash pedagogdan talabadagi juda kichik va nozik o'zgarishlarni ham ilg'ay olish kobilyatini talab etadi. Boshkacha kilib aytganda, pedagog- rejissyorda "yaxshi ko'z" bo'lishi kerak. Shundagina u bo'lajak aktyor- talabadagi boshqa birovlar ko'rmaydigan jihatlarni ko'rishi, o'zgaralar sezmaydigan nozik jihatlarni sezishi mumkin. Agar talaba to'g'ri ishlayotgan bo'lsa, bu jarayonni yanada chukurlashtiradi, xato kilayotgan bo'lsa vaktida to'xtatadi va to'g'ri yo'ldan borishi uchun unga ko'mak beradi.

Har bir talaba kimningdir dilbandi. Ota-ona o'z farzandini ustozga ishonib topshiradi. Ammo uni ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash, egib-sindirib qo'ymaslik pedagogning zimmasidagi katta mas'uliyat. Aytaylik, 10-12 yoshli bolaga ellik kilo yukni ko'tarishni tavsiya kila olmaysiz. Bola mayib bulib kolishimumkin. Ijodkor tarbiyasida ham unga vaktidan oldin og'ir yuk tashlash kasbiy majruhlikin keltirib chikaradi. Nima uchun bu xakda fikr yurityapmiz? Chunki, ba'zan shunday hollar bo'ladiki, O'qituvchi shoshma shosharlik kilib, talabaga ortikcha yuk tashlab yuboradi. Vaktdan yutmoqchi bo'ladi. Hali talaba to'g'ri bajara olmaydigan vazifalarni talab qilish hollari sodir bo'ladi. Buni aktyorlik maxorati fani o'qituvchilari tili bilan aytganda "pedalni bosish" yoki "forsirovaniye" - "zabt etish" deb ataladi. Bunday yo'l tutish mutlaqo mumkin emas. Masalan, endigina mashqlar va uncha murakkab bo'lmagan etyudlar jarayonidan o'tib, kichik o'quv saxnasida muallif asarlari bilan to'qnashgan

boladan "xarakter" talab qilish shart emas. Hamma bola har xil. Iktidorli talaba o'z-o'zidan tabiiy ravishda xarakterga intilib qolishi mumkin. Faqat ijro "yuzaki o'yin"ga aylanib kolmasligi kerak. Buni pedagog ilg'ay va farqlay olishi, kerak bo'lsa vaqtida to'xtata bilishi lozim. Bularning barchasi aktyorlik mahorati o'qituvchisining zimmasidagi jiddiy mas'uliyatdir.

Musiqali dramada ovoz gigiyenasi va tovush madaniyati haqida eng oddiy tushunchalarga ega bo'lish uchun talaba ovoz apparati nimalardan tashkil topganligini bilib ko'yishi foydadan xoli emas. Bu xakda kator mutaxassislar va pedagoglar o'z ilmiy ishlarida ko'rsatma berib o'tishgan. Shunday mutaxassis- pedagoglardan biri SH.Pirmatov "Vokal texnikasi asoslari" kitobida ovoz apparati nimalardan tashkil topganligini va ular qay sharoit va ko'rinishlarda ishga yaroqsiz bo'lib qolishi mumkinligini quyidagicha tushuntiradi: "Bodomsimon bez. Katta bodomsimon bezlar yumshoq tebratkichlarning ayrim qismlari xarakatini qiyinlashtiradi, bu to'g'ri talaffuzga xalaqit beradi. Kasallangan bodomsimon bez tomok, traxeyani tez-tez ogrib qolishiga olib keladi." [3. 526.].

Muallif shu o'rinda tez-tez uchrab turadigan xolatga aloxida e'tibor karatib: "Adenoid o'simtalar. Dimogdagi adenoid o'simtalar burunning doimiy bitib kolishiga olib keladi, shuningdek, suyuklik ajratib, pastki nafas yo'llarining kasallanishiga olib keladi, ovoz esa ping'illab qoladi..." [3. 52b.]. - deya ovoz apparatining eng nozik jihatiga e'tibor karatadi.

Kuylovchi aktyorning ovoz apparatini beshikast shakllanishida xatto tishlarning ham o'z o'rni borligiga diqqatni karatib, muallif o'z fikrini shunday davom ettiradi: "Tishlar. Kasal tishlar bodomsimon bezlarni ham kasallantiradi, xalkum shillik pardasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu ovozning buzilishiga olib keladi." [3.69b.].

Yukorida aytib o'tilgan fikrlardan tashkari pedagog zimmasiga yana bir mas'uliyatli vazifa yuklanadi. YA'ni, xar bir talabaga uning imkoniyatidan kelib chikib repertuar tanlash lozim. Chunki talabaning ovoz imkoniyatidan yuqori darajadagi asar ijrosiga intilish uning ovoz apparatiga salbiy ta'sir kilishi

va oxir okibat talaba kuylovchi ovoz imkoniyatidan mahrum bo‘lib kolishi ham mumkin.

Bularning barchasi o‘sayotgan, yosh ovoz egalari uchun muximdir. Kasb kasalliklarining oldini olish, bunga yordam beruvchi gigiyenik koida va usullar, kuylovchilarda ko‘p tarqalgan kasalliklar va oddiy tibbiy ma‘lumotlar haqida so‘z yuritib, kuyidagilarni xam xulosa o‘rnida keltirish mumkin: Haqiqiy kasbiy ovoz hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar- *birinchidan*, ruhiy va axloqiy sharoit. Sog‘lom, meyoridagi ijodiy ish uchun, eng avvalo, meyoridagi osoyishta ruhiy muxit zarur bo‘ladi, bu asabbuzarlikning oldini oladi. Chunki asabbuzarlik tufayli ovozga putur yetadi. Muloqot madaniyati bu sog‘likni asrashning bosh shartidir.

*Ikkinchidan*, ustozlarning fiziologiya va gigiyena sohalarida yetarli bilimga egaligi. Pedagog xar kanday ovozning tabiati va xususiyati, uning fiziologik imkoniyatlarini bilishga jiddiy e‘tibor berishi kerak. *Uchinchidan*, kasal bo‘lganda nafakat ko‘shiq aytish, xatto repetitsiyada ishtirok etish ham tavsiya etilmaydi. Bunday paytda tana va ovoz apparatlarini zo‘riqishdan asrash kerak. Aks holda uni ishdan chikarib kuyish mumkin. Betoblangan ovozga birinchi tibbiy yordam- bu ovozga dam berishdir. Ariya kuylash yoki eshitish u yokda tursin, hatto gaplashish ham mumkin emas. Ana shu tavsiyalar va talablarga amal kilinsagina tabiat bergan ovozni o‘stirish sayqallash, rivojlantirish va nihoyat uni tinglovchiga go‘zal ijrolar orkali tortik kilish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Maxmudov J., Maxmudova H. Aktyorlik mahorati. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent - 2010. 7-bet
2. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. -T.: Tafakkur kanoti, 2014.
3. Pirmatov SH. Vokal texnikasi asoslari. -T.: Musiqa. 2011.
4. Yusupova X. Yo‘llaringni hiloli bo‘lay. -T.: Shark. 2001.
5. Streler Djorjo. Teatr dlya lyudey. Raduga, -M.: 1984.
6. Katsman A.I. Psixologiya tvorchestva. Sbornik dokladov, LGITMIK. 1989

## MILLIY MUSIQALI TEATR AN'ANALARI.

Umid Rasulov  
Musiqali teatr san'ati kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** o'zbek milliy musiqali teatrining shakllanishi va rivojlanishida soha ijodkarlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar bugungi kun musiqali teatr san'ati uchun anana vazifasini o'taydi. Bu anana musiqali teatr san'ati ijodkorlari, dramaturg, bastakor, rejissyor va aktyorlar ijodida aks etishi ijodiy yetuklikka chorlaydi.

**Kalit so'zlar:** musiqali teatr, anana, janr, dramaturg, bastakor, rejissyor, aktyor, spektakl.

O'zbek musiqali teatri XX asrning 20 yilaridan boshlab sekin astalik bilan shakllangan sahna san'atining alohida bir yo'nalishidir. U ozarboyjon musiqali teatri tasiri bilan o'zbek xalq dostonchiligi asosida vujudga kelgan. O'zbek milliy musiqali teatr san'atining vujudga kelishi va shakllanish bosqichlari, shunindek bugunga qadar musiqali drama janrida sahnalashtirilgan spektakllar to'g'risida, bugunga qadar musiqali teatrda ijod qilgan ijodkorlar hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar ko'plab monografiya va ilmiy maqolalarda batafsil keltirib o'tilgan.

Shu jumladan taniqli san'atshunos olim, professor Muhsin Qodirovning "Sehr va mehr" nomli risolasida o'zbek milliy musiqali drama san'atiga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'zbek musiqali dramasi – ko'p tarmoqli, murakkab san'at. Drama janrida yozilgan asarni rejissyor rassom bilan bamaslahat o'zi sahnalashtirishi mumkin. Ammo musiqali dramaning matni tayyor bo'lgani bilan ish yurishib ketavermaydi. Pyesa bastakor ihtiyoriga o'tib, musiqa yozilishi kerak. Mana shu bir- biriga chambarchas bog'langan va ayni chog'da, nisbatan mustaqil asarlar "teatr qozoni"ga kelib tushadi. Rejissyor, dirijyor, konsertmeyster, baletmeyster, rassomlardan iborat ijodiy

guruh tomonidan katta ish olib boriladi. Musiqali teatrning o‘z yo‘nalishi, o‘ziga xos qonuniyatlari shu jarayonni talab qiladi. Musiqali drama – pyesa, shu asosda yozilgan musiqa va rejissyorning sahnaviy talqini kabi uch asosiy komponentdan iborat. Ana shu pyesa, musiqa, shuningdek, baletmeyster tomonidan sahnalashtirilgan raqslar teatrning ijodiy jamoasi, ijrochilar va orkestr tomonidan o‘zlashtirilib, sahnaviy xatti-harakatga aylantirilgandagina, musiqali drama hosil bo‘ladi. YA’ni, sahnaviy xatti -harakat tufayligina, ikki yirik manbaa – pyesa bilan musiqa bir-birini topadi, birikadi, to‘ldiradi va aktyorlardagi imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi, dramaturg bilan bastakor ko‘zlagan g‘oyaviy maqsad amalga oshadi”<sup>13</sup>.

Musiqali teatr san’ati qonunlarga emas, qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlar nimalardan iborat? Avvalo dramaturg aynan musiqali drama uchun mo‘ljallab pyesa yozishi va pyesaning qatlaridan musiqiy ruh sezilib turishi, har bir sahnada keskin hissiy kurashlar sodir bo‘lishi natijasida kuylashga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi kuzatilishi kerak. Xususan musiqali dramadagi har bitta dramatik sahna, ulardagi har bir hatti-harakat musiqaga, kuylashga bo‘lgan ehtiyojni paydo qilishi, ijrochilar bastakor tomonidan belgilab qo‘yilgan tempo ritmni buzmasdan, spektakldagi voqealar tizimi, qahramonlar ichki kechinmalarining shiddat bilan o‘sib borishi kuylashga bo‘lgan ehtiyojni paydo qilgandagina ariya va duetlarga murajat qilishlari kerak. Bunday mukammal kompozitsion qurilmani barpo qilishda ham dramaturg, ham bastakor, ham aktyorlar ijodiy kuchini bir maqsad yo‘liga yo‘naltirishdek muntazam mashaqqatli mehnat mas’uliyati rejissyor zimmasiga yuklatiladi.

Bu qonuniyatlar milliy musiqali teatr san’atining shaklanish bosqichlarida yetuk ijodkorlar tomonidan yaratilgan. Teatr san’ati jamoaviylikni talab etadigan kasb sanaladi. Unda yakka ijodkorlik tan

---

<sup>13</sup> М.Қодиров. Сехр ва меҳр – Т.: Ғ.Ғулом, 1994. 6 бет

olinmaydi, unda jamoa bo‘lib ijod qilish talab etiladi. Musiqali teatr san‘atida ham dramaturg, bastakor, rejissyor va aktyorlar jamoasining yagona maqsad yo‘lida birga qadam tashlashlari natijasida musiqiy spektakl vujudga keladi. Spektaklning yaratilishida sanab o‘tilgan ijodkorlar bilan bir qatorda rassom, derijyor, baletmeyster, xormeyster, grimyor, chiroq ustalariyu sahna ishchilari ham katta ahamyat kasb etadi. Kuchli ijodkor dramaturg tomonidan mukammal pyesa yozilishi bilan spektakl paydo bo‘lib qolmaydi. Yoki istedotli bastakor tomonidan yaratilgan ariya, duet, trio, kvartet va xorlar ham dramaturgiyasiz konsert dasturidan o‘zga narsa bo‘la olmaydi. Dramaturgning pyesasiga bastakorning musiqasi singib ketishi natijasida paydo bo‘lgan musiqiy dramaturgiyani rejissyor aktyorlar ijrosi orqali sahnaga ko‘chiradi.

Asr oshib boshlagan milliy musiqali teatrimiz tarixiga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, sohaning dastlabki ijodkorlari fidoiylik namunalarini ko‘rsatishgan. Ularning bu yo‘ldagi urinishlariga ozarboyjon teatr jamoasining qisqa muddat ichida O‘zbekistonga qilgan gastrol safari turtki bo‘ldi. Ayni paytda Turkiston o‘lkasida Yevropacha madaniyatning ko‘rinishlari o‘z tasir doirasini kengaytirib borayotgan edi. Har qancha qilganda ham ozarboyjon yoki Yevropa teatrlarining sahna asarlari o‘zbek xalqi uchun barchaga birdek maqbul va tushunarli bo‘lmasligi aniq edi. Shu tufayli milliy teatr va shuningdek milliy musiqali teatrning barpo qilinishi ehtiyojining paydo bo‘lishi bir qator san‘at fidoilarini jadal ijod qilishga undadi.

Urinishlarning ijobiy samara berishiga ijodkorlarning bir tanu bir jon bo‘lib ijod qilishlari sabab bo‘lgan deya olamiz. E‘tiborli tomoni shundaki milliy musiqali drama janrining ilk na‘munalarini yaratgan bu ijodkorlar uchun na‘muna oladigan qo‘llanmaning o‘zi bo‘lmagan. Ular milliy musiqali drama janrida o‘zidan oldin mavjud bo‘lmagan va o‘zidan keyingilar uchun na‘muna vazifasini bajaruvchi sahna asarlarini yaratib ketganlar.

Sahna san‘tining yuksak na‘munalarining dunyoga kelishiga keng yo‘l ochib bergan birdan bir sabab teatr ijodkorlarining o‘zaro hamkorlikda ish olib

borishlari, ular ijodining yagona maqsad yo'lida birlashib, fikrlar va qarashlarning uyg'unlik kasb etishida edi. Bunda ijodiy jamoada har bir pyesa, undagi ariya va duetlarning matni va musiqasi bir necha bor qayta qayta yaratilib ular ichidan ko'zlangan maqsad uchun eng maqbuli tanlab olingan.

Milliy musiqali drama san'atimizning shoh asarlarini yaratishgan Komil Yashin, Sobir Abdulla, To'htasin Jalilov singari san'at darg'alari ijodiy jamoa bilan hamkorlikda ish olib borganligi barchaga birdek ma'lum. Bu to'g'rida O'zbekiston xalq artisti Fayzulla Ahmedov shunday degan edi. "Dramaturg bilan bastakorlarning hamjihatligi haqida soatlab gapirish mumkin. Bastakor To'xtasin Jalilov bilan Sobir Abdulla "Tohir va Zuhra", "Alpomish" musiqali dramalari ustida ish olib borganlari hali hanuz yodimda. Barcha ijodkorlar Sobir Abdullaning bog'ida to'planishar, domla matnni yozib tursalar, To'xtasin aka kuyini bastalab o'sha yerning o'zida ijrochilarga aytirib ko'rardilar. Hozir dramaturg o'zicha ishlaydi, bastakor o'zicha. Natijada kuy va so'z bir – biriga singib, uyg'unlashib ketmaydi"<sup>14</sup>.

Shunga o'xshash fikrlarni milliy musiqali drama san'atimizning ravnaq topish bosqichlaridan bevosita habardor bo'lgan ustoz san'atkorlarning barchasidan eshitishimiz mumkin. Shu o'rinda yana bir hayot qonuniyati, bunyod qilish haqida bir bor o'ylasang, barbod qilmaslik haqida ikki bor o'yla, degan fikrga tayanib, milliy musiqali teatr san'atimiz taqdirida yangi imkoniyatlar bilan nurli cho'qqilarni zabt etish to'g'risida bir bor o'ylasak, musiqiy teatr darg'alari tomonidan zabt etilgan cho'qqilardanda quyiroqqa tushib ketmaslik haqida ikki bor o'ylashimizga to'g'ri keladi.

Bir qator ustoz san'atkorlarimiz o'zbek musiqali teatri dramaturgiyasi va rejissurasida ulkan izlanishlar olib borib milliy musiqali drama san'atimiz uchun mustahkam poydevor bo'ladigan qonuniyatlarni yaratib ketishgan. Bunday dramaturglardan G'ulom Zafariy, Hurshid, Komil Yashin, Sobir

---

<sup>14</sup> Matluba Temur qizi. "Sahna xiyonatni kechirmaydi". Teatr jurnali, 2008 yil. 4 son. 18 bet.

Abdulla, Hamid G‘ulom, Turob To‘la, bastakor va kompozitorlarimizdan To‘htasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Monas Leviyev, Georgiy Mushel, I. Ginzburg, Ikrom Akbarov, ijrochi aktyorlarimizdan Abror Hidoyatov (Nemat, Majnun, Farhod rollarida), Ma’suma Qoriyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, E’tibor Jalilova, Tursunoy Jafarova, Farog‘at Rahmatova, Naima Po‘latova, Mahmudjon G‘afurov, Razzoq Hamroyev, Sur‘at Po‘latov, Soyib Xo‘jayev, Bahtiyor Ihtiyorov kabi ko‘plab ustoz san‘atkorlarimizni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ular o‘z ijodlari natijasi o‘laroq, o‘ziga xos janr, o‘zbek milliy musiqali dramasini rivojlantirishgan. Uning taraqqiyot yo‘lini belgilab berishgan. Milliy musiqali teatr san‘atimizni mashhur darg‘alari o‘zbek milliy musiqali dramasida bugungi kunda klassika darajasiga ko‘tarilgan betakror spektakllarni yaratishgan. Mana shu spektakllar hozirgi zamonaviy musiqali teatr an‘analariga aylandi.

Keyingi paytlarda sahnalashtirilayotgan spektakllarning aksariyat mavzusi oilaviy masalalar va mayishiy turmush tarzimizda kechayotgan mayda ikir chikirlarga o‘ralashib qolyapti. San‘at asari qanday tur va janr ko‘rinishida bo‘lmasin inson taqdiri haqida hikoya qilmas ekan u yashamaydi. Aksariyat maishiy mavzudagi spektakllar hayotiylik va tabiiylik tushunchalaridan kelib chiqib himoya qilinmoqda. Shu o‘rinda bir qonuniyatni keltirib o‘tishimiz kerak. Sahna san‘atida tabiiylik degan atama pyesa uchun tanlangan voqealarga emas, aktyorlar ijrosi, ularning his tuyg‘ulari, kechinmalariga nisbatan qo‘llanadi. “Dramada voqealarni realizm niqobi ostida jo‘nlashtirmaslik to‘g‘ridir, chunki adabiyot hayotning xuddi o‘zi emas”<sup>15</sup>, va albatta sahna san‘ati ham. Ba‘zi teatrshunoslarimiz maishiy turmush tarzimizda ro‘y berayotgan voqea hodisalarni shundayligicha sahnaga olib chiqqan spektakllarni tahlil qilar ekan, ularga “hayotiy haqiqatlarga asoslangan spektakl”, deya baxo beryapti.

---

<sup>15</sup> Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent 2008. 320 bet

“Hayot haqiqati bilan teatr haqiqati butunlay boshqa boshqa bo‘lishi kerak emasmi? Teatr hayotni qanday bo‘lsa shunday ifodalasa, unda teatrning nima qizig‘i qoladi? Teatr bu fantasmagoriya, teatr bu tush, u yerda bo‘ladigan voqealar g‘aroyibot, aql bovar qilmaydigan voqealar. Teatrdagi voqealar na yerga tegib turadi, na osmonga. Ular muallaq turadi, ularda mantiq yo‘q. Agar teatrni mantiqqa ro‘para qilsangiz o‘sha zaxoti dosh berolmay parcha parcha bo‘ladi. Teatr bu uni yaratgan odamlarning tafakkuridan tug‘ilgan, o‘zi yashab turgan hayot to‘g‘risidagi uydurmasi”<sup>16</sup>, degan edi taniqli rejissyor Olimjon Salimov.

Milliy musiqali teatr san’atining klassik namunalaridan istalgan birini olib undagi sahna haqiqiati va san’at falsafasi o‘rniga hayotiy haqiqatlarni joylashtirib chiqadigan bo‘lsak o‘sha spektaklning klassikligidan asar ham qolmaydi. Sahna san’ati asarlari hayotiy haqiqatlarga emas badiiy haqiqatlarga tayanib ish ko‘rgandagina san’at asariga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M.Qodirov. Sehr va mehr – T.: G‘.G‘ulom, 1994. 6 bet
2. MatlubaTemurqizi. “Sahna xiyonatni kechirmaydi”. Teatr jurnali, 2008 yil. 4 son. 18 bet.
3. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent 2008. 320 bet
4. Olimjon Salimov. “Kasbim rejissyor” G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2009

---

<sup>16</sup> Olimjon Salimov. “Kasbim rejissyor” G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2009

## E'TIBOR JALILOVA - 100 YOSHDA

Farhod Farmonov  
Musiqali teatr san'ati kafedrası  
katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** mazkur ilmiy maqolada XX asrda o'zbek drama teatrida dramatik, tarixiy, zamonaviy mavzuda sahnalashtirilgan spektakllar tahlil qilinadi. Bu davrda yozilgan ilmiy ishlar, darsliklar va monografiyalar o'quv qo'llanmalarda keltirilgan tarixiy-ilmiy asosga ega ma'lumotlarga tayanib, ilmiy dalillar asosida yoritilgan hamda spektakllar ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** teatr, pesa, drama, spektakl, obraz, janr, aktyor, rejissyor, xarakter.*

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri O'zbekistonda musiqali drama taraqqiyotiga xizmat qiluvchi asosiy teatr hisoblanadi. Uning bag'rida nafaqat respublikamizning, balki, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Qozog'iston sahnalarida ham sahnalashtirilgan eng sara komediyalar, musiqali tragediyalar tug'ilgan. Ko'plab tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'lgan "Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Nurxon", "Oltin ko'l", "Vatan ishq", "Toshbolta oshiq", "Momo yer", "O'jarlar", "Jonim fido", "Zo'ldir", "Gul va Navro'z" kabi musiqali dramalar milliy musiqali dramaning yorqin va ko'rkam namunasi hisoblanadi.

Tarixdan ma'lumki, O'zbek Davlat musiqali teatri 1939 yili 14 iyulda Respublika o'zbek musiqali komediya teatri nomi bilan tashkil qilingan. Bu teatrga Karl Marks truppassi, Toshkentdagi uchta musiqali drama teatrlari hamda viloyat teatrlarida faoliyat ko'rsatayotgan iqtidorli aktyorlar jalb qilingan.

40-yillarda esa Andijon viloyat musiqali drama teatrining badiiy rahbari To'xtasin Jalilov boshchiligidagi o'nlab taniqli aktyorlar poytaxtga olib kelingan va To'xtasin Jalilov teatrning badiiy rahbari deb e'lon qilingan. Ota izidan yurib san'at yo'lini tanlagan E'tibor Jalilovning Muqimiy teatri bilan bir umrga bog'langan ijod rishtalari aynan mana shu tarzda yuzaga kelgan.

E'tibor Jalilova 1924-yili 15-martda Andijon shahrida uzbek musikalik drama teatr san'ati va uzbek milliy orkestriga asos solgan, Uzbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilov oilasida dunyoga kelgan. San'at sirlarini otasi hamda O'zbekiston xalq artistlari bo'lgan ukalari Xolxo'ja To'xtasinov va Salohiddin To'xtasinovlardan o'rgangan. Buyuk iste'dod sohibasi bundan ko'rinib turibdiki nafaqat qon tomirlarida san'at balki to'xtovsiz mehnat, harakat, kuchli ishtiyoq samarasi o'laroq san'atda ulug' bir pog'onaga erishib, xalq ko'nglidan abadiy joy olgan.

1940—1941-yillarda Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan o'zbek opera studiyasida ta'lim olgan. E'tibor Jalilova 1944 yili esa Toshkent konservatoriyasida tahsil olgan. 1941-yilda Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama va komediya teatrida mehnat faoliyatini aktrisalikdan boshlagan. Uning aktrisalik va xonandalik iste'dodi mahalliy mualliflarning musiqali drama va komediyalarida, o'zbekchaga tarjima qilingan asarlarda — estetik tugal, realistik chuqur, usluban to'liq va ishonarli sahna harakterlari yaratishiga imkon bergan. Rollari samimiy, jo'shqin, romantik va yuksakligi bilan ajralib turadi. E'tibor Jalilova ijrosidagi rollar yildan yilga sayqallashib yuqori badiiy saviyaga ko'tarilgan. S. Ulug'zodaning “Gavhari shamchiroq” asarida Xadicha, K. Yashinning „Nurxon“ spektaklida Nurxon, S.Abdullaning “Tohir va Zuhra” spektaklida Zuhra, I.Sultonning “Muqimiy” spektaklida Obida, “Guli siyoh” dramasida Bibi, “Ravshan va Zulxumor”da Zulxumor, Hamzaning “Paranji sirlari” spektaklida Xolisxon, Z. Fatxullaning “Kumush to'y” spektaklida Fazilat, Hamid G'ulomning “Ajab savdolar” asarida Ozoda, Z.Fatxullaning yana bir “G'unchalar spektaklida” Nigor kabi obrazlarda rol ijro qilgan.

E'tibor Jalilova turli-xil spektakllarda turmush o'rtog'i O'zbekiston xalq artisti Mahmudjon G'afurov bilan birga bosh rollarni ijro etgan.

E'tibor Jalilovning ko'zga ko'ringan rollariga "Arshin mol olon" spektaklidagi Gulchehra, "Oltin ko'l" spektaklidagi Shohista, "Farhod va Shirin"da Shirin, "Qo'zibuloq qishlog'i" asarida Laurensiya va boshqalar kiradi. Uning ijrosidagi "Oftobxon"dagi Oftobxon, "Nurxon" spektaklidagi Nurxon, "Kumush tuy", "G'unchalar" asarlaridagi Fazilat va Nigor obrazlari teran psixologik harakterlar namunasidir.

Betakror shirali ovozi bilan ham alohida tahsinga sazovor ijodkorimizning shu yil 100 yillik yubileyi respublikamizda keng nishonlanishga tayyorgarlik ko'rilmogda. San'atimizning yirik namoyandasi bo'lgan ustoz san'atkorimiz yaratgan obrazlar nafaqat tomoshabinlar, professional ijodkorlar xotirasida, balki, san'atsevar xalqimiz qalbida mangu muhrlanib qolgani shubhasizdir.

## REJISSOR KADRLAR TAYYORLASHDAGI AYRIM MUAMMOLAR YECHIMLAR

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti "Musiqali teatr san'ati" kafedrası  
o'qituvchisi Orifjon Qudratov*

**Annotatsiya:** Bu maqola ta'lim jarayonida rejissorlarni tarbiyalashdagi muammolar ko'tarilgan. Maqolada kirish mitihonidanoq tajribaga ega va rejissuraga layoqati bor yoshlarni qabul qilish kerakligi. Rejissorlarni tarbiyalashdagi ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun boshqa takliflar kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Teatr, rejissyo, spektakl, shaxs, yechim, g'oya, e'tibor, mafkura, ma'naviy, ta'lim, san'at, madaniyat.

**Аннотация:** В данной статье поднимаются вопросы подготовки режиссёров в образовательном процессе. В статье говорится, что необходимо принимать молодых людей, имеющих опыт и способных руководит, в вступительных экзаменах. Есть и другие предложения по совершенствованию учебного процесса при подготовке директоров.

**Ключевие слова:** театр, режиссура, перформанс, личность, решение, идея, внимание, идеология, духовность, образование, искусство, культура.

**Annotation:** This article raises issues in the training of directors in the educational process. The article states that it is necessary to accept young people who have experience and are capable of directing from the entrance exam. Other suggestions are included to improve the educational process in the training of directors.

**Keywords:** Theater, directing, performance, personality, solution, idea, attention, ideology, spirituality, education, art, culture.

Bugun va ertangi kun teatr san'ati to'g'risida so'z yuritiladigan bo'lsa uni shaxs sifatida shakllangan rejissorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi va ertangi teatr - rejissorlik teatridir. Chunki teatr deb atalmush ibratxonada spektaklning badiiy shakliy yechimi, g'oyaviy muammolarni o'rta olib chiqaradigan, shu bilan birga butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan shaxs bu shubhasiz rejissordir.

Rejissordan talab qilinadigan bilimlar ko'lami to'g'risida gapirilmasa-da hammaga ayon. Shuning uchun gapni cho'zmasdan to'g'ridan-to'g'ri bugungi O'zbekistonda milliy teatr san'ati oldida, o'z yechimini kutib turgan muammolar bilan bevosita bog'liq bo'lgan rejissor kadrlar tayyorlashdagi ayrim fikr mulohazalarni o'rta tashlamoqchiman. O'ylaymanki, na faqat meni balkim, barcha teatr jonkuyarlarini tashvishga solib turgan bu muammolarning aksariyati, institut ma'muriyati vakolati doirasida hal etilishi mumkin. Muammolarning asosiysi so'zsiz bo'lg'usi rejissorlarni o'qitish bilan bog'liq.

Rejissurning dastxati bu shakldir. Aktyorlarning o'zaro munosabat shakli, spektaklning bezak shakli, musiqiy bezak, yoritish shakli va nihoyat har asarning o'ziga xos madaniyat shakli.

Spektakl shaklini kompozitsion yechimsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir asar janr va g'oyadan kelib chiqib yangicha badiiy talqin orqali tomoshabin ongi va shuuriga yetib boradi. "Yoshlar tarbiyasi" shu kunning muhim vazifalaridan biri ekanligini bois, ular tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar mafkurasi, ma'naviy qiyofasi, ta'lim, san'at va madaniyat adabiyot, tasviriy san'at musiqa orqali shakllanadi.

Rejissorlik kasbi esa shu bilimlarning baorchasini o'z ichiga oladi. Demak birgina rejissorning dunyoqarashi, bilim doirasi va ko'lami, madaniy qiyofasi butun bir jamoaga ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega ekan. Shu sababdan bo'lg'usi rejissorlarni tarbiyalashda asosiy e'tibor badiiy tafakkur yuritishga layoqatli shakllangan shaxsni tarbiyalashga qaratilmog'i kerak ekan.

Modomiki, rejissor zimmasiga yuklatilayotgan vazifa o'ta vazmin ekan gapni ana shu vazmin yukni ko'tarishga qodir shaxslarni tarbiyalashdan boshlash zarur.

Endi haqiqiy ahvolga bir nazar tashlab ko'raylik. Bugungi kunda drama rejissorligi bo'limiga 32 nafar talaba qabul qilindi, har uch-to'rt yilda talabalar qabul qilinsada, respublikamizda buncha teatr faoliyat ko'rsatmasa... Bu

rejissorlarning aksariyati to'rt yil olingan ta'limdan so'ng o'z bilimi va hunarini namoyish etadigan maydon yo'qligidan institutda bitta yarimta spektakl tayyorlab diplomli rejissor bo'lib chiqib ketmoqda. Bu "chala pishirilgan osh" dan boshqa narsa emaslikini domlalar ham, rahbariyat ham ko'rib, bilib turibti. Ammo hamma o'zini "ko'rmaganga, bilmaganga" solishi taajubli hol..

30 oshiq teatrlarni aksari viloyatlarda bu musiqali teatrlardir. Bunday hisob-kitobga o'tishimning boisi 32 nafar talaba "rejissorlik" kursiga qabul qilmaslik ko'pgina muammolarga yechim topib beradi deb o'ylayman.

Rejissorlar ham aktyorlar kabi to'rt yil o'qitilsa, buning ustiga aktyorlik mahorati sirlarini egallamay turib rejissor bo'ladi deyishlikning o'zi kulgili hol. Chunki K.S.Stanislavskiy, yaxshi aktyor bo'lmagan odamdan hech qachon yaxshi rejissor chiqmaydi, degan edi. Shu hisob kitobdan kelib chiqiladigan bo'linsa to'rt yilning ikki yili aktyorlik kasbini egallashga kerak ekan. Qolgan ikki yilning ikki uch oyi amaliy tajribaga ketsa, qolgan ozgina vaqt ichida bo'lg'usi rejissorlarni qanday tarbiyalab, kasbiy ko'nikma hosil qildirish mumkin?

So'zsiz rejissorlarni besh yil o'qitish zarur. Nima uchun Tibbiyot institutida o'qitish muddati 6 yil bo'lsa-yu, rejissorlarga to'laqonli bilim berib tarbiyalash uchun besh yil o'qitilmasa.

Axir bir o'ylab ko'raylik: bor-yo'g'i to'rt yil o'qib diplomni "qo'ltiqlab" teatrga kelgan yoshgina yigitcha, yigirma-o'ttiz yillik tajribaga ega, teatr qozonida obdon "qovrilib pishgan" ustoz aktyorlarga nimani o'rgatishi, nimadan saboq berishi mumkin?

Y.B.Vaxtangov, rejissor spektakl sahnalashtirishdan avval to'rtta savolga javob topishi kerak, degan edi.

A) Nimani sahnalashtirish kerak?

B) Qachon sahnalashtirish kerak?

V) Qanday sahnalashtirish kerak?

G) Qaysi ijodiy jamoa va qaysi aktyorlar bilan sahnalashtirish kerak?

Rejissura noyob kasb ekanligini hamma biladi. Katta-kichik anjumanlarda qayta-qayta e'tirof etiladi. Biroq "rejissorlik kasbiga salohiyati bormi-yo'qmi" an'anaga aylanib qolgan savollarga qoniqarli javob bersa bo'ldi.

Bo'lg'usi rejissor tasviriy san'atni bilishgina emas uning yo'nalishlari, qonun qoidalari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lmog'i, musiqa san'atining tarmoq va irmoqlaridan xabardor bo'lishligi, badiiy adabiyotni sevishi, unga o'z munosabatini bildira olishi, dramaturgiya nazarisini puxta egallagan bo'lishi kerak emasmi? Va nihoyat ichki intellektual salohiyati, ichki madaniyati, ma'naviy qiyofasi yaxshi shakllanmagan talabadan hech qachon yaxshi rejissor chiqmaydi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Mavjud muammoni zudlik bilan to'g'ri izga tushirib yuborishning birdan-bir to'g'ri yo'li bizning fikrimizcha quyidagicha bo'lishi kerak.

1. Rejissura kafedraasi tashkil etish lozim.

2. Uch yo'nalish bo'yicha talabalar qabul qilish zarur.

a) teatr rejissyorligi (drama, musiqiy drama, estrada yo'nalishi) bo'limi

b) kino va televideniye;

v) qo'g'irchoq teatri rejissorligi;

3. Bu bo'limlarda amaliyot bilan bog'lik yetarli tajribaga ega

mutaxassislargina dars berishlari zarur.

4. Rejissorlik bo'limlariga tanlangan mutaxassislik bo'yicha ma'lum amaliyotni o'tagan, faqat o'rta maxsus bilim yurtini bitirgan abituriyentlar qabul qilinishi zarur.

5. O'quv teatrida talabalar bilan spektakl, konsert dasturi tayyorlab

diplom olish kabi tajribadan voz kechish kerak. "Chala mulla" tayyorlab na millat ma'naviyatini yuksaltirib bo'ladi va na teatr san'atini rivojlantirib.

6. Mustasno sifatida rejissura bo'limiga qabul jarayonida songa emas asosiy e'tibor sifatga qaratilmog'i lozim bo'lib, rejissorlik bo'limga eng ko'pi bilan 12-15 talaba qabul qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

K.S.Stanislavskiy iborasi bilan aytganda, rejissorlikka o'rgatib bo'lmaydi, rejissor tarbiyalanadi.

Bu institutda Mannon Uyg'ur, L.B.Radun, O.Chernova, T.Xo'jayev, Mark Aronovich, Ginzburg, Ye.Bobojonov kabi o'z zamonasining buyuk shaxslari rejissura fanidan saboq berganlar. Ular qoldirib ketgan boy merosni ijodiy o'zlashtirgan holda, o'sha an'analarni davom etdirishimiz, institutni bitirib chiqayotgan har bir talaba-rejissor so'zsiz professional sahnada professional aktyorlar bilan "diplom" spektakli sahnalashtirganidan so'ngina unga diplom berish kerak, degan tamoyilga qat'iy amal qilinishi shart. Bu o'z-o'zidan mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadi.

Institutdagi rejissorlarni o'qitish salohiyatiga ega o'qituvchilar shu kafedrada jamlanishi kerak. Agar bugun ertangi teatrimizning taqdiri haqida qayg'uradigan bo'lsak qo'yilayotgan masalaga jiddiy yondoshish kerak.

K.S.Stanislavskiy rejissorlarni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor bilan qarab "Bo'lg'usi rejissorlar aktyorlik mahorati maktabini to'liq o'tagan bo'lishi kerak" degan edi. Demak har bir rejissor yaxshi aktyor ham bo'lishi kerak. Lekin hozirgi kunda rejissor talabalar plastika, raqs, musiqa asoslari tasviriy san'at asoslari kabi o'ta zaruriy fanlardan bilim olish imkoniyatidan mahrum etilganlar. Ayniqsa rejissorni tasviriy san'at bilan bog'liq tomonlarini hisobga oladigan bo'lsak bu sohada berilayotgan bilimni qoniqarsiz deyish mumkin.

Chunki rassom ham rejissor ham hayotiy voqealarni aks ettiradi. Agar rassom voqealarni bir lahzalik holatini bo'yoq yordamida holatga muhrlasa, rejissor

hayotiy voqealar oqimining uzluksiz harakat jarayonini jonli odamlar yerdamida aks etdiradi.?

Agar bastakor ohanglar sadosini aks ettirsa va u faqat eshitish orqaligina ta'sir etsa, rejissor voqea va ohanglar jarangini xatti- harakatlarning uzluksiz oqimi orqali ham eshittirib ham ko'rsatib berishi kerak.

Shuning uchun tasviriy san'at va musiqa asoslari kabi fanlardan ham rejissorlarga yetuk professional salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar dars berishlari kerak.

So'nggi bir orzu bu Rossiya va qo'shni davlatlar san'at oliygohlari yetakchi teatrlari bilan bilan yaqin ijodiy aloqalarni o'rnatish zarur deb o'ylaymiz.

Yuqoridagi fikrlar shaxsiy fikrlar bo'lib, undan mulohaza uchun foydalanilsa, biron-bir samara beradi degan umiddamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston. 2017.
3. Birinchi Prezident Islom Karimov: "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"- T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2008.
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. -T.: Sharq. 1997.
5. Simonov R. N. S Vaxtangovim. — M.: Iskusstvo, 1959.
6. Stanislavskiy. C.C Rabota aktera nad soboy. 1936 g.

## USMON AZIM ASARLARINING SAHNAVIY TALQINLARI

*Nurmanova Barno Axmadjon qizi*

*“Musiqali teatr san’ati” kafedراسи*

*o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada drama teatrlari sahnasi uchun yetuk dramaturgiya namunalarini yaratgan dramaturglar hamda mustaqillik yillarida o‘zbek drama teatrlarida sahnalashtirilgan bir qator spektakllar tahlili ustida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *drama, dramaturg, spektakl, aktyor, obraz, konflikt, xarakter, rejissyor.*

**Аннотация:** *В данной статье проводится анализ ряда спектаклей, поставленных в узбекских драматических театрах в годы независимости, а также драматургов, создавших образцы современной драматургии для сцены драматических театров.*

**Ключевые слова:** *драма, драматург, спектакль, актер, образ, конфликт, персонаж, режиссер.*

**Annotation:** *This article analyzes a number of performances staged in Uzbek drama theaters during the years of independence, as well as playwrights who created samples of modern drama for the stage of drama theaters.*

**Key words:** *drama, playwright, performance, actor, image, conflict, character, director.*

Mustaqillik davrida zamona ruhiga mos tarzda bir qator asarlar sahna yuzini ko‘rdi. Zamonaviy mavzuda yaratilgan komediya, musiqali komediya va drama janrlaridagi spektakllar tomoshabinlarni teatrlarga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Yangi davrdagi izlanishlar va rivojlanish yo‘lidagi ijod namunalari o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, teatr san’ati o‘zining yangicha talqinlarini namoyon eta boshladi. Natijada, O‘zbekistonning barcha teatrlarida milliylikka yo‘g‘rilgan bir qator spektakllar dunyoga keldi. Milliy asarlar bilan bir qatorda yevropa va xorijiy dramaturglar qalamiga mansub, zamon ruhiyatiga mos klassik asarlar ham teatrlar repertuaridan joy oldi. Bu yillarda poytaxt teatrlarida ham zamon nafasi ufurib turgan spektakllarga tomoshabinlar tashrif buyura boshladi.

Istiqlol yillari dramaturgiyasida shakliy jihatdan yangi izlanishlar, ijodiy tajribalarga ega dramaturglarning o'ziga xos qirralarini kashf etilishiga turtki berdi. Sodir bo'layotgan hayotiy voqea-hodisalar, yangilanayotgan zamonda maqsadli xatti-harakat qilayotgan insonlar tabiatida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganini anglab yetgan dramaturglar o'z asarlarida yangi ifoda shakllarini o'ylab topa boshladilar, bu hol esa sahna asarlarining muvaffaqiyatli chiqishini ta'minladi.

Yangilanayotgan davr bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlanishni boshlayotganligi sabab, teatrlarga tomoshabinlarning tashrifi kamaydi. Ularni teatrga jalb etish uchun ko'tarinki kayfiyatdagi, dolzarb mavzudagi sahna asarlari zarur edi. Kulgisevar xalqimizni teatrdan sahnalashtirilgan komediyalarga ixlosi balandligini bilgan tashkilotchilar bu yo'nalishga ahamiyat berib, tomoshabinlarga zavq bag'ishlashga bel bog'ladilar. Natijada, dramatik ruhdagi asarlarga e'tibor kamaydi.

Mustaqillik yillarida teatr repertuari yangi spektakllar bilan boyidi. Milliy, zamonaviy va tarixiy ruhdagi spektakllar tomoshabinlarni o'ziga jalb qila oldi. Chunki, dramaturglar o'z asarlarida milliy an'ana va urf-odatlarini, tarixiy siymolar taqdirini, kishilar hayotidagi soddalik va samimiylikni o'z asarlariga asos qilib oldilar. Shuningdek, zamondosh qahramonlar obrazi ham bu yillarda teatrning yetakchi mavzularidan biriga aylandi.

Dramaturgiya tarixidan ma'lumki, barcha zamonlardagi har qanday keskin ijtimoiy o'zgarish va yangicha hayot tarzi dramatik asarlar yaratilishi uchun yetarlicha ma'lumot hamda material bera olgan. O'zbekistondagi o'zgarishlar hamda yangilanishlar uchun kurashlar ham dramaturglar yaratishi lozim bo'lgan asarlari uchun poydevor vazifasini o'tashi lozim edi. Hafiz Abdusamatov, drama janriga to'xtalib – "SH.Boshbekovning "Tikansiz tipratikanlar" asarida hayotdagi yuz bergan voqea hodisalar, o'tmishda qilingan qing'ir ishlar yoshlar qalbiga kirib, ularning qalblari kurash maydoniga aylanib ketadi. Oqibatda, kechinmalar tashqariga otilib chiqib, ota-onalar bilan

ularning farzandlari o'rtasidan ziddiyatlar sifatida ifoda etiladi. Bu yerda qahramonlarning ichki dialektikasi o'z aksini topgan" [1. B. 30]. – deydi.

O'zbek teatri yangilanish davrida bir qator izlanishlar olib bordi. Natijada, janr jihatidan bir-biriga o'xshamagan dramatik, tarixiy, ijtimoiy hamda zamonaviy mavzulardagi asarlar teatr ijodkorlarining yangicha qarashi dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Bu borada o'zining zalvorli asarlari bilan o'zbek teatri sahnalarini egallagan dramaturg Usmon Azimdir. Uning teatrshunoslar tomonidan shunday tahlillanadi – “Usmon Azim pyesalarining o'ziga xosligi shundaki, unda hayot, voqealar silsilasi bir oqimda ko'rsatilmaydi, balki, shunday voqealar, qahramonlar, holatlar tanlab olinadiki, unda hayot ko'tarinki ruhda aks ettiriladi. Uning qahramonlari tilida yuksak poeziya, mo'ljalga teguvchi so'zlar, hissiyotlar to'lqinini tasvirlovchi ifodalar mavjud bo'lib, ularning ichki dunyosini to'liq ochib berishga yordam beradi” [2. B. 103].

Usmon Azim dramaturgiyasida ko'tarilgan ijtimoiy muammolar, falsafiy mazmunlar, so'zdan mohirona foydalanishi, talabchanlik bilan yaratilgan badiiy xarakterlar kuchliligi bilan o'z muxlislari e'tiborini tortadi. Adib, sahna asarlari orqali, davr ruhiyatidan xabar beruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Jamiyatni nopokliklardan holi qilish, uni asarashdek vazifani ilgari suradi.

Usmon Azimning ilk dramatik asari “Bir qadam yo'l” deb nomlanib, Omon Abdurazzoqov tomonidan 1985 yil Toshkent teatr va rassomlik instituti sahnasida musiqali drama kursining “Diplom spektakli” shaklida sahnalashtirilgan. Armonda o'tgan Ota rolini tanbur chaladigan talaba ijro etgan. “Bir qadam yo'l – umr yo'li, tug'ilmoq va o'lmoq orasi. Inson o'z qavmi qalbidan joy olmog'i uchun ham, uning istiqboliga tashlangan bir qadam kifoY. Ana shu bir qadam yo'lni bosib, umri poyoniga yetib qolgan chol, ko'ringki, bir qadam naridagi Samarqandni ko'rmabdi. Umri bo'yi orzu qilibdi, intilibdi-yu, ammo sira fursat topmabdi. Mana, endi niyatini amalga oshirmoq ilinjida. Shahardan kelgan boyvachcha o'g'il – Shokir otasini muazzam shahar

tomoshasiga olib bormoqchi. Lekin, niyat amalga oshguncha o'tadigan ikki-uch kunlik fursat shunchalar tig'iz, shunchalar sertashvishki, oxir-oqibat yana safarni keyinroqqa surishga to'g'ri kelib qoladi. Shu kunlar adog'ida esa paymonasi to'lib yurgan cholning armoni ushalmay, umri ham adog'iga yetadi..." [3.] 1980 yillarda yozilgan "Bir qadam yo'l" nomli ilk pyesasining fabulasi ana shundan iborat. Muallifning "Bir qadam yo'l" dramasi bir necha marotaba qayta ishlandi. Ozod Sharofiddinov asar bilan tanishib chiqqanidan so'ng, drama "Jahon adabiyoti" jurnalida chop ettiradi. Shundan so'ng, Valijon Umarov uni Hamza teatrida sahnalashtirishga muvaffaq bo'ladi. Spektaklda Milliy teatrning zabardast aktyorlari o'z rollarini mahorat bilan ijro etishadi. Bu drama uzoq yillar teatr repertuaridan o'rin oladi.

Adib "Tong otgan taraflarda" asari bilan xalqparvar insonlar haqidagi afsonaviy voqelarni o'zida mujassam etadi. Dramada milliy o'zlikni anglash, mardlik, jasorat, oriyat, millat uchun kurash, xalq uchun o'z jonini fido qilish, farzandga muhabbat kabi masalalar hamda xalq va millat taqdiri, uning oldidagi burchi, unga bo'lgan muhabbat masalalariga alohida to'xtalib o'tiladi. Ushbu asarni yosh rejissyorlardan biri Asqar Xolmo'minov milliy teatrdan sahnalashtirgan. Dramada konfliktni keltirib chiqargan sabab va ilgari surilgan g'oya bir-biriga o'zaro hamohang bo'lib, bir-birini to'ldirgani uchun tomoshabinlarning milliy o'zlikni anglashida samarali xizmat qildi.

Zamonaviy teatrdagi, zamonaviy spektakllar qachon yozilganligidan qat'iy nazar, zamona ruhini bergan holda sahnalashtirilsa, tomoshaviylik va badiiylik o'z o'rnida ta'minlanadi. Bu borada G.Tovstogonov shunday deydi – "Zamonaviylik – san'atning eng asosiy muammosi, albatta, uni hal etish birgina insonning qo'lidan kelmaydi... Zamonaviy teatr – bu zamonaviy pyesa, zamonaviy rejissura, zamonaviy aktyorlar, zamonaviy tomoshabinlarning birlashishi. Zamonaviy teatr – bu zamonaviy shakl bilan ifoda etilgan zamonaviy g'oya. Zamonaviy teatr – hayotni, ayniqsa to'liqroq va teranroq aks ettiradigan teatr" [4. B. 82]. Bu masalani bundan ortiq izohlab bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, adabiyotshunos olim Shuhrat

Rizayev Usmon Azimning – “Kunduzsiz kechalar”, “Adibning umri” va “Abdulla Qahhor” nomli ijtimoiy-tarixiy-biografik asarlarni “adabiy uchlik” – “trilogiya” deb ataydi. Usmon Azimning bu asarlari ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, tarix, adabiyotni tanishida beqiyos ahamiyatga ega. Usmon Azimning bu asarlari mustabid tuzum davrida yozilgan bo‘lishiga qaramay, mustaqillik yillarida shov-shuvlarga ko‘milib, teatr sahnalarida namoyish etildi. Sahna asarlari milliy an’analar, urf-odatlar va o‘zbekona xarakterlar bilan sug‘orilganligi uchun o‘z qadrini topdi. Bugungacha o‘zbek drama teatrlarida mustaqillik yillarida obraz yaratish tendensiyalari o‘rganilmagan bo‘lib, uni o‘rganish teatrshunoslik ilmining yaxlitligini ta’minlagan bo‘ladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

- 1.** Abdusamatov H. Drama nazariyasi. –T.: Adabiyot va san’at., 2000. S. 30-31.
- 2.** Bayandiyev T., Ikromov X., Axmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. –T.: Fan va texnologiy. 2009. S. 103.
- 3.** Shuhrat Rizo. Usmon Azim ijodiy portretiga chizgilar. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/usmon-azim-ijodi.html>
- 4.** Tovstonogov G. Зеркало сцены. Т.1. – Len.: Iskusstvo. 1984. S. 82.

## MUHAMMADSIDDIQ SHERAYEV – ASKIYA SAN’ATI USTUNI!

**Shaxnoza Rajabova,**

**O‘zDSMI uslubchisi**

### **Annotatsiya**

Maqolada o‘zbek askiya san’atining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, “Do‘stlik” ordeni sohibi Muhammadsiddiq Sherayevning hayotiy va ijodiy faoliyati, uning askiya va kulgu san’ati rivojida qo‘shgan xissasi hamda sohadagi o‘ziga hos o‘rni yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** askiya, kulgu, drama, latifa, minyaturalar teatri, so‘z o‘yini, qochirim, kinoya, hozirjavoblik, ziyraklik.*

### **Аннотация**

В статье описывается жизнь и творчество Мухаммадсиддика Шераева, одного из ярчайших представителей узбекского искусства аския, заслуженного художника Узбекистана, кавалера ордена «Достлик», его вклад в развитие аския и юмористического искусства, а также подчеркивается его уникальная роль в этой области.

***Ключевые слова:** аския, смех, драма, анекдот, театр миниатюр, игра слов, шутка, сарказм, непосредственность, остроумие.*

### **Annotation**

The article describes the life and creative work of Muhammadsiddiq Sherayev, one of the brightest representatives of the Uzbek askiya art, the honored artist of Uzbekistan, the owner of the "Dostlik" order, his contribution to the development of askiya and humor art, and its unique role in the field is highlighted.

***KeyWords:** askiya, laughter, drama, anecdote, theater of miniatures, word game, joke, sarcasm, immediacy, cleverness.*

O‘zbek xalqi azaldan hazil-mutoyibaga va kulguga oshno xalqlardan hisonlanadi. O‘zbekning biror xonadoni yo‘qki Afandi latifalarini eshitmagan va do‘stlar, oila davrasida miriqib kulmagan bo‘lsa. Butun dunyo shifokorlarining aniqlashicha, kulgi – ko‘pgina kasalliklarni davolovchi ajoyib dori. Abu Ali ibn Sino “Bemor kulayotgan lahzalarida yuz foiz sog‘lom odam holatida bo‘ladi!” degan edi.

Har bir millatning kulguga bo‘lgan munosabati, qarashi, moyilligi turlicha. O‘zbek xalq ijodining yorqin janrlaridan biri hisoblangan askiya san’ati ayniqsa Farg‘ona vodiysi tomonlarda juda keng rivojlangan va tarqalgan.

**Askiya** (arab, zakiy — o‘tkir zehnli, hozirjavob) — o‘zbek xalq og‘zaki ijodi turi; folklor janri, ikki va undan ziyod kishi yoki guruhning xalq yig‘inlari (sayil, to‘y, bayram)da ma’lum mavzu bo‘yicha badiiy so‘zda tortishuvi. Taraflar ba’zan davrada, ba’zan qarama-qarshi o‘tirgan, turgan yoki yurgan holda tez javob berishga, o‘z javoblarini lo‘nda, serma’no, latif, ta’sirli, jozibali va kulgili chiqarishga harakat qiladilar. Javob topishda qaysi taraf mavzu, janr doirasidan chetlashsa yoki so‘z tanlashda pala-partishlikka yo‘l qo‘ysa o‘sha taraf yengilgan hisoblanadi. Tomoshabin o‘z kulgisi va ehtirosli qiyqiriqlari bilan taraflar va ularning javoblariga baho berib boradi; mazmundor, serqochirim Askiyadan zavqlanadi, sayoz va qo‘pollaridan ranjiydi. Askiyaning mazmunli, serzavq, kulgili chiqishida taraflardan hozirjavoblik, badihago‘ylik, shuningdek mavzuga aloqador keng va chuqur ma’noli so‘zlarni topa bilish, yuz, ko‘z, qo‘l, tana harakatlaridan, tovush va imo-ishoralardan o‘rinli foydalana bilish talab etiladi<sup>17</sup>.

**Askiyachi** - Askiya turlarini mukammal egallagan, katta davralarda tortisha oladigan kishilar askiyachi, askiyaboz deb ataladi. Turkistonda bunday kishilar badihago‘y nomi bilan yuritilgan. Askiyachi tilning keng imkoniyatlarini puxta egallagan, so‘z o‘yini, qochirim, hazil-mutoyiba, kinoya, tashbih, kesatiq, o‘xshatish, mubolag‘a, mashara kabi hajv san’ati vositalaridan ustalik bilan foydalana oladigan bo‘lishi lozim. Askiya tortishuvida zakiylik, hozir-javoblik asosiy me-zon hisoblanadi. Askiyaning vazifasi kulgi chiqarish orqali kishilarning kayfiyatini rostdash, ularga zavq baxsh etish, muayyan mavzu doirasida ularning bilimlarini yanada kengaytirish, aklini, fikrini charxlash, ziyrak, hozirjavob bo‘lishga da’vat etish, shu bilan birga turmushdagi va ayrim kishilar xulqidagi kamchiliklar ustidan yengil kulgi uyg‘otishdir<sup>18</sup>.

---

<sup>17</sup> *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 — 106 bet.

<sup>18</sup> *Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati*. Sharq NMAK, 2001 — 20 bet.

Yuqoridagi xususiyatlarni o'zida jamlagan, ustozi Yusufjon qiziq Shakarjonov ijodining munosib davomchilaridan biri hisoblangan Muhammadsiddiq Sherayevning yorqin ijod faoliyati, o'zbek askiya va kulgu san'atiga qo'shgan katta hissasi haqida to'xtalmaslik ilojsiz.

Muhammadsiddiq (Mamasiddiq) Sherayev 1946-yil, 10-avgustda Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahrida hunarmandlar oilasida dunyoga kelgan. Uning ismini bobosi Nishonboy hoji ota Marg'ilondagi ulug'lardan maslahat so'ragan holda Muhammadsiddiq deb qo'ygan. Otasi Qamchibek ota atlas to'qib, onasi Maqsudaxon aya do'ppi tikib, ularni Marg'ilon bozorlarida sotish orqali ro'zg'or tebratishgan. Yosh Muhammadsiddiq onasi bilan bozorga birga borar va bozor maydonidagi so'rilarda oqsoqollarning choy ichib, dam olib o'tirishganiga guvoh bo'lar edi. Ular orasida Yusufjon qiziq Shakarjonovning borligi, Yusuf qiziqning odamlarga qilgan munosabati, odamlarning ham unga bo'lgan hurmati Muhammadsiddiqning e'tiborini tortadi. U yoshlik chog'idanoq Yusufjon qiziqdek inson bo'laman deb niyat qiladi. Maktab davrlaridanoq rubob va doira to'garaklariga qatnashib, turli hil miniaturalar, latifa va hikoyalar ijro qilish bilan birga sozlar ham chalib san'atga bo'lgan iste'dodini namoyon qila boshlaydi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan Muhammadsiddiq 1964-yilda Toshkent shahridagi Teatr va rassomchilik hozirgi (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat) institutiga hujjat topshiradi va afsuski unga talabalik baxti nasib qilmaydi. Shundan so'ng Muhammadsiddiq oilada yolg'iz farzand bo'lganligi sababli, onasining maslahati bilan Farg'ona Politexnika institutiga hujjat topshiradi va o'qishga muvaffaqiyatli qabul qilinadi. Bir yil o'qigandan so'ng Muhammadsiddiqning san'atga bo'lgan ulkan qiziqishi yana Teatr va rassomchilik instituti tomon boshlaydi. O'qishga imtihonga topshirgani kelgan Muhammadsiddiqdan o'sha vaqtda institut rektori hisoblangan Xamid Abdullayevichni shaxsan o'zlari imtihon qabul qiladilar va Muhammadsiddiqni bir yil oldin ham imtihonga kelganini eslaydilar. Rektorning unga qarata bergan "Yana kira olmasang nima qilasan" –degan

savoliga yosh qiziqchi “Kira olmasam mana shu yerda shunday yuraverib, pensiyaga chiqib ketaman” –deb hazilomuz javob qaytaradi. Bu javob hammada kulgu uyg‘otadi. Bu mahmadonaligidan so‘ng yana o‘qishga kira olishidan umid uzgan Muhammadsiddiqqa aktyorlik mahoratidan eng yuqori balni qo‘yishadi va shunday qilib u va nihoyat Teatr va rassomchilik oliygohining talabasiga aylanadi. Talabalik yillarida Muqimiy va Xamza (hozirgi O‘zbek Milliy Akademik drama teatri) teatrlariga muntazam spektakllar namoyishiga borib, u yerda Shukur Burhonov, Soyib Xo‘jayev, Nabi Rahimov, Bahtiyor Ihtiyorov, Husan Sharipov kabi buyuk aktyorlarning spektakllarini ko‘rib, ularga havas ruhida oliygohni a‘lo baholarga tamomlaydi. Shundan so‘ng do‘sti Fotix Agzamovning 26 yoshida Jizzax teatrida faoliyat yuritayotgan davrida yosh vafot etganligi uchun uning xotirasi hurmatiga Jizzax teatriga ishlash uchun boradi. Jizzax teatridagi 2 yillik faoliyati davrida spektakllarda rollar ijro qiladi, to‘ylarda suhandonlik, konsertlarda turli hil chiqishlar qilib “Mamasiddiq Sherayev” bo‘lib el og‘ziga tushadi.

Jizzax teatridan keyingi faoliyatini o‘z ona yurti Farg‘ona teatrida davom ettiradi. Farg‘ona teatrida ham aktyorlik mahoratini namoyon qiluvchi bir qator spektakllarda rollar ijro qiladi. Teatrdagi 5-6 yillik ijodidan so‘ng uni Farg‘onadagi Madaniyat uyiga rejissor qilib tayinlashadi. Shunday qilib konsert tomoshalari, turli davralar va to‘y-tomoshalarda Muhammadsiddiq Sherayev faol ijod qila boshlaydi.

U o‘zining qaynoq ijod davrlarini eslar ekan, ulug‘ ustozlar askiya ustasi Zaynobiddin Yusupov, O‘zbekiston xalq hofisi Jo‘raxon Sulonov, O‘zbekiston xalq artistlari Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, Razzoq Hamrayevlar, Rasul qori Mamadaliyev, Qahramon Dadayev kabi bir qancha ustozlarni duosi uni katta sahnalar tomon olib chiqqanidan fahrlanadi.

Muhammadsiddiq Sherayev bilan bir sahnada 30 yildan ortiq ijod qilgan, uning o‘gitlari ortidan el-yurt oldida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan shogirdi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Hotamboy Hakimjonov ustozining o‘ziga xos hislatlaridan biri bo‘lgan talabchanlik va so‘zamollik

haqida to‘xtalib o‘tadi. “Akam davralarda tomoshabindan so‘rar edilar qaysi mavzuda askiya qilishimizni, hamma askiyachilar ham unday qila olmaydi, asosan oldindan tayyorgarlik qilingan mavzularda askiya aytiladi, ammo akam juda so‘zga usta, hozirjavob edilar, tomoshabin qaysi mavzuni tanlasa shu mavzuda askiya aytib ketar edilar”. - deb eslaydi shogirdi Hotamboym Hakimjonov. Huddi shu ta‘rifni so‘z ustasi Abdulla Akbarov ham ta‘kidlaydi.

Aytish joizki, Alloh yuqtirgan aql-zakovat, ziyraklik, so‘zamollik, hozirjavoblik va iste‘dod Muhammadsiddiq Sherayevning o‘zbek askiya va kulgu san‘ati qiroli, ustuni darajasiga olib chiqa oldi. U nafaqat ijodkor, qiziqchi sifatida balki O‘zbek askiya san‘atini yosh avlodga yetkazish yo‘lida ham katta jonbozlik ko‘rsatgan inson sifatida ham tarixda qoldi. Aynan Muhammadsiddiq Sherayevning tashabbusi bilan avvaliga 2006-yilda “Muhammadsiddiq askiyasi” nomli xususiy korxonani ochib u yerda kulgu va askiyaga qiziqishi bo‘lgan yoshlarni bir yerga jamlab, ularga kasb sirlarini o‘rgata boshladi. 2023-yil 11-iyuldagi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Respublikada milliy askiya va qaziqchilik sa‘natini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Farg‘onada tashkil etilgan Yusufjon qiziq Shakarjonov” nomidagi Respublika Askiya va qiziqchilik san‘ati markazi asoschilaridan biri hisoblanadi. Umrining so‘ngiga qadar Muhammadsiddiq Sherayev ushbu Markaz badiiy rahbari hamda Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatrining oliy toifali drama artisti sifatida faoliyat yuritdi.

O‘z intervyularidan birida u shunday deydi – “Xalq ijodida o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan, xususan, Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan askiyaga bolaligimizdan mehr qo‘yganmiz. To‘ylar, sayil va tomoshalar askiyasiz o‘tmasdi. “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?” deb boshlanadigan ikki guruhning taraf-taraf bahsi, so‘z o‘yinlariyu qiziq-qiziq hangomalaridan yurakdan otilib chiqqan qah-qahali davralarning fayzi boshqacha-da...

– Ana shunday fayzli davralarning birida ustozimiz Yusufjon qiziq Shakarjonov bizga nasihat qilib bir hayotiy latifani aytib bergan, – deydi

Mamasiddiq Sherayev. “Ustoz 5-6 ta oshnalari bilan ko‘chada hangomalashib tursa, eshakaravaga o‘tin yuklagan bir chol kelib qolibdi. “Usta buva, o‘tiningiz qanchadan endi?” deb so‘rabdi Yusufjon qiziq. “Atigi bir tanga, ya'ni yigirma tiyin, qimmat emas,” deпти chol. Shunda ustozimiz “E, buva, eshakaravasi bilanmi?” debdi atay... Bu gapdan keyin biroz jahli chiqqan o‘tinchi “Yo‘q, eshshaksiz, Yusufjon!” deb ketib qolgan ekan. Avvaliga bu javobni atrofidagi sheriklari uncha anglamabdi. Ustoz qaytadan o‘tinchi bilan bo‘lgan suhbatni aytib bergach, rosa kulishgan va oddiygina cholning zakovatiga tan berishgan ekan. Yusufjon qiziq ushbu latifani shogirdlariga aytib bo‘lgach “Hech qachon zo‘rman deb kibrga berilmanglar, hamisha sahnada kutilmagan askiyalarga tayyor turinglar. Oddiy xalq ichidan chiqqan odam ham zo‘r javob berib mot qilib qo‘yishi mumkin”, deya tayinlagan edi deb eslaydi kulgu ustasi.

Muhammadsiddiq Sherayev boshchiligidagi askiyachilar guruhi 20 yildan ziyod Respublika miqyosidagi Navro‘z, Mustaqillik bayramlarida o‘zlarining chiqishlari bilan ishtirok etishgan. Nafaqat xalqimiz ongida askiya san‘atining yorqin namoyondasi sifatida o‘chmas iz qoldirgan, balki o‘zbek askiya va kulgu san‘ati uchun xizmat qiladigan ko‘plab shogirdlar qoldirgan, askiya san‘ati kelajagiga mustahkam poydevor yaratib ketgan buyuk so‘z ustasi, kulgu qiroli, askiya ustuni – Muhammadsiddiq Sherayev 2023-yilning, 21-noyabr sanasida ota yurti Farg‘onada, 77 yoshida vafot etdi. Undan o‘zbek askiya san‘atiga katta ijodiy va betakror meros qoldi. Uning shogirdlari ushbu merosni va askiya san‘atidek xalqimizning milliy qadriyatini yosh avlodga munosib yetkazish yo‘lida doimo izlanishdalar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006
2. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. Sharq NMAK, 2001
3. PQ- “Respublikada milliy askiya va qaziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi qarori
4. RuxsorTV- YouTube kanali internet materiallari
5. Wikipediya ma’lumotlari

## **ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALAR REJISSURASIDA HUJJATLI MANBALARNING BADIY SINTEZI**

**Jahongir MAMATQOSIMOV**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasining muhim asosi bo‘lmish hujjatli manbalarning badiiy sintezi va ulardan foydalanish usullari yoritilgan. Hujjatli manbalarni badiiylashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** estrada, tomosha, ommaviy bayram, hujjat, dalil, badiiy sintez, ssenariy, dramaturgiya, rejissor, rejissura.

Bayram va tomoshalar moziyning badiiy sayqali bo‘lib, unda o‘lmas tarix, milliy qadriyat va an‘ana, marosimlar aks etadi. Bayram va tomoshalar hayotiy va badiiy haqiqatga asoslanib, millat va davlatning buyuk tarixini kuylaydi.

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir [1, 29].

Shu ma’noda, yestrada va ommaviy tomoshalar rejissurasida ommaviylik va badiiylik kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatuvchi vosita hisoblanib, mazkur jarayonda mahalliy dalillarning eng ishonarli mezoni hujjatlarni badiiy sintezlashdir.

Rejissor qaysi davrda hoh u spektakl, hoh u bayramda ijod qilmasin, pesa va ssenariyning asosi sifatida tarixiy hujjatlar, arxiv ma’lumotlariga suyanadi. Hujjatli va tarixiy ma’lumotlar asosida badiiy-ifodoviy vositalar orqali

yoritilgan sahnaviy asarlar tomoshabinga kuchli ta'sir etib, hayotiylik prinsipiga asoslanadi.

Estrada va ommaviy tomoshalarda hujjatli manbalardan foydalanish rejissuraning puxtaligi, mahalliy dalillarning realligi, tomoshaning emotsionalligi va effektivligidan dalolat berib, ma'naviy va estetik ahamiyatini ta'minlaydi.

Hujjat – keng ma'noda – ma'lumotlar qayd etilgan moddiy buyumlar (qog'oz, kinoplyonka, fotoplyonka, magnitofon lentasi, perfokarta va b.). Hujjat matn, tasvir, tovush va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Mazmuniga ko'ra, hujjat ilmiy-texnika hujjatlari (maqolalar, kitoblar, patentlar, chizmalar, jadvallar va h.k.), huquqiy hujjatlar (qarorlar, farmonlar, shartnomalar va h.k.), boshqaruv hujjatlari (buyruqlar, ko'rsatmalar, qarorlar va h.k.)ga bo'linadi. Shakllanish manbaiga ko'ra, birlamchi va ikkilamchi (referatlar, annotatsiyalar va h.k.) hujjatlar farqlanadi [6, 388].

D.M.Genkinning fikricha – “Ommaviy bayramlar dramaturgiyasi va rejissurasining o'ziga xosligi bu hujjatlilikdir. Ommaviy tomoshani sahnalashtirishning asosiy prinsipi bu – hayotiy materialni dramaturgik qayta ishlab, real hayotni teatrlashtirishdir. Ommaviy tomoshalar dramaturgiyasi va rejissurasi ikki yo'nalish bo'yicha – hujjatli publitsistika va badiiy obrazlilik – rivojlanib, ssenariyga masshtablilik va ta'sirchanlikni baxsh etadi” [5, 90].

Tarixiy-hujjatli janrda yozilgan asar haqqoniy hujjatlarga asoslanib yoziladi. U ham adabiy badiiy asar hisoblanib, o'zining badiiy vazifalari bo'yicha boshqa janrlardan farq qilmaydi. U emotsional ta'sir qila olishi kerak. Uning qahramonlari tipik badiiy obrazlarda bo'lganidek, insoniy individual xarakterga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tarixiy-hujjatli janrdagi asar emotsional ta'sirga ega bo'lib, an'anaviy badiiy uslublar unchalik kuchli ta'sir qila olmaganida yordamga keladi [2, 159].

Zamonaviy dramatik teatrdagi badiiy asarning negiziga aniq qo'shib yuborilgan va tomoshabinga qaysidir nuqtai nazardan havola etilgan hujjat eng

kuchli ifoda vositalaridan biri bo‘lib kelgan. Hatto yuzlab “hujjatli dramalar” yuzaga kelmoqda [4, 46].

Hujjatlarning o‘zida – tayyor dramatik struktura bo‘lmaydi – deydi F.Ahmedov. Hujjatli, tarixiy materiallarni badiiy adabiyotda – pesa yoki ssenariyda – qo‘llashning o‘zi yetarli emas. Bo‘lajak hujjatli asarni yaratish, g‘oyaviy va badiiy masalalarni topish va hujjatli materialni topish va tanlash jarayonida boshlanadi. Faqat bo‘lajak asarlarni g‘oyasi bo‘lsagina, muallif u yoki bu materialni qayerda, qanday ishlatish, auditoriyaga qanday ta’sir qilishini ko‘rib chiqishi mumkin bo‘ladi. Shundan so‘nggina, qaysi hujjat asarning (pesa yoki ssenariyning) g‘oyasiga to‘g‘ri kelishi yoki uning boshlang‘ich yo‘nalishiga muallifning qayta ishlashi, yordami kerak bo‘ladimi, bu ijodiy jarayonda aniqlanadi [2, 160-161].

«Hujjatni mualliflik qayta ishlashi deganda, bir manbani badiiy sintezlash yoki boshqa manbalar bilan qo‘shib, uni kerakli kontekst asosida sahnalashtirishi ko‘zda tutiladi. Manbani qayta ishlash jarayonida, qanday ma’lumotlar bo‘lishidan qat’i nazar, umuman soxtalashtirib bo‘lmaydi» [3, 39].

Hujjatlarning soxtalanishi nafaqat badiiy asar g‘oyasi va saviyasiga, balki real haqiqatning buzilishiga olib keladi. Qolaversa hujjatlarni soxtalashtirish qonunan taqiqlangan bo‘lib, o‘z javobgarligi bor.

Estrada va ommaviy tomoshalaridagi hujjatlilik harakat bilan o‘tadigan joyni tanlash bilan uzviy bog‘liqdir. Mahalliy dalil tomoshabinga yaqin va tushunarli bo‘lib, boshqalardan ko‘ra unga emotsionalroq ta’sir qiladi. Shuning uchun rejissor-ssenarist mahalliy hujjat va omillarni yaxshilab, to‘liq o‘rganishi kerak. Ssenariy ustida ishlash jarayonida, ssenariyning ilk g‘oyasi, bir necha bor qayta ishlanishi mumkin. Ba’zida bitta yangi hujjat, epizodning yo‘nalishini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Bu juda uzoq mehnat talab qiladigan murakkab ishdir.

Hujjatlar to‘plangach, montaj jarayoni boshlanadi. Bunda hujjatlar badiiy sintezlanib insseniroyka qilinadi. Aniq montaj qilingan, ustalik bilan

badiylashtirilgan hujjat, ssenariyni sahnalashtirishdagi eng harakatchan, effektiv vosita hisoblanadi.


Estrada va ommaviy tomoshalarda tarixiy hujjatlarni badiiy vositalar orqali sintezlash juda qiyin jarayon bo‘lib, rejissordan keng fikr qila olishni, tarixni yaxshi bilish, tanlangan manbalardan to‘g‘ri foydalana olish kabi mahoratni talab qiladi. Biron hujjatni yoki dalilni noto‘g‘ri talqin etish oqibatida, minglab odamlarni namoyish etilgan tarixiy voqealarga bo‘lgan fikrlarini noto‘g‘ri yo‘lga burib yuborishi mumkin. Shuning uchun material chuqur o‘rganilganidan keyingina ssenariy ustidagi ishni boshlash mumkin.

“Ommaviy tadbir dramaturgiyasi va rejissurasi, qonunga binoan, aniq dalillarga va ularning mag‘zini chaqishga asoslangan... Demak, mana shu ikkita chiziqning birikuvchi, Ya’ni hujjatli publitsistika va badiiy obrazlilik – ssenariyda chuqur mazmunlilik, keng ko‘lamlilik va ifodalilikni paydo qiladi....” [5, 121].

“Qiziqarli ma’lumotlar ummoni ro‘parasida hovliqish va unga shaydo bo‘lmaslik zarur. Bu, albatta, qiyin narsa, Ya’ni tayyor ma’lumotlar dengizida cho‘kib ketmaslik uchun ssenariy yozuvchi bo‘lajak tadbirning “qovurg‘asini” ko‘z oldida saqlashi, har doim uning oliy maqsadini esda tutishi zarur” [4, 48-49].

Hujjatli material va dalillarni dramaturgiya qoidalariga asoslangan holda qurish – to‘liq badiiy adabiyotning talabiga javob beradi. Hujjatli asarlarda ham lirik chekinish, to‘qima bo‘ladi. Lirik chekinish yordamida, badiiy lirik uslublar bilan hujjatlar boyitilib, emotsional ta’sir qilish darajasiga olib chiqiladi.

Amaliy tajribalarga tayangan holda quyida hujjatli manbalarni badiylashtirish mexanizmi tavsiya etiladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Hujjatli manbalarni badiylashtirish mexanizmi**

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, muvaffaqiyatli saralangan, aniq montaj qilingan va mohirlik bilan shoirona tus berilgan hujjat ssenariyda va ommaviy teatrlashtirilgan tadbirda eng harakatchan, eng kuchli taassurot tug‘diradigan vositaga aylanadi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni kat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008.
3. Al D.N. Osnovi dramaturgii i ssenarnogo masterstva. – Moskva: Prosvesheniye, 1991. – S. 39.
4. Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.
5. Genkin D.M. Massoviye prazdniki. – Moskva: Prosvesheniye, 1975.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. Qizilqumit – Ho‘rmuz. Tahrir hay’ati A.Azizxo‘jayev, B.Alimov, M.Aminov va b. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

## SPETSIFIKA PREPODAVANIYA PREDMETOV “ISTORIKO-BITOVOY TANETS” I “BALNIY TANETS” NA AKTERSKIX KURSAX V TEATRALNIX VUZAX.

Ostanina Olga Anatolyevna I.o dotsenta kafedri  
“Ssenicheskoye dvijeniye i fizicheskaya kultura”  
Gosudarstvenniy institut iskusstv i kulturi Uzbekistana.  
[olga.ostanina.67@mail.ru](mailto:olga.ostanina.67@mail.ru)

**Аннотация:** В данной статье автор говорит о специфике преподавания предметов “Историко-битовой танец” и “Балный танец” на актерских курсах.

**Ключевые слова:** танец, сценическая пластика, мастерство актера, хореография, исторический танец.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif “Tarixiy-maishiy raqs” va “Ball raqsi” fanlarini aktyorlik kurslarida o‘qitish xususiyati haqida so‘z yuritgan.

**Kalit so'zlar:** raqs, sahna plastikasi, aktyorning mahorati, xoreografiya, tarixiy raqs.

**Annotation:** In this article, the author talks about the specifics of teaching the subjects “Historical dance” and “Ballroom dance” in acting courses.

**Key words:** dance, stage plasticity, actor's skill, choreography, historical dance.

*Танец можно смело назвать началом всех искусств, и он, конечно, один из самых красивых видов искусств. И один из самых древних. Танцевальное искусство начало формироваться еще на заре человеческой цивилизации, как один из способов восприятия окружающего мира. Передача смыслов происходила при помощи жестов, движений тела, ритма и позднее музыки. Танец дает возможность выразит самые яркие чувства. Танец позволяет сделать музыку осязаемой, не зря существует выражение: “Танец – это музыка для глаз”. Очень часто режиссеры драматических театров используют хореографию в своих постановках в самых экспрессивных кульминационных моментах, когда слова уже не*

могут выразить всю полноту переживаний действующих лиц. *“Музыка и поэзия существуют во времени; живопись и архитектура - в пространстве. А танец живет одновременно во времени и в пространстве. Творец и творение ... являются одним и тем же”*. [1] В обучении актера драматического (или любого другого) театра танец, как учебная дисциплина, играет очень важную роль. Как известно, у актера есть только одно средство выразительности на сцене - его тело. Голос и речь также являются продуктом тела. Другие средства выразительности, используемые на сцене, зависят от других участников театрального процесса: режиссера, драматурга, композитора, художника, гримера и так далее. Все двигательные дисциплины (ритмика, пластика, танец, сценическое движение, бой, фехтование, акробатика) направлены на формирование пластически выразительного и “умного” физического аппарата, главного инструмента актера. Тело - инструмент, такой же как голос и речь. Зритель видит тело актера, слышит его голос. “Половина того, из чего складывается впечатление об актере, это его походка, стат, движение. Актерам нужны танцевальные техники, чтобы тело работало как часы”. [2] С самых первых занятий студенты актерских курсов приобщаются к тайнам хореографического искусства. Будущим актерам преподаются разные направления в области хореографии: классический танец, народно-характерный танец, Узбекский танец (в том числе изучаются основы всех школ Узбекского танца – Ферганского, Бухарского, Хорезмского). И совсем небольшое количество часов отводится на историко-бытовую и современный балетный танец. К большому огорчению. И, конечно, нельзя не отметить значительную роль танца в эстетическом воспитании будущих актеров. Работа с музыкой разных эпох, костюмами, этикетом, поклонами и манерами исполнения различных массовых и дуэтных танцев, позволяют значительно расширить кругозор и привить чувство правильного взаимоотношения между мужчиной и женщиной. Наряду с классическим и народным танцем,

историко-битовой и балний танецс прекрасно ставят спину, формируют правильную осанку, вирабативают хорошие манеры и благородство движения, формируют прекрасное чувство стилей. Изучая исторические танси разных веков, студенты знакомятся с историей развития театралного искусства, музыки, живописи, балета, этикета определенных эпох и костюма, королевских династий, развития человечества. “Старинные танси позволяют существоват совершенно в отличном от нашего времени темпо-ритме. Они воспитивают не толко определенные тансевальные навикки, но и позволяют приобрести человеческие, редкостные в наше время качества, такие, как, достоинство, уважение к человеку, осознание самого себя и т.д.”. [3] За последние годи существенно сократилос общее количество часов на изучение многих движенческих дисциплин, в том числе и танса! Это очен тревожный “звонок”. На сценических площадках Узбекистана по-прежнему ставятся исторические и монументальные произведения, где от актера требуется знания и умения в области фехтования, исторического поклона, танса. Уже в этом 2023-2024 году в половину сократилис часи по ритмике и пластике на отделениях “Актер эстрадных и массових представлений” и “Актер театра кукол”. С методической точки зрения, нет смысла оставлять начало обучения движенческим дисциплинам на последних курсах. Уже слишком поздно, студенты практически формируются как будущие актеры. И недостаточно времени для овладения техникой исполнения того или иного движения, буд то танецс или сценический бой. В результате студенты получают очен поверхностное, “непрофессиональное” образование в области театралного искусства. Сокращение часов по тансу приводит к определенному результату. К сожалению, болшинство современных студентов могут назват толко “Вальс” в качестве балного танса (может бит кто-то вспомнит полку). А такие прекрасные танси как: “Бранл”, “Менуэт”, “Полонез”, “Французская кадрил” и многие другие, постепенно уходят в небитие... Это не просто печално, это преступно! Уроки хореографии в

театральной школе не могут быть оторваны от актерского мастерства. Приходя на занятия, студент должен точно понимать суть своего урока. Каждое движение или упражнение необходимо проделывать с актерской задачей. Танец должен быть действенным. «Иными словами, как и на «мастерстве актера», занятия пластическими дисциплинами имеют своей целью научить студентов *сценическому действию при помощи пластики и танса*. Действовать – значит совершать направленный целесообразный поступок».[4]

В последние годы преподаватели по актерскому мастерству все реже обращаются к педагогам-движенцам и хореографам для совместных постановок дипломных спектаклей, что сказывается на качестве сценического исполнения и самой постановки в целом. Большую помощь может оказать режиссеру грамотный балетмейстер или педагог по сценическому движению. Танец может придать актерскому действию большей выразительности. Привнести в спектакль поэзию и нужный темпоритм всего спектакля. И как прекрасны и точны слова Анхеля де Куате в его «Учителе танцев»: «Танец — это мера и такт переполняющего тебя, сдерживаемого и лющегося через край чувства. Нужно быть внутренне готовым к тансу, нужно быть переполненным, чтобы танцевать».

#### **Используемая литература:**

- [1]. Чодоров Ж. Тхе Бодй ас Сймбол: Дансэ\Мовемент ин Анайлсис. // Тхе бодй ин Анайлсис. Чирон Публисатионс. 1986. Тело как символ: танец и движение в анализе. Год издания и номер журнала: 2005, Чодороу Дж. (Сачс 1937, с. 3).
- [2]. Александр Тронов. Язык тела: зачем актеру танец? [хтпс://фи.хсе.ру/бодй](http://фи.хсе.ру/бодй)
- [3] Э.А.Одинец. «Развитие рук актера-куколника на уроках танса». Коллективная монография. Санкт-Петербургская государственная академия театрального искусства. 2012 г. С.218
- [4]. А.И.Зиков. Современный танец в театральной школе. 2006г. [хтпс://пандиаонлине.ру/тект/77/271/37758.пхп](http://пандиаонлине.ру/тект/77/271/37758.пхп)

## MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARIDA RITORIK SO‘ROQ GAPLAR

*Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna*  
*“Folklor va etnografiya” kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Muhammad Yusuf dostonlaridagi ritorik so‘roq gaplar tasnifi, qo‘llanilishi, ularni qaysi usullarda foydalanilganligi, asar harakterini, mazmun-mohiyatini ochib berishida muhim ahamiyat kasb etganligi haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ritorik so‘roq gap, lingvopoetika, lingvistik aspekt, tasviriy vositalar, leksik, morfologik, sintaktik, doston.

## RITORICHESKIYE VOPROSITELNIYE PREDLOJENIYA V EPOSAX MUXAMMEDA YUSUFA

*Djamalxodjayeva Gulxumor Taxirovna*  
*Prepodavatel kafedri «Folklor i etnografiya».*

**Annotatsiya:** V etoy statye rasskazivayetsya o klassifikatsii, primenenii ritoricheskix voprositelnix predlojeniy v eposax Muxammada Yusufu, o tom, kakimi sposobami oni ispolzovalis, o tom, chto imelo znachenie dlya raskritiya xaraktera, soderjaniya proizvedeniya.

**Klyucheviy slova:** ritoricheskoye voprositelnoye predlojenie, lingvopoetika, lingvisticheskiy aspekt, izobrazitelniye sredstva, leksicheskoye, morfologicheskoye, sintaksicheskoye, epicheskoye.

## RHETORICAL INTERROGATIVE SENTENCES IN THE EPICS OF MUHAMMAD YUSUF

*Djamalkhodjayeva Gulxumor Takhirovna*  
*Teacher of the “Folklore va ethnography” department*

**Abstract:** This article describes the classification, the use of rhetorical interrogative sentences in the epics of Muhammad Yusuf, the ways in which they were used, and what was important for revealing the nature and content of the work.

**Keywords:** rhetorical interrogative sentence, linguopoetics, linguistic aspect, visual means, lexical, morphological, syntactic, epic.

Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo‘lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan ritorik so‘roq gaplar badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta‘minlovchi uslubiy vositalardan biridir. Aksariyat holatlarda ritorik so‘roq gaplar tarkibida *nahotki*, *axir* kabi ta‘kidni kuchaytiruvchi so‘zlar keladi. Ular nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta‘kidlashi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g‘azab

va nafratini ifodalashda juda qo‘l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo‘llaniladi.[1.78] Ayrim ilmiy manbalarda ritorik so‘roq gaplarning muhim ma‘no turlariga ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi: 1) ritorik-tasdiq; 2) ritorik-inkor; 3) ritorik-taajub; 4) ritorik-tashvish; 5) ritorik-g‘azab; 6) ritorik-gumon; 7) ritorik-kuchli hayajon.[2.127]

Muhammad Yusuf dostonlarida ritorik so‘roqning go‘zal namunalarini juda ko‘p marotaba qo‘llanilganligini kuzatamiz hamda yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda biz ham dostonlardagi ritorik so‘roq galarni turlarga ajratib tahlil qilamiz:

**Ritorik-tasdiq.** *“Qalay, bopladimmi?” Bu – uning qovoq yuzidagi nim tabassum.* Keltirilgan misolda –mi so‘roq yuklamasi yordamida hosil qilingan gapda tasdiq shaklidagi mazmun ifodalangan. Shoir ayni bu so‘roq gapni qahramonning qiyofasidagi holatiga nisbatan qo‘llaganligi ijodkorning mahoratidan darak beradi.

**Ritorik-inkor.** *Binobarin, Odam Ato bilan Momo Havoda ko‘rpa nima qilsin?..* (“Osmonning oxiri”) Matndan ko‘rinib turibdiki, so‘roq olmoshi orqali hosil qilingan ushbu ritorik so‘roq gap “Odam Ato bilan Momo Havoda ko‘rpa bo‘lmaydi” tarzidagi inkor mazmunli darakni ifodalagan va kuchli poetik ta‘kid olgan.

**Ritorik-taajub.** Muhammad Yusuf o‘zining “Qora quyosh” dostonidan olingan parchada birgina ritorik so‘roq gap orqali dostonda aytilmoqchi bo‘lgan alam, afsus, nadomat kabi ma‘nolarini o‘zida aks etgan ushbu jumlada taajub mazmunidagi ritorik so‘roqni kuzatamiz: *Kim endi bu adib? Qodiriyimi?... Cho‘lponmi yoki Usmon Nosirmi?!...* Ko‘rinadiki, doston mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holatda jadidlarning taqdiri qanday kechayotganligi, ularning qay biri, qay ahvolda ekanligi haqida muallifning ichki ruhiy holatida hayron bo‘lib, taajublanib, havotirlanib so‘roqlangan.

**Ritorik-tashvish.** So‘roq olmoshlari yordamida yuzaga kelgan ritorik so‘roq gaplarda tashvishlanish, achinish ma‘nolarini ifodalaydi. Berilgan parchada ritorik gap orqali tashvishlanish hissiy ta‘kidi aks etadi:

*Yer aylanar ko'ksiga*

*Sig'may jarohatlari,*

*Ayting, menda nima ayb,*

*Dunyo qoraxatlari?... (“Temirlar nidosi”)*

**Ritorik-g‘azab.** Adib ritorik so‘roqlar yordamida inson kayfiyatiga noxush ta’sir etadigan ottenkalarni ham bera olgan. Muahammad Yusuf “Qora quyosh” dostonidan olingan satrlarda ham qatag‘on qurboniga aylangan qamoqda yotgan Abdulla Qodiriyning holatini tasvirlashda ritorik so‘roq gap kuchli poetik darak mazmunini ifodalagan: *Bu ablahning oldiga meni kim boshlab bordi? Oyoqlarimmi? Men ularni hoziroq kesib tashlayman.* (“Qora quyosh”) Berilgan misralarda qahramonning g‘azab bilan o‘zini-o‘zi so‘roqlayotgan tasvirni shoir mahorat bilan ifodalaydi.

**Ritorik-gumon.** Quyidagi parchada ham bevisota qatg‘onlar bilan bog‘liq mazmunda gumon qilish ma’nosida ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin:

*Bu o‘lkada endi norg‘ul yigitlar yo‘q,*

*Boyqushlar bor, kalxatlar bor – burgutlar yo‘q,*

*Ne-ne Sulaymonlar, Abdulhamidlar yo‘q,*

*Qaytarmikan? Qaytmog‘iga umidlar yo‘q... (“Qora quyosh”)*

Anglashiladiki, ijodkor ushbu ritorik so‘roq gap orqali yurtimizga yana shunday ulug‘lar, ma’rifatparvarlar qaytadimi yo‘qmi deb ikkilangan holatda, gumon qilib so‘roqlaydi. Bu tarzda ritorik so‘roq gap orqali kuchli poetik ifodasini topgan

**Ritorik-kuchli hayajon.** Aytib o‘tish joizki, Muhammad Yusuf ona Vatanni ulug‘lab ko‘plab she’rlar yozgan. Ijodkor Vatanni qandaydir balandparvoz, jimjimador so‘zlar bilan emas, balki sodda va mag‘zi to‘q so‘zlar bilan tasvirlaydi. Quyidagi misolda ritorik so‘roq gapda aynan Vatanni madh etgan holatda, his-hayajonga to‘la savollar bilan taftish etilgan parchani kuzatamiz:

*Bo‘yi rayhon yurtimning*

*Qadrin bilib yurdimmi.  
Kulganda shod,  
Kuyinganda  
Bag‘rim kuyib yurdimmi?  
Dardin olay dedim,  
Lekin  
Dardin bilib yurdimmi?..  
Ey dil, sen ayt! (“Ey, dil...”)*

Mazkur keltirilgan ritorik kuchli-hayajon so‘roq gaplarni shakllantirgan *-mi* so‘roq yuklamasi hamda *yurmoq* fe‘l komponenti yordamida misrlarada takror qo‘llash orqali muallifning ruhiy holatini yuzaga chiqara olgan. Bu esa ritorik so‘roq gap asarning ta’sir kuchini oshirib, ma’no-mazmunini, mohiyatini yanada teranroq ifodalashga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, ritorik so‘roq gaplar nafaqat muallif ruhiy holatini o‘ziga xos ravishda ifodalaydi, balki kitobxonni ham beixtiyor mulohazaga undaydi. Biroq uning poetik vosita sifatida yanada muhim jihati shundaki, savollarning ichida javobi ham tayyor bo‘ladi. “Qora quyosh” dostonida mustabid davrinda mushkul ahvolga tushgan qahramonlarning dialogik tarzdagi tasviri fikrimizni dalillaydi:

*Umr nima, ey odam,  
Umr uchib ketgan qush.  
Armon nima, ey odam?  
Armon sedan chiqqan tush...*

*Omad nima, ey odam?  
Ikkala sog‘ qo‘lingdir.  
Orzu nima, ey odam?  
Orzu yurgan yo‘lingdir. (“Qora quyosh”)*

Yuqorida keltirilgan misolda muallifning qisqa izohi hayot va o‘lim, baxt va armon, inson va davr kabi boqiy falsafiy masalalarning dramatik tasviri ifodalangan.

Demak, ritorik so‘roq gaplardan adib dostonlarida juda faol qo‘llagan. Shuningdek, turli leksik hamda grammatik vositalar yordamida hosil qilingan ritorik so‘roq gaplarning poetik-tasviriy imkoniyatlaridan keng foydalanganligi ham e‘tiborga molikdir. Ijodkor tomonidan qo‘llanilgan ritorik so‘roq gapalar fikrni ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matning lisoniy tahlili. –Toshkent, 2008. 78-b
2. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995, 127-b.
3. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l elim – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 169 b.

# ZAMONAVIY SAN'AT TA'LIMIDA KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI

**Ermatova S.N.**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada san'at ta'limida: rejissyor, aktyor, folklor, cholg'uchi, xonanda, tasvirchi, san'atshunos, madaniyatshunos, kutubxona kabi o'nlab sohalarda tahsil olayotgan talabalarni o'qitish jarayoni va ularning bevosita ish faoliyatining yutuqlari va muammolari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, san'at, teatr, sahna, spektakl, rejissyor, aktyor, san'at ta'limi, ustoz-shogird.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar zahirida qadim tarixni o'rganish, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini keng targ'ib etish, ular tomonidan yaratilgan ulkan ishlarni namuna sifatida ko'rsatish, bir so'z bilan aytganda o'tmishdan faxrlanish va kelajakka ishonch masalalari o'rin olgan.

Har bir jabhada bosqichma-bosqich keskin tarzda ijobiy o'zgarishlar bo'lib borayotganligi, bu o'zgarishlar san'at va madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarni ham chetlab o'tmaganligini talabalarning ijodiy ishlarida ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Rejissyor, aktyor, folklor, cholg'uchi, xonanda, tasvirchi, san'atshunos, madaniyatshunos, kutubxona kabi o'nlab sohalarda tahsil olayotgan talabalar o'z mutaxassisliklaridan kelib chiqib ustoz-shogird an'alariga sodiq qolgan holda bor shijoati bilan mehnat qilayotganligi, buning natijasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotganligi fikrimiz isbotidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, O'zbekiston xalq artisti, professor Muhammadali Abduqunduzov tomonidan sahnalashtirilgan "Dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari ijrosidagi Usmon Azim asari asosida "Kunduzsiz kechalar" hamda Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari asosida spektakllar hamda Qo'chqor Norqobilning "Ikki oyoqli bo'rilar" asari

asosida “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedra professori J.A.Mamatqosimov rejissurasida “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari ijrosida sahnalashtirilgan spektakllarni ko‘rar ekanmiz bunda talabalar o‘z ijro mahoratlarini juda ta’sirli va professional darajada namoyish etganliklarini alohida e’tirof etishimiz mumkin.

Ana shunday istedodga ega talabalarning hammasi ham bugun teatlarda o‘z faoliyatlarini olib bormayotganliklari achinarli muammolardan biri ekanligini ta’kidlashimiz joiz bo‘ladi. Texnika asri shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda aynan san’at yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba yoshlarni nafaqat institut auditoriyalarida yoki institut teatrida emas balki Respublikamizning barcha professional teatrlariga yo‘llanma asosida ma’lum bir vaqt ishlab berish sharti bilan yuborishimiz masalasini ham bugun o‘ylab ko‘rishimiz kerak. Chunki bugun internet orqali san’at va nadaniyat institutini tamomlagan ko‘pgina istedodli yoshlar mo‘maygina daromad qilaman deb saviyasi birozgina mintalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan videoroliklarni olib tirikchilik qilishga o‘tib ketgani ham hech birimizga sir emas.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarimizga faqatgina ayrim yengil yelpi videoroliklar olayotgan yoshlarimiz emas balki biz kattalarning ham qaysidir ma’noda aybimiz bordek. Talaba-aktyorlarni nafaqat poytaxt teatrlariga emas balki viloyat teatrlariga ham olib borib teatr va institut bilan bog‘lagan holda ustoz-shogird an’analarini tashkil qilinishini mutaxassislar o‘zlarining yillik o‘quv rejalariga kiritishlari kerakdek nazarimda.

O‘zbek teatr san’atini bugungi mavqega olib chiqish uchun qanchadan qancha zahmatkash teatr fidoiylari va ma’rifatparvarlarning mehnati singganligini unutmasligimiz kerak.

Talaba-aktyorning bor mahoratini shakllantirib ularni professional teatrga tayyorlab mutaxassis qilib yetishtirishda bir qolipga tushib qolishining oldini olish bevosita kattalarga ya’ni professor-o‘qituvchilar hamda ustoz san’atkorlarga bog‘liq.

Bu to'g'risida o'zbek teatri rivoji uchun tamal toshini qo'ygan otaxon rejissyor Mannon Uyg'ur o'zining o'rinli va ibratli fikrini quyidagicha aytib o'tgan, "... Teatrimizning ishida yuz bergan eng muhim, katta kamchiliklardan biri – yosh avlod bilan lozim darajada ish olib borilmasligidir. Bizda har qanday postanovka tayyorlanganda asosiy rollarni faqat nom chiqargan katta masterlargagina berib, o'rta darajali va yosh artistlarga ahamiyat bermaslik yuz berib kelmoqda. Shuning natijasida... bir talay qobiliyatli va ishga chanqagan o'rta darajali va yosh artistlar ko'p vaqt... o'z mahoratlarini o'stirish va ko'rsatish imkoniyatidan mahrum qolib kelmoqdalar [1, 32]. Ustoz san'atkor Mannon Uyg'urning bu fikri hali hamon o'z yechimini topa olmayotgani, teatrlarda bir dunyo orzu istaklar bilan o'z faoliyatini boshlayotgan yosh istedodli aktyorlarning istedodlariga putur yetkazib qo'yishi mumkinligidan dalolatdir.

Buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi, jamiyat arbobi, dramaturg, jadidchilik harakatining yetakchilaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr bu ibratxonadur" – degan gaplarida ham teran ma'no borligini aytib o'tadigan bo'lsak, o'sib kelayotgan yosh, istedodli aktyorlar qalbida otash bo'lib yonayotgan milliy iftixor tuyg'ularini qo'llab quvvatlash va ibrat bo'lish bugungi kunda soha mutaxassislarining dolzarb va muhim vazifalaridandir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Mamatqosimov J. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

## GRIM SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI VA AXAMIYATI

**Ermatova Cho'lponoy**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Grim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada grim san'atining teatr va talabalar sahnasidagi o'rni va turlari haqida hamda yutuq va muammolari borasida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** grim, san'at, teatr, sirk, kino, televidenie, sahna, spektakl, rejissyor, aktyor, ustoz-shogird.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda" – degan iboralari bugungi kunda yurtimizning bilimga chanqoq yoshlar tafakkurida yangi O'zbekistonni ijtimoiy taraqqiyotini, ma'naviyatini, madaniyatini yuksalishida o'z hissasini qo'shishga chorlaydi.

Yangi davrda ijodiy munosabatlarni mustahkamlash va integratsiya jarayonini takomillashtirish uchun sharoit va huquqiy asos yaratildi. Nafaqat poytaxt teatrlari, balki viloyatlarda faoliyat olib borayotgan bir qator teatrlar ham dunyoning turli mamlakatlarida bo'lib o'tyotgan xalqaro teatr festivallarida ishtirok etib, o'z san'atini namoyish etish bilan bir qatorda, jahon teatr san'ati yo'nalishlari va ijodiy izlanishlarini kuzatib, ular bilan amaliy tajriba almashib kelayotganliklari tahsinga loyiqdir. Bulardan O'zbek Milliy akademik drama teatri, O'zbekiston yoshlar teatri, Alisher Navoiy nomidagi katta akademik Opera va balet teatri, O'zbek davlat drama teatri, rus akademik drama teatri, Qarshi shahridagi "Eski Machit" teatr-studiyasi, Respublika qo'g'irchoq teatri, Sirdaryo viloyat musiqali drama teatrlari yorqin misol bo'la oladi. Anashunday sahnalarda o'z mahoratlarini namoyish etish uchun chiqayotgan har qanday ijrochining obrazini grim ochib beradi.

"Grim qilishning ikkita asosiy usuli mavjud:

1. Tasviriy grim.
2. Bo'rtma haykaltaroshlik.

Tasviriy grim bo‘yoqlar orqali amalga oshiriladi. Grimlash paytida tasviriy san’atning alohida qoidalarini yodda tutgan holda yuzning ayrim qismlaridan boshlash zarur. Masalan qoramtir rang botiqlikka moyil, och ranglar esa yaqin va kattalashtirib ko‘rsatadi.

Bo‘rtma haykaltaroshlik – bunda paxta yoki rezinadan yasalgan “qo‘shimcha detal”ni natijasida yuz tuzilishi o‘z tabiiy ko‘rinishini o‘zgartiradi.” [1,253-254]

Grim san’atining teatr, kino, sirk, televideniye va boshqa tomosha san’atlarida o‘ziga xos o‘rni bo‘lib obraz yaratish uchun muhim san’at turi hisoblanadi. Grim haqida so‘z borar ekan avvalo “grim” o‘zi nima degan savolga javob olsak

**Grim** – aktyor qiyofasini, ayniqsa, yuzini o‘ynaladigan rolga mos qilib maxsus bo‘yoq, yasama soch-soqol, plastik massalar kabi vositalar bilan o‘zgartirish san’atidir.

“Grim tarixi qadimiy xalq marosim, sayl va o‘yinlariga borib taqaladi. Xitoy, Hindiston, Yaponiya va noshqa Sharq mamlakatlari, jumladan, vatanimizdagi tomosha turlarida qadimdan niqob va grimdan foydalanilgan. Tomosha ko‘rsatuvchi yuziga chizilgan rasmlar, qiyofasidagi o‘zgarishlar ko‘rinish jihatdan niqobga yaqin bo‘lib, ba’zan uning o‘rmini ham bosgan. Lekin grim niqobga nisbatan xarakterliroq va ifodaviy qudrati kengroq bo‘lganligi sababli aktyorlar asosan grimdan foydalanganlar.” [1,78]– deb yozadi tadqiqotchi J.Mamatqosimov o‘zining izlanishlarida.

Darhaqiqat grim har qanday ijrochi obrazini ochib berib uni yanada ilhomlantiradi. Yaxshi grimyor ijrochining u xonandami, aktyormi, suhandonmi, raqossami barchasining obraziga qarab uning namoyishini yana ham tasirli va yoqimli chiqishi uchun munosib tarzda pardozi qiladi. Shu sababli grimyor ish jarayonida yaxshi ishlashi uchun avvalo unga qulay sharoit hamda kerakli pardozi anjomlari taxt bo‘lgan bo‘lishi zarur. Bugungi kunda teatr, konsert, turli tadbir va tomoshalarda, bayramlarda faoliyat olib borayotgan grimyorlarning hammasi ham mutaxassis emas. O‘zbekiston davlat

san'at va madaniyat institutida aynan grim san'ati yo'nalishi ochilgan bo'lib bunda talaba grimyorlarga institut dotsenti, ustazoda san'atkor-pedagog Feruza Jalilova ta'lim berib, grim san'ati sirlarini o'rgatib kelmoqda. Talabalarga grim san'atidan ta'lim berish jarayonida Feruza Jalilova ushbu qoidalarga amal qilish muhim vazifalardan biri ekanligini hamisha uqtirib keladi – “Grimchi pedagog o'ziga xos bilim, madaniyatga ega bo'lishi kerak. Bilim madaniyatini egallashda quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerak:

**Dunyoqarash madaniyati** - ma'naviy madaniyat, falsafiy, ilmiy, diniy madaniyat bilan yaqinlashish jarayonida shakllanadi.

**Fikrlash madaniyati** - kundalik hayot jarayonida maxsus vositalarni birlashuvi va mantiqni o'zlashtirish orqali erishiladi.

**Xissiy madaniyatni** - shakllantirish insonning kechinmani ishlata olishi xususiyati bo'lib, usiz pedagog-murabbiy maqsadiga erisholmaydi.

**Muomala madaniyati** pedagogik madaniyatning asosiy komponenti bo'lib, u murabbiyning talabalar, atrofdagilar bilan muomalasini samimiyligidir.” [2,188]

Yuqorida keltirilgan fikrlar nafaqat grimchilar uchun balki boshqa soha vakillari uchun ham muhim fazilatlardan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytib o'tadigan bo'lsak grim har qanday ijrochi obrazini ochib berish bilan birga ijrochi va tomoshabinlarga estetik zavq ham bag'ishlaydi. Buyuk rejissyor va aktyor K.S.Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda “Grim ham san'at”

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Mamatqosimov J. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Jalilova F. Grim. – Toshkent: Navro'z, 2015.

## AKTYOR TARBIYASIDA INTONATSIYANING AXAMIYATI

*“Teatr san’ati” fakulteti “Musiqali teatr san’ati”  
kafedra 4 kurs talabasi SH.Jaksilikov  
Ilmiy rahbar: Dotsent SH.Muxammadiyev*

## ЗНАЧЕНИЕ ИНТОНАЦИИ В АКТЕРСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Факультет «Театральное искусство».  
Кафедра «Искусство музыкального театра»  
Студент 4 курса Жакселиков Ш.  
Научный руководитель: доцент Мухаммадиев  
Ш.*

## THE IMPORTANCE OF INTONATION IN ACTOR EDUCATION

*Faculty of "Theatre Art". "Art of musical theater"  
department 4th year student Sh. Jaksilikov  
Scientific supervisor: Associate Professor SH.  
Mukhammadiyev*

***Annotatsiy.** Insonlarda xilma-xil psixologik ranglarni, o‘z tovushi orqali berish imkoniyatlari juda cheksiz. Tovushning intonatsiyasini ijro etayotgan timsolning ta’rifi, aniq vaziyat bilan bog‘langan ruhiy holatga moslashuvi, intonatsiya orqali hamkorga va tomoshabinga emotsional ta’sir kuchini yuzaga keltiradi.*

***Kalit so‘zlar:** Xonanda aktyor, rejissyor, dirijyor, partitura, pedagog-rejissyor, nota, ritm, temp, dinamika, sahnaviy hatti-harakat, voqiylik, dramaturg, baletmeyster, pedagog, muallif, bastakor, repetitsiy.*

***Аннотация.** Возможности для людей передают различные психологические цвета с помощью собственного голоса безграничны. Определение эмблемы, выполняющей интонацию звука, адаптацию к настроению, связанному с конкретной ситуацией, создает силу эмоционального воздействия на партнера и зрителя через интонацию.*

***Ключевые слова:** Певец, актер, режиссер, дирижер, партитура, педагог-постановщик, нота, ритм, темп, динамика, сценическое действие, действительность, драматург, хореограф, педагог, автор, композитор, репетиция.*

***Annotation.** The possibilities for people to convey different psychological colors through their own voices are endless. The definition of the emblem performing the intonation of the sound, the adaptation to the state of mind associated with the particular situation, creates the power of emotional impact on the partner and the viewer through the intonation.*

***Keywords:** Singer, actor, director, conductor, score, pedagogue-director, note, rhythm, tempo, dynamics, stage action, reality, playwright, choreographer, educator, author, composer, rehearsal.*

Insonning ovozi xilma-xil psixologik ranglar bilan boy, shuning uchun ham har bir kuylovchi aktyorning asosiy vazifasi o'z tovushining ranglarini rivojlantirish, murakkab ijrochilik san'atini egallash. Bu uning ijodiy negizi va shu bilan birga aktyorning individual ijodining belgilovchisi bo'lib, uning eng yuqoridagi ijrochilik mahoratining kategoriyasidir. Qanday qilib ovoz tovushi bilan u yoki bu musiqali xolatni, ishtirok etuvchining kayfiyatini tasvirlashi mumkin va tuyg'ularni ifodalash uchun qanday ohangni ishlatish kerak?

Biz oddiy musiqali ohangni, ya'ni biron kuy yoki notaning aytilishini, tovushlarning o'zaro bog'lanishini emas, balki tovushning ma'noli ohangini nazarda tutyapmiz. Masalan, inson bir xil tovushda «seni sevaman» va «sendan nafratlanaman», degan gapni aytolmaydi. Har birida, albatta, o'ziga yarasha ohang ishlatiladi, ya'ni ma'nosiga mos bo'lgan intonatsiy. Demak, kuylashning o'zi va uning texnikasi kuylovchi aktyor bo'lishi uchun yetarli emas. Qo'shiq ijrosida ohangga juda katta ahamiyat berish kerak. Shunda tovushning intonatsiyasini ijro etayotgan timsolning ta'rifi, aniq vaziyat bilan bog'langan ruhiy holatga moslashadi, intonatsiya orqali hamkorga va tomoshabinga emotsional ta'sir etadi<sup>19</sup>. Berilgan shart-sharoitda timsolning ohangi, ya'ni tovushning intonatsiyasini qidirish jarayoni-bu vokal san'atini xatti-harakatli qiladigan va musiqa orqali yozilgan dramani ifodalaydigan eng muhim narsadir. Pedagog-rejissyor talabalar bilan birgalikda rol ustida ishlagan vaqtda unga nafaqat ifodaviy vositalarining (ritm, temp, dinamika, nozik farqlar va ulardan kelib chiqqan aktyorlik mahoratining vazifalari) muhimligini tushunish, balki texnikasining asosini ham bilish kerakligini tasdiqlaydi. Bu pedagog-rejissyor talabaning diqqatini xonandalik texnikasining elementiga jalb qilish kerak ekan, degan gap emas. U talabalarning diqqatini, kerakli ifodaviy vositalarini topishga yo'naltirishi kerak. Gap ayrim bir ma'noda, «tovushning rejissurasi» haqida ketayapti deb tushunishimiz mumkin. Albatta,

---

<sup>19</sup>Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. 2009.

pedagog-rejissyor, tovushni yo‘lga solish, uni chiqarish, cho‘zish kabi masalalar bilan shug‘ullanishi kerak emas, ammo obrazdan, janr ta’rifidan va qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqib, tovushning tembr, emotsional, psixologik ranglarini bilib, u talabaga nafaqat so‘zning, balki tovushning ham mag‘zini chaqishga yordam berishi mumkin. “Oddiy AAA tovushi bilan biz dilimizdagi hissiyotni ifodalashimiz mumkinligini tushunasizlarmi?”,-deb so‘ragan edi K.S.Stanislavskiy, kuylovchi aktyorning tovushiga kerakli psixologik rangini tuzilishiga yordam berib. “Lekin boshqa AAA tovushi bor. U berk, bo‘g‘iq, tashqariga erkinlik bilan chiqmasdan, ichkarida qolib, xuddi g‘ordan yoki tobutdan kelayotgan dahshatli, mash‘um ovoz bo‘lib, g‘o‘ng‘illab aks sado etadi. Makkorona AAA tovushi ham bor. U parvonaday uchib chiqib, parma kabi dilga kirib, asabni buzadi. Quvnoq AAA tovushi ham bor. U dilimizdan o‘qday otilib chiqadi”<sup>20</sup>

Qo‘yilgan ijodiy masalaga qarab, tovushning kerakli xarakteriga ega bo‘lgan jaranglashni so‘zda, tovushda ham topa bilish, ijrochidan ayrim intonatsion mahoratga ega bo‘lishligini talab qiladi. Inson xilma-xil psixologik ranglarni, o‘z tovushi orqali berish imkoniyatlari cheksiz. Ustozlarning ko‘pchiligida ijodiy fikrlarning nihoyatda kichik o‘zgarishlari, darhol tovushning psixologik rangida aks etadi. Rassom yorug‘-soya va boshqa badiiy-ifodaviy vositalar orqali suratda o‘zining psixologik va emotsional mazmunini ifodalasa, kuylovchi aktyor ham o‘zining individual xususiyatlari bilan musiqiy spektaklning fikrini boyitadi. Lekin, kuylovchi aktyorlarning boshqa kategoriyasi ham borki, ular faqat bastakorning fikrini tashqi shakliga ega bo‘lishadi. Ular musiqiy matnni mexanik ravishda o‘rganib, ritm bilan bog‘langan tovushni “to‘g‘rilarcha”, kerakli joyda ko‘tarib yoki pastga tushirib, bizga “kuylaydigan qo‘g‘irchoqlarni” eslatadi. Bunday xonanda haqiqatan ham bastakorning fikrlarini va tuyg‘ularining nusxasini ko‘chiruvchisi bo‘ladi. Ular na san’atkor, na ijodkordir. Aynan shunday kuylovchilar san’atimizga katta

---

<sup>20</sup> Станиславский К.С. Немирович-Данченко Вл. Об искусстве актёра-певца. –Москва: Искусство, 1973.

ziyon keltiradi. Ma'lumki, dramatik teatrda intonatsiya masalasi man qilingan. Musiqali teatrda esa u butunlay boshqa ma'noga, boshqa ahamiyatga ega. Xonandalarimiz ohang, ya'ni intonatsiya haqida o'ylamaydilar, desa ham bo'ladi. Ba'zan qobiliyatli aktyorda u o'zidan o'zi paydo bo'ladi. Lekin intonatsiya ustida biz atayin ish olib bormaymiz. «Intonatsiya» so'zidan hayiqib, biz bu muammoni umuman olib tashladik. Intonatsiyani topish bu timsolning yechimiga o'z hissasini qo'shish deganidir.

Notaning, jumlaning, so'zning, rolning intonatsion bo'yoqlari bu timsol ustida bo'lgan badiiy ishning natijasidir. Qahramonning intonatsiyasini qidirish sahna haqiqatini izlash deganidir. Ular haqiqiy timsol bilimlarining natijasida yaratiladi. Intonatsiya bu bizning ijodiy ishlarimiz, bizning izlanishlarimizdir. Ammo bu ijodiy ishlar, bu izlanishlar asarning musiqiy-dramaturgik materialini, uning mohiyatini sidqidillik bilan o'rganishdir. Intonatsiya ustidagi ish bu rolning ichki mohiyatini hayajonlantiradigan ilmoqlarini qidirishdir. Afsus dirijyor, rejissyor va aktyorlar sahnada ko'pincha tinglovchini hayratda qoldiradigan ma'lumot bermaydi. Musiqiy tilda «piano», «forte» degan tushunchalar bor va bunga amal qilish kerak<sup>21</sup>. Ba'zan shunday xolatlarga duch kelamizki xonanda qo'shig'ini o'z vaqtida boshlayaptimi, demak, hammasi yaxshi. Xonanda bastakorning ulug' asarini o'rganib tomoshabinni hayratda qoldirmasdan, unga faqatgina ma'lumot beradi, chunki hayrat bo'lish uchun insonning o'zi, uning qalbi hayajonlanishi kerak. Kuylovchi aktyor bastakorning g'oyasidan hayajonlansa, ifodalab berishi mumkin.

Yozganlarining hammasini juda ta'sirli va yorqin ifodalab berishi mumkin. Bularsiz intonatsiya qidirish jarayoni befoyda bo'lib chiqadi. Intonatsiya bu maqsaddir. Unga aktyor tasavvur orqali erishishi mumkin. Kuylayotganini tasavvur qilish «ko'rish» juda muhim va katta ahamiyatga ega jarayon. Shuningdek, eng muhimi bu aktyorga, talabaga to'g'ri intonatsiyani

---

<sup>21</sup> Захава Б. Мастерство актёра и режиссера. –Москва: Просвещение, 1978.

topish, ashulasining har bir jumlasida ma'nolilik istagini yaratishga yordam berish.

Ijro jarayonida nafaqat intonatsion ifodaviylik va ijrochining xarakter xususiyatlari, o'ziga xos bo'lgan yechish imkoniyatlari, balki muallifning g'oyasi va sahnalashtirish kerak bo'lgan asosiy mohiyati ham belgilangan. Inson oddiy suhbatda ham o'z fikrini ifodalash uchun nafaqat so'z, balki uni ta'kidlash uchun ifodaviy talaffuzni ham ishlatadi. Insonning ohangida, ya'ni uning har xil ranglarga va tushlarga o'tish qobiliyatida, katta ifodaviy imkoniyatlar bor. Agarda inson o'z nutqida so'zlarni kerakli ohangda talaffuz etmasa, uning nutqi jonsiz, bir xil, monoton bo'ladi. Shunday qilib, bir jumlaning ohangi, timsolni tushunishga yordam berib, uni fikr nurlari bilan boyittirdi va kerakli sharoitni topib, ijodkor bo'lganligi uchun shu sharoitni spektaklda ham yaratdi.

Xonandalik musiqaning ifodaviy ildizlari, nutq ildizlari bilan birdir. Bastakor o'z asarida, ularni musiqaga xos shartli belgilar orqali tasdiqlaydi. Ammo bu belgilar quyning psixologik rangini, jonli mohiyatini, ma'nosini emas, balki faqatgina intonatsiyaning shaklini, ya'ni ovozning ko'tarilishini yoki pastga tushishini belgilaydi xolos. Shoirning so'zi kabi, bastakorning nota belgilari, bu muallif fikrlarining ichki mohiyati emas, balki tashqi shaklidir. Faqat kuylovchi aktyor shu jonsiz belgilarni, so'zlarni ongli ravishda o'z ruhiy holatidan, jonidan o'tkazib, ularni o'zinikiday qilib olib, jonlantirishi mumkin<sup>22</sup>. Matndan kelib chiqib, ular musiqiy asarni o'ziga xos bo'lgan intonatsiya bilan ovozning psixologik ranglari orqali ijro etadi va bastakorning ijodida yetib bormagan musiqiy timsolning qirralarini ham ko'rsatadi. Psixologik intonatsiya, so'zning ma'noli rangi bu kuylovchining hamma ifodaviy vositalaridan eng kerakli bo'lib, shu vositani aniqlashda aktyorning ijodiy individual tomonlarini, mahoratini aniq ravishda belgilaydi. Bunday ohangning "to'g'riligi", so'zning, jumlaning kerakli ranglari, o'zidan o'zi

---

<sup>22</sup> Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. 2009.

musiqiy matnni yodlash natijasida paydo bo‘lmaydi. Bu timsol ustida ongli ravishda ishlash, ya’ni musiqiy partiturani tahlil qilish, tarixiy materialni o‘zlashtirish, oliy maqsadni anglashda va butun xatti-harakat davomi, rolning ma’noli vazifasini tushunish, uning jismoniy holatini va ikkinchi planini topishda ifodalanadi. Shunday qilib, intonatsiya, vokal timsolni yaratish va “insonning ruhiy hayoti”ni kechirish vositasi bo‘lib, ijrochi oldida turgan ijodiy masalalarga jiddiy qaraganligining natijasi bo‘ladi va sahna-timsolining ustida umumiy ishning jarayonida yetib keladi<sup>23</sup>. Shu sababli rejissyor-pedagogning oldida turgan muhim vazifalaridan biri bu musiqa, nutqning ifodaviyligining ustida ishlash, ohang harakatlarini qidirish jarayonida talabalarga faol yordam berish, chunki berilgan shart-sharoitda to‘g‘ri belgilangan xatti-harakat, kerakli ohangni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. 2009.
2. Stanislavskiy K.S. Tanlangan asarlar. 2 jild. –Moskva: Iskusstvo,1953.
3. Zaxava B. Masterstvo aktyora i rejissera. –Moskva: Prosvesheniye, 1978.
4. Stanislavskiy K.S. Nemirovich-Danchenko VI. Ob iskusstve aktyora-pevsa. –Moskva: Iskusstvo, 1973.

---

<sup>23</sup> Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. 2009.

## ESTRADA AKTYORI SAN'ATI XUSUSIYATLARI

*Dilyorbek Nurxonov O'zDSMI talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Izzatbek Kurbanov O'zDSMI*  
*o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada estrada aktyori san'atining ayrim o'zi xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** aktyor, teatr, estrada san'ati, estrada aktyori, nomer, konsert, tomoshabin.

### CHARACTERISTICS OF THE ART OF VARIETY ACTING

**Abstract:** this article provides information about some specific features of the art of a variety actor.

**Keywords:** actor, theater, variety art, variety actor, number, concert, viewer.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assemblyasining 72-sessiyasida yoshlar to'g'risida so'zlagan nutqlarida shunday degan edilar: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. O'zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi". [1, 1] Shuningdek, yurtboshimiz dunyo yoshlari o'rtasida zo'ravonlik g'oyasi tarqalishining oldini olish kerakligini, ularning huquq va manfaatlarini, turmushini ijtimoiy himoya qilish uchun dunyo xalqlaridan ko'p tomonlama hamkorlik tashabbusi so'ralishini aytib o'tdi. Yoshlar ongida huquqiy savodxonlikni oshirish, malakali bilimga ega bo'lish bu boradagi islohotlarning muhim amaliy sharti hisoblanadi. Avvalo yoshlarimiz nima sababdan bu yo'llarga kirib qolayotganiga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Yoshlarga oid davlat siyosatining negizi ham aynan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish masalalasiga qaratilgan. Ma'naviyati shakllanayotgan o'smir yigit yo qiz teatr sahnasida muhim g'oyaga asoslangan murakkab syujetdagi spektaklni tomosha qilsa albatta ta'sirlanadi, ruhiy larzaga keladi, natijada esa turli egri yo'llardan yurmaslik, o'z tafakkurida hayotiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish holatlari kuzatiladi.

Estrada san'ati – san'at turlarining barcha jabhalarini o'z ichiga olib kun sayin faqat rivojlanib o'z tomoshabinlariga ega bo'lib kelmoqda. Dastlab estradada ijro etilgan ko'pgina qo'shiqlar xalq orasida keng tarqaldi.

Estradamizda mavjud monolog, repriz kabilar kundalik nutqimizdan ham o'rin olib borayapti. Hozirgi estrada uchun ko'p janrlilik xos xususiyat bo'lib qoldi, bu tomoshabin e'tiborini tortmoqda. Estrada jamoatchilik hayotiga jadallik bilan kirib borayapti va tomoshabin uchun qadrli bo'lgan san'at turiga aylanib qolayapti. "XX asrga kelib estrada san'at turi bo'lib ajralib chiqishiga amaliy va nazariy asos yetarli edi. Uning asosini kichik shakldagi nomerlar tashkil qilgan. Nomer esa – g'oyaviy obrazli kompozitsiyaga ega bo'lgan, 5-10 minutlik kichik shakldagi badiiy tomosha deb qabul qilingan. Konsertlar – kichik shakl turida – nomer ijod qiladigan barcha yo'nalishlarni bir kechada, bir sahnaga jamlash va ularni konferanse yordamida boshqarish hamda ulug'lash qudratiga ega bo'lgan tomosha turidir".[2, 244]

Estrada san'ati – keng ma'noda ommabop badiiy, adabiy, musiqiy, raqs tomoshasi va boshqa janr va shakllarning umumiy ifodasi, tor ma'noda-sahnaviy professional, ko'p qirrali, ko'p janrli san'at turi hisoblanadi. Agar biz teatr bilan estrada san'atini taqqoslaydigan bo'lsak, har ikkalasi ham ijrochilik san'ati ekanini ko'rishimiz mumkin. Teatr hayotiy voqelikning adabiy asar (pesa, ssenariy) orqali hatti-xarakat vositasida ifoda etsa, estrada ijrochiligi plastika, so'z, musiqa, qo'shiq, raqs kabi san'at turlari orqali tomoshabinga yetkazib beriladi. Estrada aktyori bilan teatr aktyori orasida o'ziga xosliklar mavjud. Teatr aktyori spektaklga tegishli dekoratsiya, kostyum, musiqa va boshqa komponentlar bilan ishlaydi. Estrada aktyori bo'lsa, unga xatto

dekoratsiya ham shart emas. Chunki estrada san'atida teatr tomoshabiniga ko'rsatiluvchi estetik taassurot, asosan, aktyor orqali amalga oshiriladi. Estrada aktyori o'zidagi bor hunarni 10-15 daqiqa ichida o'z fikrini, g'oyasini – qo'shiq, raqs, plastika, pantomima, hikoya, monolog, qiziqchilik orqali bayon etadi. Estrada aktyori rol ijro etish orqali hayot manzaralarini jonlantiruvchi badiiy bayonchi sifatida ko'rinadi. Bu xol estrada aktyorini ko'p qirrali va kasbiy mahorati yuqori bo'lishini taqozo etadi.

Minglab tomoshabinlar ko'z o'ngida harakat qiluvchi estrada aktyori ijodkor sifatida ham, ma'naviy komil shaxs sifatida ham o'zining mahoratini ko'rsata olishi lozim bo'ladi. Bu estrada aktyorining naqadar serqirra iste'dod egasi ekanligini isbotlashi bilan birga uning tayyorgarligi har doim yetarli bo'lishi zarurligini o'z-o'zidan talab etadi. Estrada aktyori sahnada qanday rol ijro etishidan qat'iy nazar tomoshabinni ma'naviy va estetik ravishda tarbiyalaydi. Tomoshabinni tarbiyalashdan avval aktyorning o'zi saviyasi, madaniyat jihatdan yetarli darajada bo'lishi lozim.

Agar tomoshabin sahnada rol ijro etayotgan aktyorni saviyasi, madaniyat jihatdan yetarli darajada emasligini sezdimi, tamom, unday san'atkorning o'zini ham, san'atini ham tan olmaydi. Nimagaki, tomoshabin aktyorni har bir nafasigacha his etib turadi, aktyor voqealar sari tomoshabinni o'zini orqasidan yetaklab boradi, bir sahnadan ikkinchi bir sahnaga o'tishida ham aktyor o'z holatini yo'qotmasdan o'tadimi yoki yo'qmi, har bir qadamigacha kuzatib boradi shuning uchun ham tomoshabinni hech qachon aldab bo'lmaydi.

Estrada aktyori, akademik plandagi konsert ijrochisidan ko'plab professional bilimlarga ega bo'lishi bilan, bir qancha san'at turlarining tutashgan joyida bo'la olishi bilan farqlanadi. Shu bilan u tomoshabinlarni o'ziga jalb qilib, o'zining "universalligi" bilan ijobiy emotsiyalarni uyg'ota oladi.

Bayramonalikni, tashqi tamoshaviylik orqali his etish mumkin. Bunday bezaklarni ko'pincha myuzik-xoll tomoshalarida chiroqlarning o'ynashi,

xushmanzara “zadnik”larni o‘zgarishi, tomoshabin ko‘z oldida sahna maydoni shaklining o‘zgarishini ko‘rish mumkin.

Fikrimizga qo‘shimcha qilib dotsent M.Rashidovning shu kasb yuzazidan aytgan gaplarini qo‘shimcha qilamiz: “Smoktunovskiyning shunday gapi bor: Rolni o‘ynab bo‘lmaydi, haqiqatdan ham aktyor sahnada rol ijro etayotgan vaqtida o‘sha odam bo‘lib ketishi kerak, ich-ichidan, yurak-yurakdan o‘sha qahramon bo‘lib sahnada yashashi kerak. Aktyor sahnada musiqani, chiroqni yoki kostyumni ortiga berkinib, meni tomoshabin xatoimni sezmaydi, ko‘rmaydi, bilmaydi deb o‘ylasa xato qiladi. Tomoshabin aktyorni har bir qadamidan tortib, nafasigacha baribir sezib, bilib o‘tiradi”.

Estrada aktyori teatr aktyoridan farqlanuvchi jihatlaridan biri, u aksariyat holda tomoshabin bilan bevosita muloqotda bo‘ladi. Teatrda aktyor spektaklda rol ijro etuvchi aktyorlar bilan o‘zaro ansambl bo‘lib harakatda bo‘ladi va uning tomoshabin bilan bo‘ladigan muloqoti shu obraz orqali amalga oshadi. Teatr san’atining tabiati shunday. Estrada aktyori grim, parik kabi rol uchun zarur ifoda vositalarida ko‘rinishi shart emas. Shu sababli tomoshabin estrada aktyorini o‘zi qanday bo‘lsa, shu tarzda ko‘radi va san’atdagi layoqatiga, mahoratiga, kasbiy darajasiga qarab baho beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. <https://president.uz/oz/lists/view/1063> saytidan.
2. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
3. Xamidova SH. Estrada teatri va uning janrlari. – T.: O‘zDSI, 2009.

## ESTRADA SAN'ATIDA KONFERANS JANRI

Izzatbek Kurbanov  
izzatbek\_kurbanov@mail.ru

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi

**AnnotatsiY.** Ushbu maqolada estrada san'atining konferans janrining o'ziga xos xususiyatlari, uning konsert, bayram va tomoshlardagi vazifasi, o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Estrada, konsert, konferanse, nomer, aktyor, janr, tomosha.

### ЖАНР КОНФЕРАНСА В ЭСТРАДНОМ ИСКУССТВЕ

**Аннотация.** В данной статье речь идет об уникальных особенностях жанра конференса, специфике, роли, месте и значении в концертах, праздниках и представлениях.

**Ключевие слова:** эстрада, концерт, конференс, номер, актер, жанр, представлений.

### GENRE OF ENTERTAINER IN VARIETY ART

**Annotation.** This article deals with the unique features of the genre of entertaining, the specifics, role, place and significance in concerts, holidays and performances.

**Key words:** variety, concert, entertainer, number, actor, genre, performances.

Estrada konsertlarida so'z janrining asosiy bo'g'inlaridan biri bu konferanse hisoblanadi. O'z ildizlarini Yevropa kafe va kabarelaridan olgan so'z janriga mansub mazkur san'at turi avvalo sharqiy Yevropa va Rossiya keyinchalik G'arbiy Osiyo mintaqasida vujudga kelib, keng quloq yozadi.

**“Konferanse”** fransuz tilidagi *“conferer”* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *“ma'ruzachi”* degan ma'noni anglatadi. Konferans janri estrada janrlari orasida yosh janrlaridan biri hisoblanadi.

Har qanday konsert, bayram kechalari, shoular va shu singari tadbirlarning konferansesiz o'tishi bu simfonik orkestrning dirijyorsiz ijrosi demakdir.<sup>24</sup>

---

<sup>24</sup> Egamberdiyev F.T. Estrada san'ati metodologiyasi va texnologiyasi. T., Lesson press, 2017. B 40.

Bayram tomoshasi yoki konsertda konferansening roli muhim ahamiyat kasb etadi. Konferanse tomoshadagi turli xil janrga tegishli nomerlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi artist bo‘lib, yuqori improvizasiya sohibi va bayramning ichki va tashqi dissonansini saqlab turuvchi estrada aktyoridir. U nomerlar o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi, tomoshabinning va kerak hollarda bayram ishtirokchilarining kayfiyatini oshirishga, ularga zavq ulashishga harakat qiladi. Konferansening tomoshadagi vazifasi bu bilan cheklanmaydi. U konsert davomida nomerlarning ketma-ketligini aytibgina qolmay, uning tempo-ritmini, xatti-harakat uyg‘unligini sezib va saqlab turadi. Konferanslik ijodkordan o‘tkir aql egasi, tezkor so‘zga chechanlikni va kuchli badihago‘ylik iqtidori bo‘lishlikni talab etadi. U san‘atning barcha turini va yo‘nalishlarini o‘zida jamlagan artist.

Konferanse o‘tkazilayotgan bayram yoki kechaning xo‘jayini, egasi, mezboni, bayramga tashrif buyurganlar esa uning mehmonlari. Tomoshabinlar, hattoki bayram ishtirokchilari bo‘lmish boshqa artistlar ham uning mehmonlari hisoblanishadi. Demak, konferanse mezbon sifatida ularni ko‘taringi ruhda, bag‘ri kenglik bilan kutib olishi, ularning ko‘ngliga kira olishi, ularga shodlik ulashishi zarur. Ular hayotimizda mavjud ijtimoiy kamchiliklarning “tepasidan” turib zavq bilan kula oladilar, nuqsonlarni ilg‘ab olib, oshkor qiladilar, kerak joylarda kam gapirib, faqatgina imo-ishoralar va xatti-harakatlar yordamida tomoshabinga hamma narsani tushuntirib beradilar va uning sevimli aktyoriga aylanib ham qoladilar. Agarda, konsert davomida konferanse biror bir muammo yoki kamchilikni sezib qolsa, bunday hollardan chiqib ketish yo‘llarini u juda yaxshi biladi. Ya’ni, muammolarni hech kimning yordamisiz o‘zi hal qiladi. Bayram rejalarini, uning ssenariysini o‘zgartira oladi. Tomoshaning zerikarli yoki tomoshabinning ahamiyatsiz bo‘la boshlaganini aniqlik bilan seza oladi va o‘zining hazillari hamda yumori bilan ularning zerikishlariga yo‘l qo‘ymaydi. Nomerlar orasidagi o‘z chiqishlari bilan kelganlarni hayratga soladi, nafaqat tomoshabinni, balki boshqa

aktyorlarning ham tomoshaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Uning ovozi tiniq, jilmaygan yuzidan nur yog‘ilib turadi.

Shunday yo‘sinda, konsert davomida tomoshabin bilan eng ko‘p uchrashadigan, bir qarashda uning ruhiyatini bila oladigan artist konferanse bo‘lib qoldi. Chunki vokalist bir-ikki nomerdan keyin boshqasi bilan almashinadi. Konferanse esa nomerlar orasida o‘z nomerini ijro qilib ulguradi va konsertni boshqaradi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha hislatlar konferanseda bo‘lishi talab etiladi. Konferanse aktyorlik imkoniyatlarining cho‘qqisida bo‘lishi zarur. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizday uning ijrosini nafaqat tomoshabin balki, boshqa aktyorlar ham kuzatib turishadi. Shuning uchun ham konferanslar tajribali va mahoratli aktyorlar orasidan chiqadilar. Yosh estrada aktyori konferans bo‘lib yetishishi uchun 10-15 yillik katta tajriba maktabini bosib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Kamdan-kam hollarda o‘ta iqtidorli aktyorlarga bo‘yo‘lni qisqa muddatda o‘tishlari mumkin.

Konsertdagi konferanslik bir kishilik, ya’ni yakka boshqaruvni, yoki ikki kishilik navbatma-navbat boshqaruvni, ba’zan esa ikki kishining bir vaqtdagidiologli boshqaruvini talab qiladi. Bu yo‘nalishlarda ham yuqorida sanab o‘tilgan uslublardan foydalanish kuzatiladi. Juftliklar – ikki erkak, bir erkak va bir ayol, ikki ayol, ba’zan esa uchlik, to‘rtlik va hokazo konsertlarni boshqarish ham kuzatilib turadi. Bunday shakllar konsert yoki tadbirning mavzusi va g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Konferansning asosiy maqsadlaridan yana biri tomoshabin bilan muloqotga kirishish hisoblanadi. Estradada so‘z askiya janri ya’ni “podtekst”lar ko‘rinishida ijro etilishi mumkin. “Ijodning mazmuni podtekstda”, degan edi K. S. Stanislavskiy. “Usiz so‘zning sahnada keragi yo‘q. Ijod paytida so‘z – adibdan, podtekst artistdan”.<sup>25</sup> Estradada so‘z hatti-harakati shundan iboratki, unda ijrochi sahnada yolg‘iz bo‘lishi mumkin, ana shu yerda tomoshabin

---

<sup>25</sup> K.S.Stanislavskiy. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” T. “Badiiy adabiyot” nashriyoti, 1965 yil. B 68.

aktyorning sherigi sifatida konferansning aniq maqsadi yuzaga keladi va bunday hollarda soʻz hatti-xarakati aynan tomoshabinga qaratilgan boʻlishi shart. Bu estrada aktyori ijrosining ham asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Estrada spektakllari dramatik spektakllardan farqli oʻlaroq faqat sahnada oʻynalishi shart emas. Parklarda, sirk arenasida, dam olish maydonchalarida hattoki parda yoki kulislarsiz, har qanday dekoratsiyasiz sahnada oʻynalishi mumkin. Bu farqlarni biz yuqorida ham bildirgan edik. Ammo konferanse sanʼati haqida soʻz borganda, ularni yana bir bor eslab oʻtishni lozim topdik. Chunki konferanse sanʼati xususiyati haqida gapirganda bu oʻzgarishlarning mazkur janrga bevosita taʼsiri mavjudligini koʻramiz. Bunda oʻzgarishlar konferansening xatti-harakatlariga va ijrosiga koʻzda tutilmagan murakkabliklar tugʻdirishi tabiiy. Misol uchun spektaklning sirk arenasida oʻynalishini tasavvur qilsangiz, aktyor tomoshabinning barcha tomondan qarab turganligini va ularning har biriga oʻz nomerini qulay koʻrishlari va eshitishlari uchun imkoniyat yaratishiga toʻgʻri keladi. Nutqning ravonligi, mimikalarning aniqligi, soʻzning tomoshabinga sof holda yetib borishi, qayerda va qay holatda spektakl oʻynalayotganligidan qatʼiy nazar, tomosha mobaynida bularning barchasi estrada aktyori va xususan konferansdan talab etiladi. Buning uchun estrada aktyori ijroda va improvizatsiyada kuchli mahoratga ega boʻlishi lozim.

Konferansning bayram davomidagi umumiy kompozitsiyani saqlab turuvchi shaxs ham ekanini unutmasligimiz zarur boʻladi. Dramaturgiya jihatidan asoslangan konsertlar davomida konferanse dramaturgiya qonuniyatlarini saqlab qolishni ham oʻzining vazifalari deb biladi. U konsert davomida dramaturgiya qonuniyatlariga tegishli boʻlgan qarama-qarshiliklarni oʻzi yaratib, zavyazka(boshlangʻich hatti-harakat-tugun), kulminasiya(avj nuqtasi) va razvyazka(yechimni) oʻzi belgilab, har xil janrlarga tegishli nomerlardan tashkil topgan tomoshaning tempo-ritmini saqlab turishi zarur boʻladi.

Koʻpchilik konferanslar nomerlarni bir-biriga bogʻlashda quyidagi janrlarga tegishli nomerlardan foydalanadilar: Sheʼr, masal, feleton, latifa,

yumoristik etyud, kichik intermediya, biror-bir asardan monolog, repriza, kuplet, ashula, qo‘shiq, ariya va hokazolar. Albatta, bularni ijro etishdan oldin iloji boricha konsertda o‘zidan oldingi va keyingi nomerlarning janriga o‘xshash bo‘lmagan janr tanlanadi.

**“Nomer”** – estrada san’ati asosi. “Estrada, - deydi A.Anastasev, - badiiy hayotni mohiyatan aks ettirishi va shaklan mavjudligi bilan farq qiladi, agar teatrdan bu spektakl bo‘lsa, estradada – bu nomer hisoblanadi”<sup>26</sup>

Konferansning nomeri qisqa va lo‘nda bo‘lishi, zerikarli bo‘lmasligi bilan birga o‘zidan oldigi va keyingi artistga izoh berishi, uni tanishtirishi ham kerak bo‘ladi. Tomoshabin keyingi artistni tanishtirayotgan konferansni diqqat bilan tinglashi uchun u bor mahoratini ishga soladi, sabr-toqat bilan har bir artistni sahnaga taklif qiladi va kuzatadi. U har qanday vaziyatda mehmondo‘stligini, tomoshabinga va boshqa aktyorlarga nisbatan izzatli bo‘lishni, hurmat va ehtiromni unutmaydi. Demak, konferanse konsert davomida, har doim barchaning diqqat markazida ekanligini yodidan chiqarmasligi zarur. Kiyinishda, o‘zini tutishda, muomalada, hatti-xarakatda, qisqasi madaniyatning barcha ko‘rinishida hammaga o‘rnak bo‘lishi va bunga doimiy e’tibor qilishi lozim.

Barcha aktyorlarning nomerlari singari konferansning nomerida ham qandaydir bugungi kun muammosining ko‘tarilishi, uning avj nuqtasi va so‘ngida ana o‘sha muammoning yechimi zarur bo‘ladi. XX asrning 20-yillarida Rossiyada estrada aktyori va konferanslik sohasida ijod qilgan, hamda ushbu janrning o‘ziga xos qirralarini tadqiq etgan Donat Mechik bu haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Konsert davomida ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan barcha nomerlar umumiy kombinasiyaga ega bo‘lishi bilan birga, badiiy-g‘oyaviy tuzilishi jihatidan bir maqsadga qaratilganligi estrada tomoshalari, revyu, myuzik-xoll, hattoki estrada janri asosidagi spektakllarning paydo

---

<sup>26</sup> Анастасьев А. Эстрадное искусство и его специфика/ Русская советская эстрада. 1917-1929. М., 1976. С. 8.

bo‘lishiga sababchi bo‘ldi.”<sup>27</sup> Konsertlarning ana shunday rivojlanish yo‘li estrada san’atining va alohida estrada teatrining dunyoga kelishiga olib keldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Egamberdiyev F.T. Estrada san’ati metodologiyasi va texnologiyasi.T., Lesson press, 2017. B 40.
2. K.S.Stanislavskiy. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” T., Badiiy adabiyot, 1965. B 68.
3. Anastasyev A. Estradnoye iskusstvo i yego spetsifika/ Russkaya sovetskaya estrada. 1917-1929. M., 1976. S. 8.
4. Iskustvo aktyora na estrade. Donat Mechik. Izdatelstvo «Iskusstvo» Leningrad. 1972 god. 34 b.

---

<sup>27</sup> Искусство актёра на эстраде. Донат Мечик. Издательство «Искусство» Ленинград. 1972 год. 34 б.

## MUNDARIJA

Abdullayeva Munavvara	“O‘zbek rejissurasi va aktyorlik maktablarida zamonaviylik” .....	4
Mahmudova Hamida	Xozirgi zamon teatr san’atining rivojlanishidagi muammolar.....	11
Qobilov Nasrullo	Tarixiy asarlarda umuminsoniy qadriyatlarning o‘ziga xosligi.....	16
Hamidova Shoiraxmedova Zamira	Muallif bilan ilk uchrashuv..... Bugungi kun talabasi aktyorlik maxorati maktabini o‘zlashtirish ahamiyati.....	20 24
Djalilova Feruza	Teatr, televideniye va kinoda qo‘llaniladigan turli xil maxsus effektlarni yaratish bo‘yicha grimyorlar uchun amaliy qo‘llanma.....	34
Dadamirzayev Olimjon	Atmosfera – muxit.....	49
Qobilov Xabibullo	Teatrining yoshlar tarbiyasida ma’naviy –tarbiyaviy ahamiyati.....	52
Rajabova Sevara	Aktyorning obraz yaratishiga xizmat qiluvchi omillar....	57
Madrimov Qahramon	Zamonaviy o‘zbek milliy teatri.....	61
Rashidova Go‘zal	San’at ta’limida musiqali tragediyaga mansub ashulalarni o‘rgatishning ba’zi masalalari.....	67
Karayeva Feruza	Jahon mumtoz asarlari.....	71
Rizayeva Robiya	Grim san`atining takomillashuvi.....	75
To‘xtayev Xurshid	O‘zbek teatr san’atida monospektaklning o‘rni va ahamiyati.....	79
Usnatov Rashid	Dostonlar asosida musiqiy spektakl ishlashda ariyaning tug‘ilishi.....	83
Muhammadiyev Sherzod	Yaxlit sahnaviy asar sahnalashtirish ishlari.....	89
Xushvaqtoev Eldor	Musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashning ilk bosqichlari.....	94
Rasulov Umid	Milliy musiqali teatr an’analari.....	99
Farmonov Farhod	E’tibor jalilova - 100 yoshda.....	105
Qudratov Orifjon	Rejissor kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar yechimlar.....	108
Nurmanova Barno	Usmon azim asarlarining sahnaviy talqinlari.....	114
Rajabova Shaxnoza	Muhammadsiddiq sherayev – askiya san’ati ustuni..	119
Mamatqosimov Jahongir	Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasida hujjatli manbalarning badiiy sintezi.....	125
Ostanina Olga	Spetsifika prepodavaniya predmetov “istoriko-bitovoy tanets” i “balniy tanets” na akterskix kursax v teatralnix vuzax.....	130

Djamalxodjayeva Gulxumor	Muhammad yusuf dostonlarida ritorik so‘roq gaplar.....	134
Ermatova Sadoqat	Zamonaviy san’at ta’limida kadrlar tayyorlash masalalari.....	139
Ermatova Cho‘lponoy	Grim san’atining o‘ziga xosligi va axamiyati.....	142
Jaksilikov Shariyar	Aktyor tarbiyasida intonatsiyaning axamiyati.....	145
Nurxonov Dilyorbek	Estrada aktyori san’ati xususiyatlari.....	151
Kurbanov Izzatbek	Estrada san’atida konferans janri .....	155